

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**BOJXONA NAZORATI OSTIDAGI TOVARLARGA NISBATAN YUK  
OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-  
TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatichilagini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son **Farmoni** ijrosi yuzasidan, shuningdek, bojxona ma'muriyatichilagini isloh etish, bojxona yuk operatsiyalarini amalga oshirishni samarali tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom **1- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

bojxona nazorati ostida yetkazilgan tovarlar bo'yicha yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;

bojxona nazorati ostidagi tovarlar bo'yicha amalga oshiriladigan yuk operatsiyalarini nazorat qilish;

bojxona omborlarida tovarlar harakati tizimi;

bojxona omborida yuk operatsiyalarini amalga oshirishda bojxona ombori egasining hamda uning vakolatli shaxsining huquq va majburiyatları.

2. Belgilansinki:

a) quyidagi tovarlarga nisbatan bojxona ombori hududida o'tkaziladigan yuk operatsiyalarida bojxona organi mansabdor shaxsi ishtirok etishi shart:

qonunchilik hujjatlariga muvofiq bojxona hududiga olib kirilishi va bojxona hududidan olib chiqilishi (muomalasi, foydalanilishi va tasarruf etilishi) taqiqlangan yoxud cheklangan tovarlar;

bojxona ombori hisoblanmaydigan joyga bojxona ombori bojxona rejimida joylashtirilishi ko'zda tutilgan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida beriladigan litsenziyalar va ruxsatnomalar bo'yicha eksport-import qilinadigan maxsus tovarlar;

tranzit tarzda olib o'tladigan tovarlar;

harbiy yuklar, shu jumladan, qurol-yarog', harbiy texnika va o'q-dorilar, radioaktiv materiallar;

insonparvarlik yordami, texnik ko'mak sifatida va grantlar hisobidan olib kiriladigan tovarlar;

olib kirilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta qimmatliklari;

har qanday holatdagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar hamda ulardan yasalgan buyumlar (xom (tabiiy) va ishlov berilgan shaklda, affinlangan, xomashyolar, eritmalar, yarim tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlari, kimyoviy birikmalar, lomlar va ishlab chiqarishdan qolgan chiqindi shaklida);

madaniy boyliklar;

b) bojxona ombori hududida o'tkaziladigan yuk operatsiyalari litsenziya talablari va shartlari asosida jihozlangan videokuzatuv tizimi nazorati ostida bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi;

v) bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi bojxona nazorati ostidagi tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladigan yuk operatsiyalarida aniqlagan har qanday tafovutlar va nomuvofiqliklar to'g'risida bojxona organini xabardor qiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi:

a) bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini mavjud avtomatashtirilgan axborot tizimlarida elektron boshqarishni joriy etish va ishga tushirish bo'yicha

buyurtmachi, shuningdek, keyinchalik o‘z mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlovchi etib belgilansin;

b) ikki oy muddatda bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk va boshqa operatsiyalarni elektron boshqarishni joriy etish bo‘yicha texnik hujjatni ishlab chiqib, vakolatli davlat organlarida ekspertizadan o‘tkazsin hamda qaror kuchga kirguniga qadar uning ishga tushirilishini ta’minlasin;

v) bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do‘koni faoliyatini litsenziyalashda ularga joylashtirilishi mumkin bo‘lgan tovarlar hajmidan kelib chiqib, bojxona to‘lovlarini ta’minalash miqdorlarini oshirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2- ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi raisi M.B. Azimov zimmasisiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 20-avgust,  
531-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-avgustdaggi 531-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

#### **1-bob. Umumiylar**

1. Ushbu Nizom bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**axborot tizimi** — bojxona nazorati ostidagi tovarlar bo‘yicha amalga oshiriladigan ma’lum yuk operatsiyalarini qayd etish, kuzatish, qayta ishslash, elektron hisobini yuritishga mo‘ljallangan bojxona organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

**bojxona nazorati zonasi** — O‘zbekiston Respublikasi **Bojxona kodeksiga** (keyingi o‘rinlarda — Bojxona kodeksi) muvofiq bojxona hududining bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash maqsadida tashkil qilinadigan, maxsus ajratib va belgilab qo‘yilgan qismi;

**bojxona ombori hududi** — bojxona ombori o‘rnii va unga bevosita tutash bo‘lgan, litsenziya talablari va shartlariga ko‘ra maxsus ajratilgan hamda belgilab qo‘yilgan bojxona nazorati zonasi hisoblanadigan yuk operatsiyalarini amalga oshiriladigan hudud;

**bojxona omborining vakolatli shaxsi** — mehnat shartnomasi asosida bojxona ombori (yuridik shaxs) manfaatlaridan kelib chiqib, uning nomidan harakat qiluvchi shaxs;

**vakolatli shaxs** — tovar va (yoki) transport vositasi egasi yoki tovarga va (yoki) transport vositasiga nisbatan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatlarga ega bo‘lgan yoxud tovar va (yoki) transport vositasi egasi nomidan tegishli shartnoma yoki ishonchnoma asosida ish ko‘rvuchi shaxs;

**qayta yuklash operatsiyasi** — bojxona nazorati ostidagi tovarlarni bir transport vositasidan boshqa transport vositasiga yoki ushbu transport vositasiga qayta yuklash (transport vositasi yuk xonasini ochmasdan qayta yuklash bundan mustasno);

**tovarlar bo'yicha amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar** — Bojxona kodeksiga muvofiq tashuvchi, vakolatli shaxs va bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan bojxona nazorati ostidagi tovarlar va (yoki) transport vositalari nisbatan amalga oshiriladigan operatsiyalar, bojxona organlari mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan bojxona operatsiyalari bundan mustasno;

**tovarlar harakati tizimi** — bojxona omborlarda bojxona nazorati ostidagi tovarlarning muayyan maqomga ega bo'lgan holati va harakati ketma-ketligi;

**tovarni yetkazib berishning nazorat hujjati** — bojxona hududi bo'ylab bojxona nazorati ostida tashiladigan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tovar kelib tushadigan bojxona organigacha yetkazib berilganligi nazoratini bojxona organlari tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjat;

**tovarni chiqarib yuborish** — bojxona rasmiy lashtiruvini yakunlovchi va ma'lum qilingan bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqib tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi bojxona organlarining harakati;

**tushirish operatsiyasi** — bojxona nazorati ostidagi tovarlarni qo'yilgan bojxona identifikatsiya vositalarini olib tashlagan holda transport vositasidan tushirish (qayta yuklash maqsadida transport vositasi yuk xonasini ochmasdan tushirish bundan mustasno);

**yuk operatsiyalari** — bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ularning buzilgan o'rovlarini to'g'rilash, ularni o'rash, qayta o'rash va tashish uchun qabul qilish.

3. Quyidagi tovarlardan tashqari boshqa tovarlarga nisbatan bojxona ombori hududida o'tkaziladigan yuk operatsiyalarini bojxona organi mansabdor shaxsining ishtirokisiz amalga oshirishga ruxsat beriladi:

    qonunchilik hujjatlariga muvofiq bojxona hududiga olib kirilishi va bojxona hududidan olib chiqilishi (shuningdek, muomalasi, foydalanilishi va tasarruf etilishi) taqiqlangan yoxud cheklangan tovarlar;

    bojxona ombori hisoblanmaydigan joyga bojxona ombori bojxona rejimida joylashtirilishi nazarda tutilgan tovarlar;

    O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida beriladigan litsenziyalar va ruxsatnomalar bo'yicha eksport-import qilinadigan maxsus tovarlar;

    tranzit tarzda olib o'tiladigan tovarlar;

    harbiy yuklar, shu jumladan, qurol-yarog', harbiy texnika va o'q-dorilar, radioaktiv materiallar;

    insonparvarlik yordami, texnik ko'mak sifatida va grantlar hisobidan olib kiriladigan tovarlar;

    olib kirilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta qimmatliklari;

    har qanday holatdagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar hamda ulardan yasalgan buyumlar (xom (tabiiy) va ishlov berilgan shaklda, affinlangan, xomashyolar, eritmalar, yarim tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlari, kimyoviy birikmalar, lomlar va ishlab chiqarishdan qolgan chiqindi shaklida);

    madaniy boyliklar.

4. O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilgan bojxona nazorati ostidagi tovarlar ortilgan transport vositalari bojxona ombori hududiga yetkaziladi.

Transport turiga qarab, bevosita bojxona omboriga yetkazib berish imkonи bo'lmaganda, tovarlar avtotransport vositalariga qayta yuklangan holda bojxona ombori hududiga yetkaziladi.

Bojxona nazorati zonasiga yetkazilib yigirma to'rt soat ichida chiqarib yuborilgan, shuningdek, bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda turgan holda bojxona ombori bojxona

rejimiga joylashtirishga ruxsat berilgan tovarlarni bojaxona ombori hududiga yetkazish talab etilmaydi.

5. Bojaxona rejimiga joylashtirilmagan bojaxona nazorati ostidagi tovarlarning yuk operatsiyalarini amalga oshirib qabul qilingan holatida to‘liq saqlanishini ta’minlash uchun quyidagilar javobgar hisoblanadi:

bojaxona nazorati ostida tashiladigan tovarlar bojaxona ombori egasi yoki vakolatli shaxs tomonidan qabul qilib olingunga qadar — tashuvchi;

bojaxona nazorati ostida tashiladigan tovarlar tushirilib, boshqa transport vositalariga qayta ortilganda — ushbu tovarlarni bojaxona nazorati ostida bundan buyon tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi;

tovarlar bojaxona ombori hududiga qabul qilib olingan paytdan boshlab chiqarib yuborilgunga qadar — bojaxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi;

tovarlarni bojaxona ombori hisoblanmaydigan joyga joylashtirishga ruxsat berilgan vaqtadan boshlab chiqarib yuborilgunga qadar — tovarlarni bunday joylarga joylashtirgan shaxs;

bojaxona nazorati ostidagi tovarlar ortilgan transport vositalari bojaxona nazorati zonasiga joylashtirilganda — bojaxona nazorati zonasiga javobgar shaxs.

6. Tovarlar bo‘yicha amalga oshiriladigan yuk va boshqa operatsiyalarda tovarlarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodining o‘nta belgili darajasi o‘zgarishi bilan bog‘liq xususiyatlari va sifat ko‘rsatkichlari o‘zgarmasligi lozim.

7. Agar amalga oshiriladigan operatsiyalar tovarlarning keyingi bojaxona nazoratini amalga oshirish imkonи bo‘lmeligiga olib kelsa, bojaxona organi ushbu tovarlar bo‘yicha yuk va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlashga haqlisi.

8. Bojaxona nazorati ostida yetkazilgan tovarlar bo‘yicha yuk operatsiyalari ushbu Nizomga **1-ilovadagi** sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **2-bob. Bojaxona nazorati ostida yetkazilgan tovarlar bo‘yicha yuk operatsiyalarini amalga oshirish**

9. Tovarlar bojaxona omboriga yetkazib berilgach, bojaxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi transport vositalarining tovarlar ortilgan yuk bo‘limlari va unga qo‘yilgan bojaxona identifikatsiya vositalarini tovarlarning kuzatuv hujjatlari hamda tovarni yetkazib berish nazorat hujjatida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida ko‘zdan kechiradi.

Ko‘zdan kechirish bojaxona identifikatsiyalash vositalari mavjudligi, ularga shikast yetkazilmaganligi, o‘zgartirilmaganligi, buzilmaganligi va yo‘q qilinmaganligiga hamda tashilayotgan tovarlarni transport vositalarining plombalangan qismidan ko‘zga tashlanadigan izlar qoldirmasdan chiqarib olish va (yoki) unga boshqa tovarlarni joylash istisno etilganligiga, shuningdek, plomba qo‘yilgan jihozlarga (konteyner konstruksiyasi, tirkama trosi, tenti, tom, pol qismlari va boshqalar) zarar yetkazilmaganligiga alohida ahamiyat bergen holda amalga oshiriladi.

10. Bojaxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi transport vositalari bojaxona omboriga yetib kelganligini ushbu Nizomning **9-bandida** ko‘rsatilgan harakatlarni bajargan holda axborot tizimida belgi qo‘yish orqali tasdiqlaydi.

11. Bojaxona omboriga yetib kelganligini tasdiqlash uchun avtomobil va temir yo‘l transporti vositasi bojaxona organlariga onlayn uzatish imkoniga ega bo‘lgan, avtotransport vositasining davlat raqami belgisini va temir yo‘l transporti vositasining raqamini aniqlash bo‘yicha kunu tun ishlaydigan tizim bilan jihozlangan nazorat-o‘tkazish punktidan o‘tadi.

Avtotransport vositasining davlat raqami belgisini va temir yo‘l transporti vositasining raqamini aniqlash tizimidagi raqam bilan tovarni yetkazib berishning nazorat hujjatidagi raqam aynan mos bo‘lishi hamda yetib kelganligi tasdiqlanishi avtotransport vositasi davlat raqami belgisi va temir yo‘l transporti vositasi raqami qayd etilgandan o‘ttiz daqiqa ichida amalga oshirilishi lozim.

Bunda faqat axborot tizimidagi uzilishlar (elektr manbai sababli uzilishlar bundan mustasno) hamda **Bojaxona kodeksiga** muvofiq yengib bo‘lmas kuch ta’siri oqibatida transport vositalarining yetib kelganligini tasdiqlash imkon bo‘lmasganda, bojaxona ombori egasi yoki uning

vakolatli shaxsi darhol bojxona organini o‘z vakolatlari doirasida qaror qabul qilishi uchun xabardor qiladi.

12. Axborot tizimida transport vositalarining bojxona omboriga yetib kelganligi tasdiqlanishi bilan tovarlarning to‘liq saqlanishini ta’minalash bo‘yicha javobgarlik bojxona ombori egasiga o‘tadi.

13. Bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi ushbu Nizomning **9-bandida** belgilangan tartibda transport vositalari va ularga qo‘yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarini ko‘zdan kechirishi natijasida aniqlagan har qanday tafovutlar va nomuvofiqliklar to‘g‘risida darhol bojxona organini xabardor qiladi.

Tegishli xabarga asosan bojxona organlari tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan Bojxona kodeksining **188-moddasiga** muvofiq bojxona nazorati shakllarini amalga oshiradi.

Bojxona nazorati yakuni bo‘yicha bojxonaga oid huquqbazarlik aniqlangan taqdirda, bojxona organi tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan yuk va boshqa operatsiyalarini amalga oshirishni to‘xtatib turadi, huquqbazarlik to‘g‘risida ish yuritadi hamda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, ma’muriy ish yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atadi.

Bunda tovarlar va transport vositalari yetkazib berilganligini tasdiqlash bojxona organi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

14. Bojxona posti tomonidan tovarni yetkazib berishning nazorat hujjati nazoratdan yechilgunga qadar tashuvchi yoki vakolatli shaxs bojxona omboriga yetib kelganligi tasdiqlangan transport vositasini boshqa bojxona omboriga joylashtirishi mumkin.

15. Axborot tizimida ushbu Nizomning **14-bandida** ko‘rsatilgan tartibda transport vositalarining bojxona omboridan chiqarilganligi tasdiqlanishi bilan tovarlar to‘liq saqlanishini ta’minalash bo‘yicha javobgarlik tashuvchiga qaytadi.

16. Transport vositalari yetib kelganligi tasdiqlangan bojxona omboridan tovarlarni boshqa bojxona omboriga joylashtirish uchun olib chiqish, ushbu Nizomning **9 — 15-bandlarida** ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

17. Tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati transport vositalari yetib kelganligi tasdiqlangandan so‘ng bir soat ichida, agar transport vositalari bojxona organi ish vaqtidan tashqari paytda yetib kelsa, ish vaqt boshlangandan so‘ng bir soat ichida bojxona ombori biriktirilgan bojxona posti tomonidan nazoratdan yechiladi.

Bojxona postlariga biriktirilgan bojxona omborlari ro‘yxati barcha ko‘rishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida bojxona omborlari reyestrida real vaqt rejimida aks etadi.

18. Tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati nazoratdan yechilgandan so‘ng hamda shu vaqt ichida tovarlar bo‘yicha amalga oshiriladigan bojxona organining bojxona nazorati to‘g‘risidagi munosabati kelib tushmaganda, bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan tartibda tovarlar bo‘yicha yuk operatsiyalarini amalga oshirish mumkin.

Etib kelganligi tasdiqlangan tovarlar bo‘yicha tovarni yetkazib berish nazorat hujjati nazoratdan yechilgunga qadar bojxona organining bojxona nazorati shaklini qo‘llash va (yoki) amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yuk operatsiyalarini to‘g‘risidagi munosabati bojxona omboriga qayta aloqa orqali bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan yozma yoki xavfni boshqarish tizimi orqali avtomatik tarzda yuboriladi.

19. Bojxona ombori hududida amalga oshiriladigan yuk operatsiyalarida bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi bevosita ishtirot etishi shart.

Yuk operatsiyalarida tovarlarga nisbatan bojxona ko‘rigida nazarda tutilgan amallarni bajarishga yo‘l qo‘yilmaydi, qo‘yilgan plombalarni buzish (uzish, olib tashlash) bundan mustasno.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

20. Yuk operatsiyalarini amalga oshirish uchun qo‘yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan o‘zgartiriladi, almashtiriladi, olib tashlanadi yoki yo‘q qilinadi.

Yuk operatsiyalari bojxona nazorati zonasida yoki bojxona ombori hududida o'tkazilganda, qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarini olib tashlash yoki yo'q qilish bojxona organining ruxsati asosida bojxona nazorati zonasiga javobgar shaxs yoki bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona identifikatsiyalash vositalari o'zgartirilishi, almashtirilishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishi bojxona organi mansabдор shaxsiga transport vositalariga yuklangan tovarlarga nisbatan bojxona ko'rígida nazarda tutilgan amallarni bajarish bo'yicha majburiyat yuklamaydi.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-sentabrdagi 487-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2022-y., 09/22/487/0794-son)

21. Bojxona ombori hududida bojxona nazorati ostidagi tovarlar bo'yicha yuk va boshqa operatsiyalar hamda bojxona ko'zdan kechirushi (shuningdek, deklarant ko'zdan kechirushi) va ko'rígigi litsenziya talablari va shartlari asosida jihozlangan videokuzatuv tizimi nazorati ostida amalga oshiriladi.

Bojxona omborlarida bojxona nazorati ostidagi tovarlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hamda nazorat shakllari bo'yicha tovarlar harakati tizimi joriy qilinadi.

22. Bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tovarlar bo'yicha yuk va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida tovarlarning kuzatuv hujjalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga nomuvofiqligi aniqlanganda, bu haqda darhol bojxona organini xabardor qiladi.

Tegishli xabarga asosan bojxona organlari tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan Bojxona kodeksining **188-moddasiga** muvofiq bojxona nazorati shakllarini amalga oshiradi.

Bojxonaga oid huquqbazarlik aniqlangan taqdirda, bojxona organi tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan yuk va boshqa operatsiyalarni to'xtatib turadi, huquqbazarlik to'g'risida ish yuritadi hamda tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, ma'muriy ish yoki jinoyat ishini qo'zg'atadi.

23. Tovarni yetkazib berishning nazorat hujjati nazoratdan yechilgan va yuk operatsiyalari amalga oshirilgan tovarlarni bir bojxona omboridan boshqasiga olib o'tish Bojxona kodeksining **31-bobi** talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda yetkazib berilgan tovarlar va transport vositalariga rasmiylashtirilgan tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati tovarlar olib o'tiladigan bojxona ombori ko'rsatilgan holda qayta nazoratga qo'yiladi.

Tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati qayta nazoratga qo'yilishi tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasini berish muddatiga ta'sir etmaydi.

24. Keyingi tashuvlarni amalga oshirish uchun muayyan transport vositalari joylashgan joyga bojxona nazorati ostida yetkazilgan tovarlar boshqa transport vositalariga qayta yuklanishi mumkin.

25. Yuk operatsiyalari ushbu Nizomning **20-bandida** belgilangan tartibda bojxona identifikatsiyalash vositasi olib tashlangandan keyin darhol boshlanishi va vaqt bo'yicha uzlusiz amalga oshirilgan holda tugallanishi lozim.

26. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan tovarlarni yuklash, tushirish va qayta yuklash operatsiyalari bo'yicha, mazkur jarayonda ishtirokchilar tomonidan tuziladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi Tovarni yuklash, tushirish va qayta yuklash bo'yicha elektron dalolatnomasi (keyingi o'rinnlarda — dalolatnomasi) rasmiylashtiriladi.

27. Dalolatnomasi tovarlarni tushirish, qayta yuklash operatsiyasi bojxona organi mansabдор shaxsi ishtirokida amalga oshirilganda bojxona organi mansabдор shaxsi tomonidan, qolgan holatlarda esa bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo orqali rasmiylashtiriladi.

Dalolatnomasi nusxasi ishtirok etuvchilarning talabiga asosan chop etilib, uni rasmiylashtirgan shaxs tomonidan imzolangan hamda muhr bilan tasdiqlangan holda beriladi.

28. Tovar va (yoki) transport vositalarini Bojxona kodeksining **93-moddasiga** muvofiq faqat bojxona ombori bojxona rejimida bojxona ombori hisoblanmaydigan joyga joylashtirishga ruxsat beriladi.

29. Bojxona ombori hududiga yetkazilgan tovarlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, fizik ko‘rsatkichlari tufayli yoki kimyoviy xossalari ko‘ra yoxud saqlanishiga doir alohida shartlar qo‘yilishi tufayli bojxona omboriga joylashtirilishi mumkin bo‘lmagan tovarlarni bojxona organining ruxsati bilan bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlash uchun quyidagi shartlar bajarilishi talab etiladi:

tovarlar bojxona ombori hududiga yetkazilgan bo‘lishi;

bojxona ombori bojxona rejimiga bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilishi;

tovarlarni saqlash uchun mo‘ljallangan joy (joylashgan eri, pochta manzili, agar yuridik shaxs bo‘lsa uning to‘liq nomi bilan) va saqlash uchun javobgar shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar (F.I.O., yashash joyi, telefon raqami) aks ettirilgan vakolatli shaxsning bojxona yuk deklaratsiyasiga ilova qilingan arizasi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq istisno etib belgilangan hollardan tashqari tovarlar uchun bojxona to‘lovlarini to‘lanishi ta’milanganligini tasdiqllovchi hujjat.

30. O‘zining tashqi o‘lchamlari bilan bojxona omboriga joylashtirish imkonini bo‘lmagan, avariylar yoki yengib bo‘lmas kuch ta’siri oqibatlarini tugatish uchun zarur bo‘lgan (taqdim etilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim), shuningdek, tirik hayvonlar va radioaktiv materiallar hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tovarlar bojxona organining ruxsati bilan bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda (bojxona ombori maqomiga ega bo‘lmagan binolar va (yoki) ochiq maydonchalarda) turgan holda bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bunda tovarlarning bojxona ombori hududiga yetkazilishi va tovarga nisbatan bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilishi talab etilmagan holda, vakolatli shaxsning tovarlar uchun bojxona to‘lovlarini to‘lanishi ta’milanganligini tasdiqllovchi hujjat (qonunchilik hujjatlariga muvofiq istisno etib belgilangan hollar bundan mustasno) ilova qilingan va ushbu Nizomning **29-bandida** ko‘rsatilgan tartibdagi elektron arizasi transport vositasining bojxona omboriga yetib kelganligi axborot tizimida belgi qo‘yish orqali tasdiqlangunga qadar interaktiv xizmat orqali bojxona organiga taqdim etiladi.

*(30-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-sentabrdagi 487-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2022-y., 09/22/487/0794-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

31. Ushbu Nizomning **29** va **30-bandlarida** nazarda tutilgan tartibda bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlash uchun bojxona to‘lovlarini ta’minalash miqdori, bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar qo‘llanilmagan holda (ayrim turdag‘i tovarlarga nisbatan talab va shartlarsiz beriladiganlaridan tashqari), ularni “erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga rasmiylashtirilgandagi hisoblangan miqdordan kam bo‘lmasligi lozim.

*(31-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-sentabrdagi 487-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2022-y., 09/22/487/0794-son)*

32. Ushbu Nizomning 4-bandи **uchinchi xatboshisi** va **30-bandiga** muvofiq tovarlar bevosita bojxona ombori hududiga yetkazib berilmaganda, tovarlarning yetkazib berilganligi va tovarni yetkazib berish nazorat hujjatining nazoratdan yechilishi Bojxona kodeksining **31-bobi** talablariga muvofiq bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

33. Tovarlar bo‘yicha va (yoki) transport vositalari yordamida amalga oshiriladigan yuk operatsiyalari hamda boshqa operatsiyalar bojxona organi uchun biror-bir qo‘sishma xarajatlar keltirib chiqarmasligi kerak.

### **3-bob. Bojxona nazorati ostidagi tovarlar bo‘yicha amalga oshiriladigan yuk operatsiyalari nazorati**

34. Bojxona organlari bojxona nazorati ostidagi tovarlar va ular bo‘yicha amalga oshiriladigan yuk va boshqa operatsiyalarga nisbatan **Bojxona kodeksi** va ushbu Nizomga muvofiq belgilangan tartibda kuzatuva va nazoratni ta’minalaydi.

35. Tovarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqarib yuborilishi ma’lum qilinganda, qo‘llaniladigan bojxona nazorati shakllaridan kelib chiqqan holda, tovarlar transport vositalaridan tushirilmagan holda bojxona ombori hududida turishi mumkin.

36. Etarli asoslar (jismoni va yuridik shaxslarning, shu jumladan jamoatchilik nazorati subyektlarining murojaatlari, bojxona sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzishga doir holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqalar), shuningdek, xavfni boshqarish tizimida nazorat chorasi mavjud bo‘lsa, bojxona nazorati ostida turgan tovarlarga nisbatan o‘tkaziladigan yuk va boshqa operatsiyalar bevosita bojxona organi mansabdor shaxsi ishtirokida amalga oshiriladi.

37. Bojxona omboriga joylashtirilgan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvi yakunlangan (bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda, tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilgan) kundan e’tiboran uch ish kuni ichida bojxona omboridan olib chiqilishi lozim.

Tovarlarni bojxona omboridan chiqarilganligi bojxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan axborot tizimi orqali tasdiqlanadi.

Ushbu bandning **birinchi xatboshisida** ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan so‘ng bojxona organlari tovarlar va (yoki) transport vositalariga nisbatan Bojxona kodeksining **28-bobiga** muvofiq belgilangan tartibda bojxona nazorati shakllarini amalga oshiradi. Shuningdek, huquqbuzarlik to‘g‘risida ish yuritib, ma’muriy ish qo‘zg‘atadi.

#### **4-bob. Bojxona omborlarida tovarlar harakati tizimi**

38. Bojxona omborlarida:

tovarlar harakati bo‘yicha barcha jarayonlarni vaqt ko‘rsatkichlari asosida nazorat qilish (qancha miqdordagi tovarlar qanday maqomga ega);

bojxona ombori tomonidan nazoratning barcha bosqichlarida real vaqt rejimida omborlarga tovarlarning kirimi va chiqimini yuritish;

tovarlar harakati hisobining nazorati yo‘qolishining oldini olish;

ma’lumotlar bazasi bilan faqat jarayon uchun bevosita mas’ul bo‘lganlar ishlashi va tovarlarning maqomiga o‘zgartirish kiritishi;

tovarlar maqomining doimiy jarayoni kuzatib boriladigan tovarlar harakati tizimi joriy qilinadi.

39. Tovarlar harakati tizimi yuritilishi uchun bojxona organlari bojxona omborlariga axborot tizimi ma’lumotlaridan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratib beradi.

40. Bojxona omborlarida tovarlar harakati tizimi ushbu Nizomga **2-ilovada** nazarda tutilgan tovarlarning maqomlari orqali yuritiladi.

41. Tovarlar harakati tizimida tovarlarning har bir maqomi, shuningdek, ularning muddatlari bo‘yicha nazoratni ta’minlovchi hisobotlar shakllanadi.

42. Bojxona omborida tovarlar harakati tizimini yuritish uchun elektron ma’lumotlar bazasiga faqat bojxona ombori egasi (yuridik shaxs) elektron raqamli imzosi orqali yoki bojxona omborining vakolatli shaxsi tomonidan tovarlar bilan bog‘liq yuk va boshqa operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Bunda bojxona ombori egasi elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan vakolatli shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ro‘yxatga kiritadi hamda ular tomonidan ma’lumotlar bazasiga tovarlar bilan bog‘liq yuk va boshqa operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lgan vakolat muddatini ko‘rsatadi.

43. Bojxona omborlaridagi tovarlarning har bir maqomlari bo‘yicha elektron ma’lumotlar real vaqt rejimida bojxona organlari ma’lumotlar bazasida aks etadi.

#### **5-bob. Bojxona omborida yuk operatsiyalarini amalga oshirishda bojxona ombori egasining va uning vakolatli shaxsining huquq va majburiyatları**

44. Bojxona omborida yuk operatsiyalarini amalga oshirishda bojxona ombori egasi va uning vakolatli shaxsi quyidagi huquqlarga ega:

bojxona organining bojxona nazorati to‘g‘risidagi munosabati kelib tushmagan taqdirda, yuk operatsiyalarini amalga oshirish;

yuk operatsiyalarini amalga oshirishda tovarlarni tashqi tomondan ko‘zdan kechirish; tovarlarni bojxona hududiga olib kirgan transport vositalaridan olib, shu hududdan olib chiqadigan transport vositalariga yuklash;

bojxona tranziti bojxona rejimi amal qilish muddatini to‘xtatib turish uchun, shu jumladan, tranzit tovar tashilayotgan transport vositalari buzilib qolganda, bojxona ombori hududida tovarlarni tushirish va vaqtincha joylab qo‘yish (saqlash, turkumlarga bo‘lish yoki turkumlarga to‘plash va boshqa operatsiyalar);

bojxona organlari mansabdar shaxslarining qarorlari, shuningdek, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq shikoyat qilish;

mazkur Nizom talablarini bajarish natijasida kelib chiqadigan nizo va tushunmovchiliklarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etish choralarini ko‘rish.

45. Bojxona omborida yuk operatsiyalarini amalga oshirishda bojxona ombori egasi va uning vakolatli shaxsi:

transport vositalari bojxona omboriga yetib kelganligini ushbu Nizomda belgilangan tartibda tasdiqlashi;

transport vositasi va unga qo‘yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarini ko‘zdan kechirishda, yuk operatsiyalarini amalga oshirish natijasida hamda kuzatuv hujjatlarida aniqlagan har qanday tafovutlar va nomuvofiqliklar to‘g‘risida bojxona organini xabardor qilishi;

yuk operatsiyalarini **Bojxona kodeksi** va ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshirishi;

yuk operatsiyalarini amalga oshirishda tovarlar va transport vositalarini ularning kuzatuv hujjatlari hamda tovarlarni yetkazib berish nazorat hujjatida ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan solishtirishi;

yuk va boshqa operatsiyalarni hamda bojxona ko‘zdan kechirushi (shuningdek, deklarat ko‘zdan kechirushi) va ko‘rigin bojxona nazorati ostida tovarlarni tashiyotgan transport vositalarining bojxona ombori hududiga kirib kelishidan tovarlar bo‘yicha amalga oshiriladigan har bir yuk va boshqa operatsiyalarni hamda ularning bojxona omchorlariga joylashtirilishi va chiqarib yuborilishi bo‘yicha ketma-ketlikda olingan vaqt bo‘yicha uzlusiz videoyozuvlarning uch oy davomida saqlanishini ta‘minlaydigan videokuzatuv tizimi yordamida amalga oshirishi;

bojxona omchorlarida tovarlar harakati tizimini yuritishi hamda ma’lumotlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qayd etilishi hamda haqqoniyligini ta‘minlashi;

yuk operatsiyalarini amalga oshirishda hamda tovarlar harakati tizimini yuritishda muddatlarni hisoblash tartibiga amal qilishi;

bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalari to‘g‘risida o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi;

qabul qilib olingan tovarlar va transport vositalarining belgilangan tartibda bojxona ombori hududida to‘liq saqlanishi tartiblariga qat’iy rioya etishi;

bojxona omchorlarining bojxona nazorati ostida turgan tovarlar saqlanayotgan inshootlari, binolari (binolarning qismlari) va (yoki) ochiq maydonlariga (ochiq maydonlar qismlariga) kirishi to‘g‘risida bojxona organlari mansabdar shaxslarining talablarini bajarishi;

bojxona organlari talablariga muvofiq bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi;

saqlovga qabul qilib olishda tovarlarga va (yoki) transport vositalariga qo‘yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalari o‘zgartirilganligi, buzilganligi, yo‘q qilinganligi yoki yo‘qotilganligi, idishlar va o‘rovlar buzilganligi, tovarlarning kuzatuv hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiq emasligi hamda bojxona ishiga taalluqli bo‘lgan boshqa shunday holatlar aniqlanganda, shuningdek, tovarlar chiqarilguniga qadar bojxona tartib-taomillari buzilishi holatlari to‘g‘risida bojxona organlarini xabardor etishi;

bojxona organini xabardor etishni holat aniqlangan yoki jarayon yuz bergan vaqtdan e’tiboran darhol, biroq o‘ttiz daqiqadan kechiktirmay yoxud harakatni boshlashdan o‘ttiz daqqa

oldin elektron raqamli imzo yordamida axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritgan holda amalga oshirishi lozim.

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

47. Mazkur Nizom talablarini bajarishdan kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

48. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Bojaxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
1-ILOVA

### **Bojaxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish**

#### **SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tashuvchi	O'zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirilgan bojaxona nazorati ostidagi tovarlar bojaxona ombori hududiga yetkaziladi. Transport turiga qarab bevosita bojaxona omboriga yetkazib berish imkonи bo'limganda, tovar avtovosita vositasiga qayta yuklangan holda bojaxona ombori hududiga yetkaziladi.	Tovarni yetkazib berishning nazorat hujjatida ko'rsatilgan muddatda
2-bosqich	Tashuvchi, bojaxona organi, vakolatli shaxs	Bojaxona nazorati zonasiga yetkazilgan va transport vositasiga ortilgan tovarlar yigirma to'rt soat ichida tovarlarni chiqarib yuborish bilan bog'liq bojaxona rejimiga rasmiylashtirilganda, shuningdek, bojaxona ombori hisoblanmaydigan joyda turgani holda bojaxona ombori bojaxona rejimiga joylashtirishga ruxsat berilganda ularni bojaxona ombori hududiga yetkazish talab etilmaydi.	Tovarlar bojaxona nazorati zonasida doimiy bojaxona nazorati ostida bo'lganda hamda bojaxona ombori hisoblanmaydigan joyga joylashtirishga ruxsat berilganda
3-bosqich	Bojaxona ombori (yuridik shaxs)	Tovarlar yetkazib berilgach bojaxona ombori egasi yoki uning vakolatli shaxsi transport vositasining tovarlar ortilgan yuk bo'limlari va unga qo'yilgan bojaxona identifikasiya vositalarini tovarning kuzatuv hujjatlari hamda tovarni yetkazib berish nazorat hujjati ma'lumotlari asosida ko'zdan kechiradi.	Etib kelgach, bojaxona omboriga kirishi bilan
4-bosqich	Bojaxona ombori (yuridik shaxs)	Transport vositasi transport vositasining raqamini aniqlash tizimidan o'tgandan keyin bojaxona ombori egasi	30 daqiqa ichida

		yoki uning vakolatli shaxsi transport vositasi bojxona omboriga yetib kelganligini axborot tizimiga belgi qo'yish orqali tasdiqlaydi.	
<b>5-bosqich</b>	<b>Bojxona posti</b>	Tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati transport vositasing yetib kelganligi tasdiqlangandan so'ng, agar transport vositasi bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda yetib kelsa, ish vaqtি boshlanganidan keyin biriktirilgan bojxona posti tomonidan nazoratdan yechiladi.	1 soat ichida
<b>6-bosqich</b>	<b>Bojxona ombori (yuridik shaxs)</b>	Tovarlarni yetkazib berishning nazorat hujjati nazoratdan yechilgandan so'ng bojxona ombori tomonidan belgilangan tartibda tovarlar bo'yicha yuk operatsiyalarini amalga oshirish mumkin.	Tovarni yetkazib berishning nazorat hujjati nazoratdan yechilgach
<b>7-bosqich</b>	<b>Bojxona posti</b>	Yuk operatsiyalarini amalga oshirish uchun bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona organlari tomonidan o'zgartiriladi, almashtiriladi, olib tashlanadi.	Tovarlar bilan yuk operatsiyalari amalga oshirilganda
<b>8-bosqich</b>	<b>Bojxona ombori (yuridik shaxs), bojxona organi</b>	<p>Bojxona omborlarida:</p> <p>tovarlar harakati bo'yicha barcha jarayonlarni vaqt ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat qilish (qancha miqdordagi tovarlar qanday maqomga ega);</p> <p>bojxona ombori tomonidan nazoratning barcha bosqichlarida real vaqt rejimida omborlarga tovarlarning kirimi va chiqimini yuritish;</p> <p>tovarlar harakati hisobining nazorati yo'qolishining oldini olish;</p> <p>ma'lumotlar bazasi bilan faqat jarayon uchun bevosita mas'ul bo'lganlar ♦shlashi va tovarlarning maqomiga o'zgartirish kiritishi;</p> <p>tovarlar maqomining doimiy jarayoni kuzatib boriladigan tovarlar harakati tizimi yuritiladi.</p>	Tovarlarning bojxona omboriga qabul qilinganligi tasdiqlangandan chiqarib yuborilguniga kadar

Bojxona nazorati ostidagi tovarlarga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
2-ILOVA

**Bojxona omborlarida tovarlar harakati tizimi bo'yicha tovarlarning maqomlari**

## TASNIFLAGICHI

T/r	Tovarlar maqomi	Tovarlar maqomi tavsifi	Kodi
1.	Kutilayotgan	Omborga kelib tushishi kutilayotgan tovarlar turkumi, miqdori va ularning taxminiy kelib tushish vaqtini ko'rsatadi	00
2.	Bojxona omboriga qabul qilingan	Bojxona omboriga yetib kelganligi tasdiqlangan va qabul qilingan tovarlar, bunda tovarlarni saqlash javobgarligi bojxona ombori egasiga o'tadi, transport vositasidan tushirilmassdan vaqtincha bojxona nazorati zonasida turgan tovarlar	10
3.	Tushirilib, yuk operatsiyasi amalga oshirilgan	Transport vositasidan tushirilib, yuk operatsiyasi o'tkazilgan tovarlar	20
4.	Rejimga olingan holda nazoratda saqlanayotgan	Ma'lum bojxona rejimiga joylashtirilgan holda bojxona omborida saqlanayotgan tovarlar	30
5.	Ombordan chiqarilishi kutilayotgan	Bojxona rasmiylashtirushi yakunlangan (bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilgan) yuklanayotgan va (yoki) yuklanishi kutilayotgan tovarlar	40
6.	Ombordan chiqariladigan	Bojxona rasmiylashtirushi yakunlangan (bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilgan) uch ish kuni ichida amalda ombordan olib chiqilmagan tovarlar	50
7.	Ombordan chiqarilgan	Bojxona rasmiylashtirushi yakunlangan (bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda, tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilgan) va yuklanib, ombordan chiqarilgan holda vakolatli shaxsga topshirilgan tovarlar	60

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-avgustdagи 531-son qaroriga  
2-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining “Tovarlarni bojxonada elektron shaklda deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 31-iyuldagи 605-son qarorida:

a) **2-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarlarni deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin”.

b) 1-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

#### **“Tovarlarni deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risida** **NIZOM**

##### **1-bob. Umumiq qoidalar**

1. Mazkur Nizom tovarlarni bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish orqali deklaratsiyalash, shu jumladan, uni avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirish jarayonini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**“E-arxiv” interaktiv xizmati** — tovarlarni elektron shaklda deklaratsiyalashni shakllantirishga asos hisoblangan elektron hujjatlarni taqdim etish hamda saqlash uchun mo‘ljallangan va deklaratsiyalash jarayoni va bojxona rasmiylashtirushi davomida bojxona xizmati

organlari bilan axborot almashuviga qaratilgan bir martalik elektron arxivni yaratish imkonini beruvchi xizmat;

**“Tovarlarni elektron deklaratsiyalash” avtomatlashtirilgan axborot tizimi** (keyingi o‘rinlarda — avtomatlashtirilgan axborot tizimi) — vazirlik va idoralarning tegishli axborot tizimlari aloqasini ta’minlovchi dasturiy-texnik vositalar kompleksi;

**bojxona brokeri** — bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha operatsiyalarni deklarant yoki vakolatli shaxsning topshirig‘iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;

**bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassis** (keyingi o‘rinlarda — mutaxassis) — bojxona brokeri yoxud boshqa yuridik shaxs bilan mehnat shartnomasi tuzgan va ushbu yuridik shaxs nomidan bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha ish bajaradigan O‘zbekiston Respublikasi jismoniy shaxsi;

**bojxona yuk deklaratsiyasi** — deklarant, bojxona brokeri yoki deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan davlat bojxona xizmati organiga (keyingi o‘rinlarda — bojxona xizmati organlari) taqdim etiladigan va muayyan bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarlar haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan hujjat;

**bojxona yuk deklaratsiyasini avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirish** — bojxona yuk deklaratsiyasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda — Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi) mas’ul bojxona xizmati organlarining xodimi ishtirokisiz, maxsus algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirish;

**vakolatli organlar** — Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo‘lgan ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni berish va kiritish yoxud uzatish vazifalari yuklangan organlar;

**deklarant** — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini o‘z nomidan deklaratsiyalovchi yoxud uning nomidan tovarlar va (yoki) transport vositalari deklaratsiyalanayotgan shaxs;

**deklaratsiyalovchi shaxs** — bojxona xizmati organlariga bojxona yuk deklaratsiyasini o‘z nomidan taqdim etayotgan deklarant yoki bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish, imzolash va bojxona xizmati organlariga deklarant nomidan taqdim etishga vakolatli bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassis yoxud boshqa shaxs;

**deklaratsiyalovchi shaxslar ro‘yxati** — deklarant tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (keyingi o‘rinlarda — YIDXP) “Deklaratsiyalovchi shaxslar ro‘yxati” interaktiv xizmatiga qo‘shish va chiqarish yo‘li bilan shakllantiriladigan deklaratsiyalovchi shaxslar ro‘yxati;

**ishonch bildirilgan shaxs** — tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashni to‘ldirishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi taqdim etilgan hujjatlar hamda ma’lumotlarga javobgar hisoblangan, deklarantning nomidan tegishli shartnoma yoki ishonchnoma asosida ish ko‘rvuchi vakolatli shaxs;

**ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlar** — vakolatli organlar tomonidan beriladigan, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladigan yoki uzatiladigan, bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo‘lgan, ruxsat berish xarakteriga ega bo‘lgan hujjatlar hamda ro‘yxati qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa hujjat va ma’lumotlar;

**taqdim etiladigan hujjatlar** — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat bojxona qo‘mitasi) tomonidan belgilangan shaklda Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan kiritiladigan ro‘yxati qonunchilik hujjatlarida belgilangan hujjatlar va ma’lumotlar, shuningdek bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar;

**tasdiqlangan elektron xabarnoma** — bojxona axborot tizimi orqali ma’lum bir formatdagi elektron raqamli imzo (keyingi o‘rinlarda — ERI) bilan tasdiqlangan deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxslarga avtomatlashgan tarzda yuboriladigan bojxona organi xodimi tomonidan tovarlarga nisbatan qabul qilingan qarori haqidagi elektron shakldagi hujjat;

**tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi shaxsiy kabineti** (keyingi o‘rinlarda — TIF ishtirokchisi kabineti) — tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining bojxona xizmati organlari bilan

personallashtirilgan o‘zaro aloqa va axborot almashinuvi asosida ro‘yxatdan o‘tgan holda bojxona xizmati organlarining interaktiv xizmatlaridan foydalanish uchun mo‘ljallangan davlat bojxona xizmatining elektron platformasi;

**tovarlarning elektron deklaratsiyasi** — (keyingi o‘rinlarda — TED) ERI bilan tasdiqlangan holda avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bojxona xizmati organlariga taqdim etilgan bojxona yuk deklaratsiyasining elektron ko‘rinishidagi shakli;

**format-mantiqiy nazorat** — Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida bojxona yuk deklaratsiyasi ma’lumotlarini mantiqan o‘zaro taqqoslash yoki bojxona xizmati organlarida mavjud axborotlar bilan solishtirish va bojxona yuk deklaratsiyasini belgilangan formatga muvofiqligini dastlabki tekshiruvdan o‘tkazish jarayoni;

**elektron shaklida deklaratsiyalash** — tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash hamda bojxona rasmiylashtiruvi uchun lozim bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni, bojxona yuk deklaratsiyasini qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan bojxona xizmati organlariga idoralararo elektron hamkorlik yo‘li bilan elektron shaklda taqdim etish jarayoni;

**elektron hujjatning asli** — elektron hujjatning bir xil har qaysi aynan nusxasi, basharti u belgilangan tartibda haqiqiy deb tasdiqlangan bo‘lsa, asli.

3. Tovarlarni bojxona yuk deklaratsiyasi orqali deklaratsiyalash elektron shaklda, shuningdek, mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan talablarga muvofiq qog‘ozda yozma shaklda amalga oshiriladi.

4. Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar bilan yuk operatsiyalari tovar yetkazib berilgan manzilda shu maqsadlarni amalga oshirish uchun maxsus ajratilgan joylarda va bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi.

Yuk operatsiyalarini vakolatl shaxs yoki tashuvchining yozma arizasiga ko‘ra boshqa joylarda va (yoki) qaysi bojxona organining faoliyat ko‘rsatish zonasida yuk operatsiyalarini amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan bo‘lsa, o‘sha bojxona organining belgilangan ish vaqtidan tashqari paytda o‘tkazishga shu bojxona organining nazorati ostida yo‘l qo‘yiladi.

5. Tovar kelib tushadigan bojxona organi joylashgan yerlarga yoki jo‘natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan boshqa joylarga tovar yetkazib beriladi.

Tovar kelib tushadigan bojxona organi ish vaqtidan tashqari paytda tovar yetkazib berilganda, u bojxona nazorati zonasiga joylashtiriladi.

6. Tashuvchi tovar kelib tushadigan bojxona organini tovar yetkazib berilganligi to‘g‘risida tovarlarni va uning kuzatuv hujjatlarini taqdim etish orqali xabardor qiladi.

Xabar qilish tovarlar yetkazib berilganidan keyin o‘ttiz daqiqadan kechiktirmay, tovarlar tovar kelib tushadigan bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda yetkazib berilganda esa, bojxona organining ish vaqtida boshlanganidan keyin o‘ttiz daqiqadan kechiktirmay amalga oshiriladi.

7. Tovar kelib tushadigan bojxona organi xabarnomani olgan paytdan e’tiboran uch soat ichida tovarning kuzatuv hujjatlariga va bojxona axborot tizimiga belgi qo‘yish orqali tovar va transport vositasi yetkazib berilganligi faktini tasdiqlaydi.

Etkazib berilganligi tasdiqlangan paytdan e’tiboran tovar vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan maqomini oladi.

8. Tovarlar muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi asosida bojxona nazorati ostida saqlanadi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi sifatida transport hamda tijorat hujjatlaridan, shu jumladan xalqaro tashishlari amalga oshirilayotganda qo‘llaniladigan, chet tillarda tuzilgan va ularda, tovarni jo‘natuvchi (qabul qiluvchi)ning nomi va joylashgan eri, tovar jo‘natilgan mamlakat va kelib tushadigan mamlakati, tovarning nomi, miqdori, og‘irligi (kilogrammlarda) yoki hajmi (metr kublarda), yuk joylarining soni, tovarning o‘rash-joylash hamda tamg‘alash xususiyati va usullari hamda tovarning faktura qiymati va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasiga muvofiq tasnif kodi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan hujjatlar nazarda tutiladi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tovar bojxona organiga taqdim etilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan tashuvchi yoki boshqa vakolatl shaxs tomonidan beriladi. Agar tovar

shu muddat ichida boshqa bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi berilmaydi.

9. Tovar yetkazib berilganidan hamda tovar kelib tushadigan bojxona organiga tegishli hujjatlar va ma'lumotlar taqdim qilinganidan keyin tovar tushirib olinadi yoki qayta ortiladi, bojxona omboriga vaqtincha saqlash uchun joylashtiriladi va muayyan bojxona rejimiga ma'lum qilinadi.

10. Tovarlar doimiy bojxona nazorati ostida bo'lganda va tovarlar bojxona organiga topshirilgandan keyin bojxona rasmiylashtiruvi yigirma to'rt soat ichida tugallanganda, vaqtincha saqlash bojxona rejimi bojxona rasmiylashtiruvining bosqichi sifatida qo'llanilmaydi.

11. Bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar uchun bojxona yuk deklaratsiyasi tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kundan kechiktirmay beriladi, bojxona qonunchilik hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

Bojxona hududidan olib chiqilayotgan tovarlar uchun bojxona yuk deklaratsiyasi ular amalda olib chiqib ketilganiga qadar beriladi.

12. Davlat bojxona qo'mitasi va vakolatli organlar doimiy ravishda o'z axborot tizimlarini uzluksiz ishlashini ta'minlaydilar.

13. Davlat bojxona qo'mitasi tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash hamda bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etiladigan hujjatlarning elektron shaklini tasdiqlaydi va o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

## **2-bob. Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash**

14. Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining vakolatli organlar axborot tizimlari bilan o'zaro ma'lumotlarni o'tkazish telekommunikatsiya tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

15. Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda — vakolatli organlari majburiy tartibda "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga o'zlarining ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarini kiritilishini ta'minlaydi.

"Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga vakolatli organlar tomonidan ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlar kiritilmagan bo'lsa, tizim tomonidan TED qabul qilinmaydi.

Ikkinci bosqichda — deklarant TIF ishtirokchisi kabineti orqali ro'yxatdan o'tgan holda deklaratsiyalovchi shaxslar ro'yxatiga bojxona brokeri yoki o'z shtat birligida bo'lgan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi va uning tomonidan bojxona xizmati organlariga TEDni taqdim etish vakolat muddatini ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini hamda O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bundan mustasno.

Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini nomidan yoxud O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan TED taqdim etilganda, bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotlar deklaratsiyalovchi shaxslar ro'yxatiga kiritilmaydi.

Deklarant tomonidan deklaratsiyalovchi shaxslar ro'yxatiga kiritilgan bojxona brokeri TIF ishtirokchisi kabineti orqali ro'yxatdan o'tgan holda o'zining shtat birligida bo'lgan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib, bojxona xizmati organlariga tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashni taqdim etish vakolat muddatini ko'rsatadi.

Deklarant yoki u ishonch bildirilgan shaxs TIF ishtirokchisi kabinetidagi "E-arkiv" interaktiv xizmatidan foydalangan holda elektron arxivni shakllantirib, unga o'zining ERIsi bilan tasdiqlagan bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etiladigan hujjatlarning elektron shakllarini joylashtiradi.

Elektron arxivga joylashtirilgan hujjatlarga avtomatik tarzda maxsus raqam beriladi va bu haqda deklarantga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

Elektron arxivga joylashtirilgan hujjatlar deklarant tomonidan o‘zgartirilishi va o‘chirilishi mumkin, bunda deklaratsiyalash jarayonida hamda bojxona rasmiylashtiruvi davomida foydalanilgan hujjatlar mustasno.

Taqdim etiladigan hujjatlarning ro‘yxati va formati, ularning taqdim etish tartibi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadi va bu haqda “E-arkiv” interaktiv xizmati orqali ma’lum qilinadi.

Deklarant ma’lum qilingan maxsus raqamni deklaratsiyalovchi shaxslar ro‘yxatida ma’lumoti kiritilgan bojxona brokeri yoki bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassisiga taqdim etadi hamda ularga TIF ishtirokchisi kabinetida faqat ushbu maxsus raqam berilgan hujjatlarni ko‘rish, zarur hollarda ko‘chirib olish imkoniyatini ta’minlaydi, bundan TED deklarant tomonidan taqdim etiladigan hollar mustasno.

Deklaratsiyalovchi shaxs TIF ishtirokchisi kabinetida ro‘yxatdan o‘tgan holda “E-arkiv” interaktiv xizmatining elektron arxividagi maxsus raqami bo‘lgan hujjatlar asosida TEDni shakllantiradi va o‘z ERIsi bilan tasdiqlab, avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bojxona xizmati organlariga yuboradi.

TEDni shakllantirishda deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan asos bo‘lgan elektron hujjatlar maxsus raqami ko‘rsatiladi va ushbu elektron hujjatlarni bojxona xizmati organlariga taqdim etish talab etilmaydi.

Elektron shaklida deklaratsiyalash jarayonida deklaratsiyalovchi shaxs maxsus raqam berilmagan qo‘srimcha deklaratsiyalashga oid hujjatlarni taqdim etishi mumkin, bu haqda bojxona xizmati organlariga hujjatlar zarurligining sabablarini ko‘rsatgan holda elektron xabarnoma yuboriladi.

Transport va tijorat hujjatlari yoki bojxona xizmati organlarida mavjud ma’lumotlar bundan mustasno.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bojxona organiga TED kelib tushganida, bu haqda TIF ishtirokchisi kabineti orqali deklarantga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

Uchinchi bosqichda — bojxona xizmati organlariga kelib tushgan TED bojxona axborot tizimining dastlabki format-mantiqiy nazoratidan o‘tkaziladi va tekshiruvlarning ijobiy natijasida, tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashga avtomatlashtirilgan tarzda tartib raqami berilib, ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda bu haqda deklarantga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

Format-mantiqiy nazoratda TEDda xato va kamchiliklar yoki nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan avtomatlashtirilgan tarzda tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash qaytariladi va bu haqda deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

TED ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga ega hujjatga aylanadi.

Ro‘yxatdan o‘tgan TED bojxona axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda tovarlar bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona xizmati organi xodimlari o‘rtasida taqsimlanadi yoki bojxona xizmati organi xodimi ishtirokisiz, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi maxsus algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan tarzda ushbu Nizomning 3-bobida ko‘rsatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

To‘rtinchi bosqichda — Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlangan TED bojxona xizmati organlari xodimi tomonidan qabul qilinadi va bu haqda deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsga TIF ishtirokchisi kabineti orqali tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

TED ushbu xabarnoma yuborilgan vaqtidan boshlab qabul qilingan hisoblanadi.

TEDni rasmiylashtirishda bojxona axborot tizimi tomonidan xavf darajasi past deb topilgan deklaratsiyalar ustuvor deb hisoblanadi.

Bojxona xizmati organlari xodimi bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlariga va O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga rioya etish bilan birga “Xavfni boshqarish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini qo’llash natijasiga muvofiq harakatlarni amalga oshiradi.

TEDning bojxona rasmiylashtiruvi u qabul qilgan vaqtdan boshlab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

a) xavf darajasi past bo‘lganda va bojxona yuk deklaratsiyasiga o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimcha kiritish zarurati yuzaga kelmaganda, uch soat davomida (bojxona xizmati organlarining ish vaqtidan tashqari paytda bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilgan holatlar bundan mustasno);

b) xavf darajasi o‘rtta ko‘rsatkichga ega bo‘lganda va bojxona yuk deklaratsiyasiga o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimcha kiritish zarurati yuzaga kelmaganda, sakkiz soat davomida (bojxona xizmati organlarining ish vaqtidan tashqari paytda bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilgan holatlar bundan mustasno);

v) xavf darajasi yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganda yoki ushbu bandning “a” va “b” kichik bandlarida muddati keltirilmagan hollarda qonunchilikda belgilangan umumiy muddatda rasmiylashtiriladi.

Bojxona xizmati organlari xodimi bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda “Xavfni boshqarish” avtomatlashtirilgan axborot tizimining natijalariga asoslangan holda, xavf darajasiga ko‘ra quyidagi harakatlarni amalga oshirmaydi:

xavf darajasi past bo‘lganda, elektron hujjatlarning aslini talab etish yoki bojxona ko‘rigi o‘tkazish yoxud bojxona ekspertizasini tayinlash;

xavf darajasi o‘rtta ko‘rsatkichga ega bo‘lganda, bojxona ekspertizasini tayinlash va bojxona ko‘rigini o‘tkazish.

Ushbu bandning “a” va “b” kichik bandlarida ko‘rsatilgan muddatlari o‘tkazib yuborilganda, bojxona xizmati organlari xodimi muddatlarning o‘tib ketganligining asoslantirilgan sabablari deklaratziyalovchi shaxsga tasdiqlangan elektron xabarnoma orqali ma’lum qilinadi.

16. Bojxona xizmati organlari xodimi qabul qilingan TEDning rasmiylashtiruvini ushbu Nizomning 15-bandidagi “a”, “b” va “v” kichik bandlarida belgilangan muddatlarda amalga oshirishdan oldin quyidagilarni bajaradi:

TEDda ko‘rsatilgan tovarlar tegishli bojxona omboriga joylashtirilganligi yoki joylashtirish ehtimoli mavjudligini o‘rganib chiqadi. Bunda bojxona axborot tizimi orqali elektron shaklda bojxona ombori mudiriga so‘rovnomaga yuboradi.

Bojxona (erkin) ombori mudiri so‘rovnomani qabul qilgandan so‘ng o‘ttiz daqiqa ichida taqdim etilgan hujjatlar asosida tovarlar bojxona omboriga joylashtirilganligi yoki joylashtirish ehtimoli mavjudligiga aniqlik kiritib, bojxona axborot tizimi orqali TED taqdim etilgan bojxona postiga elektron shaklda javob yuboradi.

Tovarlar bojxona (erkin) omboriga joylashtirilmaganligi yoki joylashtirish ehtimoli mavjud emasligi tasdiqlangan taqdirda, bojxona xizmati organlari xodimi tomonidan TEDni taqdim etgan deklaratziyalovchi shaxsning TIF ishtirokchisi kabinetiga bojxona axborot tizimi orqali deklaratziya qaytarilishi to‘g‘risida elektron shakldagi xabarnoma yuboriladi. Bojxona (erkin) ombori mudiri tomonidan tovarlar joylashtirilganligi yoki joylashtirish ehtimoli mavjudligini bojxona axborot tizimida oldindan tasdiqlash holatlari hamda tovarlarni dastlabki, davriy deklaratziyalash holatlari bundan mustasno.

Tovarlar bojxona organi ruxsati asosida bojxona ombori maqomiga ega bo‘lmagan omborga joylashtirilganda yoki tovarlar transport vositasidan tushirilmagan holda erkin muomalaga chiqarilishi holatlarida bojxona axborot tizimida bu haqida belgi bojxona xizmati organlari xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

17. TEDning bojxona rasmiylashtiruvi yakunlanganligi rasmiylashtiruvni o‘tkazgan bojxona xizmati organlari xodimi tomonidan o‘zining ERIsi bilan belgi qo‘yish orqali tasdiqlanadi va bu haqda avtomatlashtirilgan tarzda deklaratziyalovchi shaxsning TIF ishtirokchisining kabinetiga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

### **3-bob. Avtomatlashtirilgan tarzda TEDni rasmiylashtirish**

18. TED dastlabki format-mantiqiy nazoratdan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng, quyidagi shartlarga mos kelganda, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi maxsus algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan tarzda bojxona xizmati organlari xodimi ishtirokisiz rasmiylashtiriladi:

xavfni boshqarish tizimi orqali xavf darajasi past deb baholanganida;

TEDda ko'rsatilgan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlanmaganida; elektron hujjatlarning aslini talab etish yoki tovarlarni chiqarib yuborishdan oldin bojxona nazoratidan o'tkazish zaruriyati bo'lмаганда;

bojxona axborot tizimida belgilangan tegishli hujjatlarni tekshirish shartlari bajarilganda;

TEDda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi (chiqilishi) cheklangan va taqilangan tovarlar mavjud bo'lмаганда;

TEDda ko'rsatilgan ma'lumotlarning vakolatli idoralar tomonidan berilgan ruxsatnoma hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan o'rtaida o'zaro nomuvofiqliklar aniqlanmaganda;

tovarlarni inson aralashuvisiz bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish bo'yicha bojxona axborot tizimida belgilangan shartlarni tekshirish natijalari bajarilganda.

Mazkur shartlarga mos kelmagan elektron shaklida deklaratsiyalash jarayoni ushbu Nizomning 15-bandiga muvofiq amalga oshiriladi va bu haqda deklarantga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

19. TED bojxona axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tartibda rasmiylashtiruvdan o'tkazilgandan so'ng, bu haqida deklaratsiyalovchi shaxsning TIF ishtirokchisi kabinetiga tasdiqlangan elektron xabarnoma yuboriladi.

20. TEDlarni bojxona axborot tizimida avtomatik holda ro'yxatga olish, bojxona xizmati organlari xodimlariga avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlash va bojxona xodimi ishtirokisiz rasmiylashtirish tartiblari va shartlari Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

#### **4-bob. Qog'ozda yozma shaklda deklaratsiyalash**

21. Tovarlarni qog'ozda yozma shaklda deklaratsiyalash deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan A4 formatdagi varaqlarda Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirgan holda tegishli hujjatlar bilan birga bojxona xizmati organlariga taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

22. Qog'ozda yozma shakldagi deklaratsiyalash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

davlat sirlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan tashqi savdo kontraktlari bo'yicha olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan;

bojxona axborot tizimining dasturlarida texnik nosozliklar vujudga kelganda;

xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan hollarda bojxona yuk deklaratsiyasi qog'ozda yozma shaklda taqdim etilganda bojxona xizmati organlariga elektron tashuvchida uning elektron shakldagi nusxasini taqdim etish talab etilmaydi.

23. Taqdim etilgan qog'ozda yozma shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasi bojxona xizmati organlari tomonidan uning elektron shakldagi nusxasi bilan bir vaqtida qabul qilinib, ro'yxatga olinadi va bojxona xizmati organlari xodimlari o'rtaida taqsimlangan holda qonunchilik hujjatlarida belgilangan umumiyyat muddatda rasmiylashtiriladi.

24. Bojxona xizmati organlari xodimi bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilishi ko'zda tutilmagan yoki ushbu Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan holatlarda bojxona yuk deklaratsiyasi bo'yicha undirilgan bojxona to'lovlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni bojxona xizmati organlarining "Bojxona to'lovlarini hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi.

25. Rasmiylashtirilgan qog'ozda yozma shakldagi bojxona yuk deklaratsiyalari hisobi bojxona xizmati organlari tomonidan yuritiladi.

#### **5-bob. TEDni hamda taqdim etiladigan ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarni taqdim etayotganda ERIdan foydalananish tartibi**

26. ERIni tarqatish va uning hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi — elektron raqamli imzolar kalitlarini ro'yxatga olish markazi tomonidan tashkil etiladi. Bunda ERI kalitlari maxsus himoyalangan qurilmalarda saqlanishi talab etiladi.

27. Elektron hujjatlarni taqdim etganda, quyidagilar elektron hujjatlar almashinuviga ishtirokchilari hisoblanadi:

- a) ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarni Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirituvchi va uzatuvchi vakolatlari organlar xodimlari;
- b) avtomatlashtirilgan axborot tizimiga TED va elektron shaklda taqdim etiladigan hujjatlarni taqdim etuvchi deklaratsiyalovchi shaxslar;
- v) TED va elektron shaklda taqdim etiladigan hujjatlarni rasmiylashtiruvchi bojxona xizmati organlari xodimlari.

28. TEDni imzolash vakolatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs (elektron raqamli imzo kalitining egasi) tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘z elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlovchi shaxsdir.

29. Davlat bojxona qo‘mitasi dasturiy-apparat vositalari deklaratsiyalovchi shaxslarning ERIsi haqiqiyligi va ularning ro‘yxatda mavjudligini tekshirish jarayonini, shuningdek, elektron shakldagi avtomatlashtirilgan axborot tizimi va Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kelib tushish sana va vaqtini ko‘rsatuvchi ruxsat beruvchi va boshqa hujjatlarni qabul qilishni ta’minlaydi.

#### **6-bob. Elektron shaklida deklaratsiyalashda bojxona axborot tizimi foydalanuvchilarining huquq va majburiyatları**

30. Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashda deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxs quyidagi huquqlarga ega:

TEDni taqdim etishida, ushbu Nizomning 15-bandiga “a” va “b” kichik bandlarida nazarda tutilgan muddatlarda rasmiylashtiruvni amalga oshirilishidan oldin yoxud rasmiylashtiruv jarayonida tovarlarni transport vositalaridan bojxona xizmati organlari tomonidan belgilangan joylarga tushirish uchun ruxsat berish to‘g‘risida bojxona xizmati organlariga so‘rovnama yuborish;

tovarlarni transport vositalaridan bojxona xizmati organlari tomonidan belgilangan joylarga vaqtincha saqlash uchun tushirish jarayonida yoki tushirilgandan so‘ng tovarlar miqdori, nomlanishi, tavsifi yoki boshqa o‘ziga xos xususiyatlarida tafovut aniqlangan taqdirda TEDga o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimcha kiritish haqida murojaat qilish;

o‘zlarining TIF ishtirokchisi kabinetida “Bojxona rasmiylashtiruvni bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmat sifatini baholash” moduli orqali elektron shaklida deklaratsiyalash jarayonini baholash;

avtomatlashtirilgan axborot tizimi va Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar orqali ular tomonidan taqdim etilgan TEDlarning va elektron hujjatlarning deklaratsiya rasmiylashtirilgan sanadan boshlab o‘n besh kun muddatda yuklab olish hamda qog‘ozda yozma shaklini chop etish;

bojxona rasmiylashtiruvni jarayonida va undan so‘ng bojxona xizmati organlari tomonidan bojxona yuk deklaratsiyasida qoidabuzarliklar aniqlangunga qadar bojxona to‘lovlarining hisoblashga yoki taqiq, cheklolar qo‘llanilishiga ta’sir etmaydigan qoidabuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bojxona organi ruxsati bilan tuzatish huquqiga ega, bundan qonunchilikda deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsning murojaatiga asosan bojxona yuk deklaratsiyasini o‘zgartirish, unga qo‘srimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish taqiqlangan holatlar mustasno.

Ushbu holatlarda deklarant va deklaratsiyalovchi shaxsga nisbatan ma’muriy huquqbazarlikka oid protsessual hujjatlar rasmiylashtirilmaydi.

Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashda deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxslar:

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, bojxona rasmiylashtiruvni vaqtida taqdim etilgan TEDlardagi ma’lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligini ta’minlashi;

tovarlarni deklaratsiyalash davomida bojxona xizmati organlariga hujjatlarni taqdim etish hamda tegishli so‘rovnomalarni yuborish bilan bog‘liq harakatlarni TIF ishtirokchisi kabineti orqali amalga oshirishi;

TEDni to‘ldirishda asos bo‘lgan qog‘ozda yozma shaklidagi hujjatlarning saqlanishi bo‘yicha javobgarlik qonunchilik hujjatlariga muvofiq deklarant zimmasiga yuklanadi.

Deklarant TEDni to‘ldirishda asos bo‘lgan qog‘ozda yozma shaklidagi hujjatlarning xavfsiz saqlanishi sharoitlarini ta’minlashi va ularga o‘zgartirish kiritishdan himoyalashi shart.

Deklarant tomonidan bojxona xizmati organlariga TED o‘z nomidan taqdim etilganda, u qonunchilik hujjalardan belgilangan bojxona rasmiylashtiruv bo‘yicha mutaxassisning huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

Yuklarning bojxona rasmiylashtiruvida elektron shaklida deklaratsiyalash jarayonidan foydalanayotgan deklarantlar qonunchilik hujjalardan muvofiq deklaratsiyalovchi shaxslar ro‘yxatiga kiritilayotgan ma’lumotlar va elektron hujjalarni arxivlashtirish interaktiv xizmati orqali taqdim etilgan hujjalardagi ma’lumotlarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligini ta’minlaydilar.

31. Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashda bojxona xizmati organlari xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

taqdim etilgan TEDda nomuvofiqliklar aniqlanganida, bojxona xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xorijiy davlatlar yoki xalqaro tashkilotlardan olingan ma’lumotlar hamda tezkor-qidiruv natijalari asosida belgilangan xavfni minimallashtirish choralarini o‘zgartirish va qo‘srimcha tadbirlarni amalga oshirish;

deklaratsiyalovchi shaxslar tomonidan baholash jarayonida berilgan takliflarni monitoring qilish;

aniqlangan xatolik yoki nomuvofiqliklar (tafovutlar) holatlari sabablarini o‘rganish maqsadida taqdim etilayotgan elektron hujjalarning aslini talab qilish. O‘rganish davomida bojxona qonunchilik hujjalari buzilganligi tasdiqlanmasa yoki aniqlangan xatoliklar deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan bartaraf etilsa, taqdim etilgan elektron hujjalarning asli to‘liq qaytariladi;

agar o‘rganish davomida qonunchilikda nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjudligi aniqlansa, tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borish;

Davlat bojxona qo‘mitasining rasmiy veb-sayti orqali deklarant va deklaratsiyalovchi shaxslarga bojxona yuk deklaratsiyasining rasmiylashtiruv holati, sarf etilgan vaqt haqida ma’lumotlarni interaktiv xizmatlari orqali kuzatish va baholash imkoniyatini yaratish.

Tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashda bojxona xizmati organlari xodimlari:

TEDni deklaratsiyalash va rasmiylashtiruv davomida “Xavfni boshqarish” avtomatlashtirilgan tizimi buyurgan bojxona operatsiyalarini bajarishi;

xavfni minimallashtirish choralarini o‘zgartirish natijasida bojxona ko‘rigini o‘tkazish zaruriyati mavjud bo‘lganda, deklaratsiyalovchi shaxsga tovarlarga nisbatan bojxona ko‘rigi tayinlanganligi, uni o‘tkazish joyi va vaqt to‘g‘risida tasdiqlangan elektron xabarnoma yuborishi;

deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan taqdim etilgan tovarlarni tushirish to‘g‘risidagi so‘rovnomani ko‘rib chiqish va ruxsat beruvchi yoxud rad etuvchi xabarnoma yuborishi;

deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan taqdim etilgan tovarlarni transport vositalaridan bojxona xizmati organlari belgilagan joylarga vaqtincha saqlash uchun tushirish jarayonida yoki tushirilgandan so‘ng tovarlar miqdori, nomlanishi, tavsifi yoki boshqa o‘ziga xos xususiyatlarida tafovut aniqlangan taqdirda TEDga o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimcha kiritish haqida murojaatini ko‘rib chiqishi.

Bojxona organi xodimi TEDga o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimcha kiritishga quyidagi hollarda ruxsat beradi:

deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsdan TEDda ma’lum qilingan tovarlarga nisbatan hujjalarni va (yoki) ma’lumotlar talab qilinmagan bo‘lsa;

TEDda ma’lum qilingan tovarlarni bojxona ko‘rigidan o‘tkazish belgilanmagan bo‘lsa;

TEDdagi tovarlarni bojxona ekspertizasidan o‘tkazish tayinlanmagan bo‘lsa;

deklaratsiyalovchi shaxsning murojaati asosli deb topilganda.

Murojaat quyidagi holatlarda asosli deb hisoblanadi:

tovarlar va transport vositasi doimiy ravishda bojxona nazorati ostida saqlanganda;

tovarlar miqdoridagi tafovut bojxona ombori vakili tomonidan tuzilgan dalolatnoma asosida tasdiqlanganda;

tovarlarni ortish (tushirish) jarayonlari bojxona omborida o‘rnatilgan videokuzatuv kameralarida aniq tasvirlanganda;

vakolatli idora ekspertiza xulosasi olingan hollarda (tushirish yoki ortish jarayoniga ekspert jalg etilgan taqdirda).

Murojaatni bir ish kuni ichida o'rganib chiqib, ushbu muddat ichida tovarlarni deklarant, deklaratsiyalovchi shaxs, bojxona ombori vakili (agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilgan hollarda) ishtirokida bojxona ko'rigan deb topilgan taqdirda TEDga o'zgartirish kiritishga ruxsat beradi;

bojxona yuk deklaratsiyasida bojxona to'lovlarini kam hisoblanishiga, shuningdek, taqiq yoki cheklar qo'llanilmasligiga yoxud bojxona statistikasi, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lmagan ma'lumotlardagi so'zlarda (raqamlar va harfli kodlar mustasno) imlo xatoliklar aniqlanganda, deklaratsiyalovchi shaxsga bir ish kuni davomida ushbu xatoliklar bilan bog'liq qoidabuzarliklarni ixtiyoriy ravishda tuzatishga ruxsat berish, bundan qonunchilikda bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish taqilangan holatlar mustasno.

Qoidabuzarliklarni ixtiyoriy ravishda tuzatishga ruxsat berilganligi deklaratsiyalovchi shaxsga TIF ishtirokchisi kabineti orqali elektron xabarnoma bilan ma'lum qilinadi va bir ish kuni muddati xabarnoma jo'natilgan vaqtidan boshlab hisoblanadi.

32. Bojxona xizmati organlari, deklarantlar va bojxona brokerlari, shu jumladan, deklaratsiyalovchi shaxslar qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda va muddatlarda tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashlar va elektron shaklida taqdim etiladigan hujjalarning saqlanishini ta'minlaydi.

33. Bojxona brokerlari qonunchilik hujjalari muvofiq deklaratsiyalovchi shaxslar ro'yxatiga kiritilayotgan ma'lumotlar to'g'riligiga javobgar hisoblanadi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

34. Bojxona xizmati organlari xodimlari TEDlarning ushbu Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan muddatlarda rasmiylashtirilishi uchun shaxsan javob beradilar, bundan bojxona xizmati organlarining avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirilgan yoki mazkur Nizomning 15-bandining yigirma oltinchi xatboshisi asosida sabablari deklaratsiyalovchi shaxsga ma'lum qilingan tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashlar mustasno.

35. Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturiga ulangan bojxona va vakolatlari organlar o'z vakolatlari doirasida tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi xo'jalik subyektlari va davlatga zarar yetkazuvchi tizimdagи mavjud ma'lumotlarga noqonuniy kirish, ularni o'zgartirish yoki boshqa harakatlardan himoyalash bo'yicha zarur bo'lgan tashkiliy va texnik choralarни ko'rishi shart.

Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturidagi ma'lumotlarga kirish huquqi bo'lgan bojxona va vakolatlari organlar xodimlari mazkur ma'lumotlarni oshkor etish, o'z maqsadlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlarida foydalanish hamda uchinchi shaxslarga ma'lumotlarning belgilangan himoya qoidalarini buzgan holda, ularni olish imkoniyatini yaratish huquqiga ega emas.

36. Bojxona yuk deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjalalar bojxona organlarida tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

37. Davlat bojxona qo'mitasi deklaratsiyalovchi shaxslarga tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar orqali ular tomonidan taqdim etilgan tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashlarning va elektron hujjalarning deklaratsiya rasmiylashtirilgan sanadan boshlab o'n besh kunlik muddatga qadar yuklab olish, qog'ozda yozma shaklini chop etish huquqi va imkoniyatini ta'minlaydi.

Davlat bojxona qo'mitasi pullik xizmat asosida deklarantlarga o'zlariga tegishli tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashlarning bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab uch yil ichida o'z serverida saqlab berish, ularni qog'ozda yozma shaklini chop etish va tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalashga oid boshqa ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Pullik xizmatdan tushgan yig'imlar Davlat bojxona qo'mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona xizmati organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasiga yo'naltiriladi va belgilangan tartibda taqsimlanadi.

Mazkur pullik xizmatlarning turlari, shakllari, maqomlari va xizmatga pul to‘lashning tariflari Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadi va o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

38. Elektron shaklida deklaratsiyalashda bojxona xizmati organlari tomonidan boshqa shaxslar uchun tovarlarni elektron shaklida deklaratsiyalash va unga tegishli hujjatlarning qog‘ozda yozma shakli chop etilmaydi va imzo hamda muhr bilan tasdiqlanmaydi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

TED va tegishli hujjatlarning qog‘ozda yozma shaklidagi nusxalarini bojxona xizmati organlari tomonidan tasdiqlash tartibi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

39. Ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarning elektron shaklini shakllantirishda vakolatli organlar xodimlari tegishli ma’lumotlarning o‘z vaqtida kiritilishi hamda ularning to‘g‘riligi uchun shaxsan mas‘uldirlar.

40. TEDlardagi aniq kelishuvlar va ularning tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bog‘liqligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar konfidensial hisoblanadi.

41. Aniq tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining amalga oshirgan operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish taqiqilanadi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

42. Manfaatdor vazirlilik va idoralar tomonidan bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish so‘ralganda, bojxona yuk deklaratsiyasi asosida shakllangan ma’lumot qog‘ozda yozma shaklda yoki elektron ko‘rinishda yoxud o‘zaro kelishuvga asosan axborot almashinushi tizimlari orqali taqdim etiladi, ushbu Nizomning 41-bandida taqiqlangan holatlar bundan mustasno.

43. Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Tovarlarni deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA**

**Tovarlarni deklaratsiyalash tartibini amalga oshirish**

**SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Ishtirokchilar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
1-bosqich	Vakolatli organlar	<p>1. Ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarni idoralararo hamkorlik darajasida bojxona axborot tizimiga kiritilishini ta‘minlaydi yoki yuboradi.</p> <p>2. Murojaat qiluvchilarga ruxsat etuvchi va boshqa hujjatlarni taqdim etadi.</p>	<p>Murojaat qiluvchilarga hujjatlarni berishdan avval yoki ularni berish bilan bir vaqtda</p> <p>Qonunchilikda belgilangan muddatlarda</p>
2-bosqich	Deklaratsiyalovchi shaxs	Tovarlarning elektron deklaratsiyasi hamda taqdim etiladigan hujjatlarni tayyorlaydi, elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlaydi va avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bojxona organlariga yuboradi.	Tayyor bo‘lishiga ko‘ra
3-bosqich	Yagona avtomatlashtirilgan	1. Tovarlarning elektron deklaratsiyasi bojxona axborot	Real vaqt rejimida

		<p>axborot tizimi</p> <p>tizimining dastlabki format-mantiqiy nazoratidan o‘tkaziladi va tekshiruvlarning ijobiy natijasida, unga avtomatlashtirilgan tarzda tartib raqami berilib, ro‘yxatdan o‘tkaziladi.</p> <p>2. Format-mantiqiy nazoratidan ijobiy o‘tmagan tovarlarning elektron deklaratsiyasi, xabarnomada sabablari ko‘rsatilgan xolda deklaratsiyalovchi shaxsga qaytarib yuboriladi.</p> <p>3. Ro‘yxatdan o‘tgan tovarlarning elektron deklaratsiyasi bojxona axborot tizimi orqali bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona organlarining xodimlari o‘rtasida avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlanadi yoki bojxona organlari xodimi ishtirokisiz, maxsus algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan tarzda rasmiylashtirilishi mumkin.</p>	
4-bosqich	Bojxona organlari xodimi	<p>1. Tovarlarning elektron deklaratsiyasini kelib tushgan vaqtidan boshlab 3 soat ichida qabul qiladi. Ushbu muddatda qabul qilinmagan tovarlarning elektron deklaratsiyasi axborot tizimi tomonidan avtomatik tarzda qabul qilinadi.</p> <p>2. Bojxona organlari xodimi tovarlarni elektron deklaratsiyasini qabul qilgan vaqtidan boshlab uning rasmiylashtiruvini amalga oshiradi.</p> <p>3. Tovarlarning elektron deklaratsiyasining bojxona rasmiylashtiruvni yakunlanganligi rasmiylashtiruvni o‘tkazgan bojxona organlari xodimi tomonidan o‘zining elektron raqamli imzosi bilan belgi quyish orqali tasdiqlanadi va bu haqda bojxona axborot tizimi tomonidan avtomatlashtirilgan tarzda deklaratsiyalovchi shaxsning TIF ishtirokchisi kabinetiga xabarnoma yuboriladi.</p>	<p>Tovarlarning elektron deklaratsiyasi bojxona organlariga kelib tushganda. Nizomning 15-bandidagi “a”, “b” va “v” — kichik bandlarida belgilangan muddatlarda. (xavf darajasi past va xavf darajasi o‘rtalagi ko‘rsatkichlarda bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari paytda deklaratsiya taqdim etilgan holatlar bundan mustasno).</p> <p>Bojxona rasmiylashtiruvni yakunlanganida.</p>

”.

2. Vazirlar Mahkamasining “Bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do‘konlari faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 9-apreldagi 210-sontarziq qarorida:

a) **1- ilovada:**

2-bandning **to‘qqizinchili xatboshisidagi** “hudud” so‘zi “bojxona nazorati zonasasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

### **3-bandda:**

**ikkinchi** va **uchinchi xatboshilar** quyidagi mazmundagi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar bilan almashtirilsin:

“O‘zbekiston Respublikasiga olib kelish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni (bojxona organlari tomonidan olib qo‘yilgan va bojxona organlari tomonidan ta’sis etilgan bojxona omboriga joylashtirilgan tovarlar bundan mustasno);

O‘zbekiston Respublikasi hududida aylanishi va sotilishi taqiqlangan tovarlarni;

vakolatli davlat organlari tomonidan olib qo‘yilgan va davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni saqlashga ruxsat berilmaydi”;

### **16-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** “bojxona ombori hududiga” so‘zlaridan keyin “bojxona nazorati zonasiga” so‘zları qo‘shilsin;

**to‘rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Agar binoning yoki inshootning yoxud ochiq maydonning bir qismi bojxona ombori hisoblansa, unga borish yo‘llari va tutashib ketadigan butun hudud bojxona nazorati ostidagi tovarlarga begona shaxslarning yaqinlashishini istisno etadigan qilib jihozlanishi kerak.”;

### **17-bandda:**

**birinchi xatboshiga** “binolari” so‘zidan keyin “va (yoki) ochiq maydonchalari” so‘zları qo‘shilsin;

**uchinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**to‘rtinchi** va **beshinchi xatboshilar** tegishincha uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

### **18-bandda:**

**ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bojxona ombori sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan binolar hajmini va (yoki) ochiq hududning hamda bojxona nazorati zonasining umumiy maydonini”;

**beshinchi xatboshiga** “maydoni” so‘zidan keyin “hamda bojxona nazorati zonası” so‘zları qo‘shilsin;

### **20-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** “yaxlit to‘sialar” so‘zlaridan keyin “(uzluksiz temir panjara yoki devor)” so‘zları qo‘shilsin;

**to‘rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“og‘ir yukli transportning manyovr (to‘singga chap berish uchun o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladigan harakatlari — qayta tizilish, burilish, qayrilib olish, ortga harakat, aylanib o‘tish) qilish imkoniyatini ta‘minlashi”;

**oltinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“barcha kirish (chiquish) va (yoki) chiqish (kirish) joylarida o‘zbek, rus va ingliz tillarida “bojxona nazorati zonası” belgisi qo‘yilgan, olingan tasvirlarni uch oy davomida ko‘rsatish hamda bojxona organlariga onlayn uzatish imkoniga ega bo‘lgan, kunu tun ishlaydigan avtotransport vositasining davlat raqami belgisini va temir yo‘l transporti vositasining raqamini aniqlash tizimi bilan jihozlangan nazorat-o‘tkazish punktlari bo‘lishi”;

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi qo‘shilsin:

“tovarlarni bojxona omboriga joylashtirish va ombordan olib chiqish faqat bojxona nazorati zonası orqali amalga oshiriladigan tarzda jihozlanishi lozim.”;

22-bandning **birinchi xatboshisiga** “bittadan kam bo‘lmagan” so‘zlaridan keyin “usti” so‘zi qo‘shilsin;

### **24-bandda:**

“korxonalar hududidagi va” so‘zlaridan keyin “yoki” so‘zi qo‘shilsin;

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Maxsus (rejimli) obyektlarda joylashgan yopiq turdagи bojxona omborlariga litsenziya talablari va shartlarini qo‘llashda alohida teng kuchga ega yoki yuqori turuvchi normativ-huquqiy hujjat talablari e’tiborga olinadi”;

**26-bandda:**

to‘rtinchi xatboshidagi “faks” so‘zi chiqarib tashlansin;  
quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi qo‘shilsin:  
“bojxona omboriga o‘rnatilgan videokuzatuv tizimiga ulangan”;

**30-bandda:**

**beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“litsenziya talablari va shartlari asosida jihozlangan videokuzatuv tizimlari yordamida olingen vaqt bo‘yicha uzlusiz videoyozuvlarning uch oy davomida saqlanishini ta’minlash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish, ustiga yozish, o‘chirish, nusxa olish, ko‘chirib olish kabi harakatlarni bajarishning va boshqa maqsadlarda foydalanishning oldini olish;”;

quyidagi mazmundagi oltinchi — sakkizinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“videokuzatuv tizimini bojxona nazorati ostida tovarlarni tashiyotgan transport vositasining bojxona ombori hududiga kirib kelishidan tovarlar bilan amalga oshiriladigan har bir yuk va boshqa operatsiyalarni hamda ularning bojxona omborlariga joylashtirilishi va chiqarib yuborilishi bo‘yicha ketma-ketlikda olingen videoyozuvlarni ta’minlaydigan qilib o‘rnatish;

videokuzatuvni to‘liq amalga oshirish imkonini beradigan yoritish tizimi bilan ta’minlash;

videoyozuvlarning uzlusizligini va axborot tizimining muntazam ishlashini ta’minlash uchun muqobil elektr manbasi (qurilmalari)ga ega bo‘lishi;”;

**oltinchi — yigirma uchinchi xatboshilar** tegishli ravishda to‘qqizinchi — yigirma oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**32-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** “ashyoviy huquqlar yoki” so‘zlaridan keyin “muddatlarini ko‘rsatgan holda” so‘zleri qo‘shilsin;

**uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“avtomobil va temir yo‘llar ko‘rsatilgan holda, bojxona ombori uchun mo‘ljallangan hudud (shuningdek, yondosh) hamda binolar va (yoki) ochiq maydonchalarning sifatli chizmasi (o‘lchamlari ko‘rsatilgan bojxona nazorati zonasasi, qo‘riqlanadigan hudud bilan birga) va kadastr yig‘ma jiddidagi tarhi”;

37-bandning **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

**40-band** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

**44-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Litsenziyalovchi organda tashkil etilgan ekspert komissiyasi xulosa tayyorlash jarayonida obyekt (bino, inshootlar va (yoki) hudud) bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni elektron hamkorlik yo‘li bilan yoxud elektron so‘rov orqali oladi va uning natijalarini xulosaga qo‘shadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasidan — ijara shartnomasi to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligidan — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq to‘g‘risida.

Belgilangan muddatlarda boshqa vakolatli organlar tomonidan javob berilmaganda, qo‘shimcha hujjalarni olingen yoki ular bilan kelishilgan hisoblanadi, bunda mazkur vakolatli organlar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan barcha oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

Vakolatli davlat organlari obyekt (bino, inshootlar va (yoki) hududning) sanitariya va yong‘in qoidalari bo‘yicha tadbirlar talablariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlariga malakali kadrlarni izlash, hujjalarni dasturlarni qayta ishlash uchun mutaxassislarini jalb qilish hamda litsenziyalarni ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa hujjalarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda yordam beradi, talabgorning taklif etilgan yordamni rad qilish hollari bundan mustasno”;

**48-banddagi** “thaqida” so‘zi “haqida” so‘zi bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi 61<sup>1</sup>-band qo‘shilsin:

“61<sup>1</sup>. Bojxona omborlarida bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida litsenziya talablari va shartlari bo‘yicha nomuvofiqliklar kuzatilganda, bojxona organi bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona nazoratining qonun hujjalarniga muvofiq amalga oshirilishini

ta'minlash chorasi ni ko'rgan holda, litsenziya talablari va shartlari buzilganligi holati bo'yicha shu kunning o'zida litsenziyalovchi organni xabardor qiladi";

**73-bandda:**

**o'ninchi, o'n birinchi** va **o'n ikkinchi xatboshilar** chiqarib tashlansin;

**o'n uchinchi xatboshi** o'ninchi xatboshi deb hisoblansin;

**85-bandga** quyidagi mazmundagi to'rtinchi — to'qqizinch xatboshilari qo'shilsin:

"Litsenziyalovchi organ bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjat kiritilgan so'rovnomanli olgan kundan e'tiboran o'n kun muddatda ushbu hujjatni bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash vositasi sifatida qabul qiladi yoki rad etadi va bu haqida xabarnoma yuboradi.

Kuyidagi hollarda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjatning bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash vositasi sifatida qabul qilinishi rad etiladi:

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjatda noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilganda;

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjatni rasmiylashtirishga asos bo'lgan shartnoma taqdim etilmaganda;

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjatda ko'rsatilgan summa miqdori Bojxona kodeksining 338-moddasida ko'rsatilgan miqdordan kam bo'lganda;

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi hujjat shartlari Bojxona kodeksining 344 va 345-moddalarida belgilangan, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlaringin summasi va foizlar qonun hujjatlariga muvofiq bojxona organi tomonidan so'zsiz tartibda undirib olinishi talablariga zid bo'lganda";

**b) 2-ilovada:**

2-bandning **yettinchi xatboshisidagi** "hudud" so'zi "bojxona nazorati zonasasi" so'zlari bilan almashtirilsin;

**6-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Erkin omborlarda tovarlar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'll qo'yilmaydi";

7-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Erkin omborda saqlashni nazarda tutmaydigan o'zgacha bojxona rejimi ostida saqlashga ariza berilgan tovarlar erkin ombordan tanlangan bojxona rejimiga muvofiq bunday tovarlar chiqarilishi paytidan boshlab, uch ish kunidan kechikmay olib chiqilishi kerak";

8-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"8. Litsenziya litsenziyalovchi organ tomonidan amal qilish muddati cheklanmagan holda, ombor hududiga (erkin ombor sifatida foydalanish mo'ljallanayotgan binolar va (yoki) ochiq maydonchalar, shuningdek, bojxona nazorati zonasasi) ega bo'lgan litsenziya talabgoriga litsenziya talabgori, erkin ombor hududi, binolar hamda bojxona nazorati zonasasi ushbu Reglament talablari va shartlariga muvofiq bo'lishi sharti bilan beriladi";

**14-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** "erkin ombor hududiga" so'zlaridan keyin "bojxona nazorati zonasiga" so'zlari qo'shilsin;

**to'rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Agar binoning yoki inshootning yoxud ochiq maydonning bir qismi erkin ombor hisoblansa, unga borish yo'llari va tutashib ketadigan butun hudud bojxona nazorati ostidagi tovarlarga begona shaxslarning yaqinlashishini istisno etadigan tarzda jihozlanishi kerak";

**16-bandda:**

**birinchi xatboshiga** "binolari" so'zidan keyin "va (yoki) ochiq maydonchalari" so'zlari qo'shilsin;

**uchinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**to'rtinchi** va **beshinchi xatboshilar** tegishincha uchinchi va to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**17-bandda:**

**ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“erkin ombor sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan binolar hajmini va (yoki) ochiq hududning hamda bojxona nazorati zonasining umumiy maydonini”;

**beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin;

“Bunda erkin ombor hududi va binolar maydoni hamda bojxona nazorati zonasni mazkur Reglamentda nazarda tutilgan talablar va shartlar hisobga olingan holda ajratilishi kerak”;

**19-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** “yaxlit to‘sıqlar” so‘zlaridan keyin “(uzluksiz temir panjara yoki devor)” so‘zlar qo‘silsin;

**to‘rtinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“og‘ir yukli transportning manyovr (to‘sıqqa chap berish uchun o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladigan harakatlari — qayta tizilish, burilish, qayrilib olish, ortga harakat, aylanib o‘tish) qilish imkoniyatini ta’minlashi”;

**oltinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“barcha kirish (chiqish) va (yoki) chiqish (kirish) joylarida o‘zbek, rus va ingliz tillarida “bojxona nazorati zonası” belgisi qo‘yilgan, olingan tasvirlarni uch oy davomida ko‘rsatish hamda bojxona organlariga onlayn uzatish imkoniga ega bo‘lgan, kunu tun ishlaydigan avtotransport vositasining davlat raqami belgisini va temir yo‘l transporti vositasining raqamini aniqlash tizimi bilan jihozlangan nazorat-o‘tkazish punktlari bo‘lishi”;

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi qo‘silsin:

“tovarlarni erkin omborga joylashtirish va undan olib chiqish faqat bojxona nazorati zonasni orqali amalga oshiriladigan tarzda jihozlanishi lozim”;

21-bandning **birinchi xatboshisiga** “bittadan kam bo‘lmagan” so‘zlaridan keyin “usti” so‘zi qo‘silsin;

**24-bandda:**

**to‘rtinchi xatboshidagi** “faks” so‘zi chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi qo‘silsin:

“erkin omborga o‘rnatilgan videokuzatuv tizimiga ulangan”;

**28-bandda:**

**beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“litsenziya talablari va shartlari asosida jihozlangan videokuzatuv tizimlari yordamida olingan vaqt bo‘yicha uzluksiz videoyozuvlarning uch oy davomida saqlanishini ta’minalash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish, ustiga yozish, o‘chirish, nusxa olish, ko‘chirib olish kabi harakatlarni bajarishning va boshqa maqsadlarda foydalanishning oldini olish;”;

quyidagi mazmundagi oltinchi — sakkizinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“videokuzatuv tizimini bojxona nazorati ostida tovarlarni tashiyotgan transport vositasining erkin ombor hududiga kirib kelishidan tovarlar bilan amalga oshiriladigan har bir yuk va boshqa operatsiyalarni hamda ularning erkin omborlarga joylashtirilishi va chiqarib yuborilishi bo‘yicha ketma-ketlikda olingan videoyozuvlarning ta’minalaydigan qilib o‘rnatish;

videokuzatuvni to‘liq amalga oshirish imkonini beradigan yoritish tizimi bilan ta’minalash;

videoyozuvlarning uzluksizligini va axborot tizimining mutazam ishlashini ta’minalash uchun muqobil elektr manbasi (qurilmalari)ga ega bo‘lishi;”;

**oltinchi** — **yigirma ikkinchi xatboshilar** tegishli ravishda to‘qqizinchi — yigirma beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**30-bandda:**

**ikkinchi xatboshiga** “ashyoviy huquqlar yoki” so‘zlaridan keyin “muddatlarini ko‘rsatgan holda” so‘zlar qo‘silsin;

**uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“avtomobil va temir yo‘llar ko‘rsatilgan holda, erkin ombor uchun mo‘ljallangan hudud (shuningdek, yondosh) hamda binolar va (yoki) ochiq maydonchalarning sifatli chizmasi (o‘lchamlari ko‘rsatilgan bojxona nazorati zonasini, qo‘riqlanadigan hudud bilan birga) va kadastr yig‘majildidagi tarhi”;

35-bandning **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

**38-band** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

**42-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“42. Litsenziyalovchi organda tashkil etilgan ekspert komissiyasi xulosa tayyorlash jarayonida obyekt (bino, inshootlar va (yoki) hudud) bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni elektron hamkorlik yo‘li bilan yoxud elektron so‘rov orqali oladi va uning natijalarini xulosaga qo‘sadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasidan — ijara shartnomasi to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligidan — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq to‘g‘risida.

Belgilangan muddatlarda boshqa vakolatli organlar tomonidan javob berilmaganda qo‘sishimcha hujjatlar olingan yoki ular bilan kelishilgan hisoblanadi, bunda mazkur vakolatli organlar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan barcha oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

Vakolatli davlat organlari obyektning (bino, inshootlar va (yoki) hududning) sanitariya va yong‘in qoidalari bo‘yicha tadbirlar talablariga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlariga malakali kadrlarni izlash, hujjatlar va dasturlarni qayta ishlash uchun mutaxassislarini jalb qilish hamda litsenziyalar va ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa hujjatlarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda yordam beradi, talabgorning taklif etilgan yordamni rad qilish hollari bundan mustasno”;

quyidagi mazmundagi 59<sup>1</sup>-band qo‘shilsin:

“59<sup>1</sup>. Erkin omborlarda bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida litsenziya talablari va shartlari bo‘yicha nomuvofiqliklar kuzatilganda, bojxona organi bojxona nazorati ostidagi tovar va transport vositalariga nisbatan bojxona nazoratining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlash chorasini ko‘rgan holda, litsenziya talablari va shartlari buzilganligi holati bo‘yicha shu kunning o‘zida litsenziyalovchi organni xabardor qiladi.”;

**71-banddan o‘ninchি, o‘n birinchi va o‘n ikkinchi xatboshilar** chiqarib tashlansin;

**83-bandga** quyidagi mazmundagi to‘rtinchi — to‘qqizinchi xatboshilari qo‘shilsin:

“Litsenziyalovchi organ bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjat kiritilgan so‘rovnomani olgan kundan e’tiboran o‘n kun muddatda ushbu hujjatni bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash vositasi sifatida qabul qiladi yoki rad etadi va bu haqida xabarnoma yuboradi.

Quyidagi hollarda bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjatning bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash vositasi sifatida qabul qilinishi rad etiladi:

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjatda noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjatni rasmiylashtirishga asos bo‘lgan shartnomasi taqdim etilmaganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjatda ko‘rsatilgan summa miqdori Bojxona kodeksining 338-moddasida ko‘rsatilgan miqdordan kam bo‘lganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlovchi hujjat shartlari Bojxona kodeksining 344 va 345-moddalarida belgilangan, to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlaringin summasi va foizlar qonun hujjatlariga muvofiq bojxona organi tomonidan so‘zsiz tartibda undirib olinishi talablariga zid bo‘lganda”;

**3-ilovaning** “II. Ilova qilinadigan hujjatlar” bo‘limi 2-bandidagi “bojxona ombori” so‘zлари “erkin ombor” so‘zлари bilan almashtirilsin;

v) **3-ilovada:**

**4, 21 va 34-bandlar** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

**22-bandda:**

to‘rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“litsenziya talablari va shartlari asosida jihozlangan videokuzatuv tizimlari yordamida olingan vaqt bo‘yicha uzluksiz videoyozuvlarning uch oy davomida saqlanishini ta‘minlash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish, ustiga yozish, o‘chirish, nusxa olish, ko‘chirib olish kabi harakatlarni bajarishning va boshqa maqsadlarda foydalanishning oldini olish;”;

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“videokuzatuvni to‘liq amalga oshirish imkonini beradigan yoritish tizimi bilan ta’minlash”;

**beshinchi** — **o‘n to‘qqizinchi xatboshilari** tegishli ravishda oltinchi — yigirmanchi xatboshilari deb hisoblansin;

**26-bandda:**

**ikkinchiga xatboshiga** “ashyoviy huquqlar yoki” so‘zlaridan keyin “muddatlarini ko‘rsatgan holda” so‘zları qo‘shilsin;

**uchinchi xatboshidagi** “tarhi va chizmasi” so‘zları “chizmasi va kadastr yig‘ma jildidagi tarhi” so‘zları bilan almashtirilsin;

30-bandning **birinchi xatboshisidagi** “bojxona ombori” so‘zları “boj olinmaydigan savdo do‘koni” so‘zları bilan almashtirilsin;

31-bandning **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

**38-bandda:**

**ikkinchi** va **uchinchi xatboshilar** chiqarib tashlansin;

**to‘rtinchi** va **yettinchi xatboshilar** tegishinchcha ikkinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**ikkinchi xatboshidagi** “Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasidan” so‘zları “Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligidan” so‘zları bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar qo‘shilsin:

“Belgilangan muddatlarda boshqa vakolatli organlar tomonidan javob berilmaganda, qo‘shimcha hujjatlar olingan yoki ular bilan kelishilgan hisoblanadi, bunda mazkur vakolatli organlar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan barcha oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

Vakolatli davlat organlari obyektning (bino, inshootlar va (yoki) hududning) sanitariya va yong‘in qoidalari bo‘yicha tadbirlar talablariga muvofiqligini ta’minalash maqsadida tadbirkorlik subyektlariga malakali kadrlarni izlash, hujjatlar va dasturlarni qayta ishlash uchun mutaxassislarni jalb qilish hamda litsenziyalar va ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa hujjatlarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda yordam beradi, talabgorning taklif etilgan yordamni rad qilish hollari bundan mustasno”;

**to‘rtinchi** va **beshinchi xatboshilar** tegishinchcha oltinchi va yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

51-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “bojxona ombori” so‘zları “boj olinmaydigan savdo do‘koni” so‘zları bilan almashtirilsin;

67-banddan **o‘ninchি, o‘n birinchi** va **o‘n ikkinchi xatboshilar** chiqarib tashlansin;

**79-bandda:**

**ikkinchi xatboshidagi** “bojxona ombori” so‘zları “boj olinmaydigan savdo do‘koni” so‘zları bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi — sakkizinchi xatboshilar qo‘shilsin:

“Litzenziyalovchi organ bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjat kiritilgan so‘rovnomani olgan kundan e’tiboran o‘n kun muddatda ushbu hujjatni bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalash vositasi sifatida qabul qiladi yoki rad etadi va bu haqida xabarnoma yuboradi.

Quyidagi hollarda bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjatning bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalash vositasi sifatida qabul qilinishi rad etiladi:

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjatda noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjatni rasmiylashtirishga asos bo‘lgan shartnomasi taqdim etilmaganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjatda ko‘rsatilgan summa miqdori Bojxona kodeksining 338-moddasida ko‘rsatilgan miqdordan kam bo‘lganda;

bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta’minalovchi hujjat shartlari Bojxona kodeksining 344 va 345-moddalarida belgilangan, to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlaringin summasi va foizlar

qonun hujjatlariga muvofiq bojaxona organi tomonidan so‘zsiz tartibda undirib olinishi talablariga zid bo‘lganda”;

3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 700-sod qarori bilan tasdiqlangan Bojaxona yig‘imlari **stavkalariga**:

a) quyidagi mazmundagi 9-band qo‘shilsin:

“ 9. “Jismoniy shaxslarning chegara bojaxona postlari orqali notijorat maqsadlarida olib kirilayotgan, belgilangan me’yorlardan ortiq bo‘lgan tovarlarini chegara bojaxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun har 100 kg.gacha og‘irlikka (brutto) to‘liq va to‘liq bo‘lmagan har bir kalendar kun uchun:”	
dastlabki besh kunda;	BHMning 5 foizi
keyingi o‘n kunda;	BHMning 7 foizi
qolgan kunlarda;	BHMning 10 foizi
tez buziladigan tovarlarni vaqtincha saqlaganlik uchun;	BHMning 15 foizi ”.

\*\*\* izohga “boj olimmaydigan savdo do‘konii” so‘zlaridan keyin “shuningdek, ularga bevosita tutash bo‘lgan doimiy bojaxona nazorati zonalari” so‘zları qo‘shilsin.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.08.2021-y., 09/21/531/0809-son; 05.09.2022-y., 09/22/487/0794-son)

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИННИГ  
ҚАРОРИ**

**БОЖХОНА НАЗОРАТИ ОСТИДАГИ ТОВАРЛАРГА НИСБАТАН ЮК  
ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ДОИР ҚЎШИМЧА ЧОРА-  
ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» 2020 йил 5 июнданги ПФ-6005-сон **Фармони** ижроси юзасидан, шунингдек, божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш, божхона юк операцияларини амалга оширишни самарали тартибга солиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қиласди:

1. Қуйидагиларни назарда тутувчи Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низом **1-иловага** мувофиқ тасдиқлансан:

божхона назорати остида етказилган товарлар бўйича юк операцияларини амалга ошириш тартиби;

божхона назорати остидаги товарлар бўйича амалга ошириладиган юк операцияларини назорат қилиш;

божхона омборларида товарлар ҳаракати тизими;

божхона омборида юк операцияларини амалга оширишда божхона омбори эгасининг ҳамда унинг ваколатли шахсининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари.

2. Белгилансинки:

а) қуйидаги товарларга нисбатан божхона омбори ҳудудида ўтказиладиган юк операцияларида божхона органи мансабдор шахси иштирок этиши шарт:

қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ божхона ҳудудига олиб кирилиши ва божхона ҳудудидан олиб чиқилиши (муомаласи, фойдаланилиши ва тасарруф этилиши) тақиқланган ёхуд чекланган товарлар;

божхона омбори ҳисобланмайдиган жойга божхона омбори божхона режимида жойлаштирилиши қўзда тутилган товарлар;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари ёки Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида бериладиган лицензиялар ва рухсатномалар бўйича экспорт-импорт қилинадиган маҳсус товарлар;

транзит тарзда олиб ўтиладиган товарлар;

ҳарбий юклар, шу жумладан, қурол-яроғ, ҳарбий техника ва ўқ-дорилар, радиоактив материаллар;

инсонпарварлик ёрдами, техник қўмак сифатида ва грантлар ҳисобидан олиб кириладиган товарлар;

олиб кирилаётган Ўзбекистон Республикаси миллий валютаси, валюта қимматликлари;

ҳар қандай ҳолатдаги қимматбаҳо металлар ва қимматбаҳо тошлар ҳамда улардан ясалган буюмлар (хом (табиий) ва ишлов берилган шаклда, аффинланган, хом ашёлар, эритмалар, яrim тайёр маҳсулотлар, саноат маҳсулотлари, кимёвий бирикмалар, ломлар ва ишлаб чиқаришдан қолган чиқинди шаклида);

маданий бойликлар;

б) божхона омбори ҳудудида ўтказиладиган юк операциялари лицензия талаблари ва шартлари асосида жиҳозланган видеокузатув тизими назорати остида божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахсининг бевосита иштирокида амалга оширилади;

в) божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси божхона назорати остидаги товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан амалга ошириладиган юк операцияларида аниқлаган ҳар қандай тафовутлар ва номувофиқликлар тўғрисида божхона органини хабардор қиласди.

3. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси:

а) божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини мавжуд автоматлаштирилган ахборот тизимларида электрон бошқаришни жорий этиш ва ишга тушириш бўйича буюртмачи, шунингдек, кейинчалик ўз маблағлари хисобидан қўллаб-куватловчи этиб белгилансин;

б) икки ой муддатда божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк ва бошқа операцияларни электрон бошқаришни жорий этиш бўйича техник хужжатни ишлаб чиқиб, ваколатли давлат органларида экспертизадан ўтказсин ҳамда қарор кучга киргунига қадар унинг ишга туширилишини таъминласин;

в) божхона омбори, эркин омбор ва бож олинмайдиган савдо дўкони фаолиятини лицензиялашда уларга жойлаштирилиши мумкин бўлган товарлар ҳажмидан келиб чиқиб, божхона тўловларини таъминлаш миқдорларини ошириш бўйича асослантирилган таклифларни бир ой муддатда Вазирлар Маҳкамасига киритсан.

4. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг **2-иловага** мувофиқ айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсан.

5. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳукукий хужжатларни икки ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирунсан.

6. Мазкур қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг молия-иктисодиёт ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ўринбосари — иктисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазири Ж.А. Кўчкоров ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси раиси М.Б. Азимов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ**

Тошкент ш.,  
2021 йил 20 август,  
531-сон

Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 августдаги 531-сон қарорига  
1-ИЛОВА

**Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисида**  
**НИЗОМ**

**1-боб. Умумий қоидалар**

1. Ушбу Низом божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартибини белгилайди.

2. Мазкур Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**ахборот тизими** — божхона назорати остидаги товарлар бўйича амалга ошириладиган маълум юк операцияларини қайд этиш, кузатиш, қайта ишлаш, электрон ҳисобини юритишга мўлжалланган божхона органларининг автоматлаштирилган ахборот тизими;

**божхона назорати зonasи** — Ўзбекистон Республикаси **Божхона кодексига** (кейинги ўринларда — Божхона кодекси) мувофиқ божхона ҳудудининг божхона тўғрисидаги қонунчилик хужжатларига риоя этилишини таъминлаш мақсадида ташкил қилинадиган, маҳсус ажратиб ва белгилаб қўйилган қисми;

**божхона омбори ҳудуди** — божхона омбори ўрни ва унга бевосита туташ бўлган, лицензия талаблари ва шартларига кўра маҳсус ажратилган ҳамда белгилаб қўйилган божхона назорати зonasи ҳисобланадиган юк операциялари амалга ошириладиган ҳудуд;

**божхона омборининг ваколатли шахси** — меҳнат шартномаси асосида божхона омбори (юридик шахс) манфаатларидан келиб чиқиб, унинг номидан ҳаракат қилувчи шахс;

**ваколатли шахс** — товар ва (ёки) транспорт воситаси эгаси ёки товарга ва (ёки) транспорт воситасига нисбатан божхона тўғрисидаги қонунчилик хужжатларига мувофиқ ваколатларга эга бўлган ёхуд товар ва (ёки) транспорт воситаси эгаси номидан тегишли шартнома ёки ишончнома асосида иш кўрувчи шахс;

**қайта юклаш операцияси** — божхона назорати остидаги товарларни бир транспорт воситасидан бошқа транспорт воситасига ёки ушбу транспорт воситасига қайта юклаш (транспорт воситаси юк хонасини очмасдан қайта юклаш бундан мустасно);

**товарлар бўйича амалга ошириладиган бошқа операциялар** — **Божхона кодексига** мувофиқ ташувчи, ваколатли шахс ва божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси томонидан божхона назорати остидаги товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан амалга ошириладиган операциялар, божхона органлари мансабдор шахслари томонидан амалга ошириладиган божхона операциялари бундан мустасно;

**товарлар ҳаракати тизими** — божхона омборларида божхона назорати остидаги товарларнинг муайян мақомга эга бўлган ҳолати ва ҳаракати кетма-кетлиги;

**товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжати** — божхона худуди бўйлаб божхона назорати остида ташладиган товарлар ва транспорт воситалари тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган, товар келиб тушадиган божхона организация етказиб берилганлиги назоратини божхона органлари томонидан амалга ошириш учун зарур бўлган ҳужжат;

**товарни чиқариб юбориш** — божхона расмийлаштирувини якунловчи ва маълум қилинган божхона режими шартларидан келиб чиқиб товарлардан фойдаланишга ва (ёки) уларни тасарруф этишга руҳсат берилганлигини ифодаловчи божхона органларининг ҳаракати;

**тушириш операцияси** — божхона назорати остидаги товарларни қўйилган божхона идентификация воситаларини олиб ташлаган ҳолда транспорт воситасидан тушириш (қайта юклаш мақсадида транспорт воситаси юк хонасини очмасдан тушириш бундан мустасно);

**юк операциялари** — божхона назорати остида турган товарларни ва (ёки) транспорт воситаларини ташиш, юклаш, тушириш, қайта юклаш, уларнинг бузилган ўровларини тўғрилаш, уларни ўраш, қайта ўраш ва ташиш учун қабул қилиш.

3. Куйидаги товарлардан ташқари бошқа товарларга нисбатан божхона омбори худудида ўтказиладиган юк операцияларини божхона органи мансабдор шахсининг иштирокисиз амалга оширишга руҳсат берилади:

қонунчилик хужжатларига мувофиқ божхона худудига олиб кирилиши ва божхона худудидан олиб чиқилиши (шунингдек, муомаласи, фойдаланилиши ва тасарруф этилиши) тақиқланган ёхуд чекланган товарлар;

божхона омбори ҳисобланмайдиган жойга божхона омбори божхона режимида жойлаштирилиши назарда тутилган товарлар;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари ёки Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида бериладиган лицензиялар ва руҳсатномалар бўйича экспорт-импорт қилинадиган маҳсус товарлар;

транзит тарзда олиб ўтиладиган товарлар;

ҳарбий юклар, шу жумладан, қурол-яроғ, ҳарбий техника ва ўқ-дорилар, радиоактив материаллар;

инсонпарварлик ёрдами, техник қўмак сифатида ва грантлар ҳисобидан олиб кириладиган товарлар;

олиб кирилаётган Ўзбекистон Республикаси миллий валютаси, валюта қимматликлари;

ҳар қандай ҳолатдаги қимматбаҳо металлар ва қимматбаҳо тошлар ҳамда улардан ясалган буюмлар (хом (табиий) ва ишлов берилган шаклда, аффинланган, хом ашёлар, эритмалар, ярим тайёр маҳсулотлар, саноат маҳсулотлари, кимёвий бирикмалар, ломлар ва ишлаб чиқаришдан қолган чиқинди шаклида);

маданий бойликлар.

4. Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудига олиб кирилган божхона назорати остидаги товарлар ортилган транспорт воситалари божхона омбори ҳудудига етказилади.

Транспорт турига қараб, бевосита божхона омборига етказиб бериш имкони бўлмаганда, товарлар автотранспорт воситаларига қайта юклangan ҳолда божхона омбори ҳудудига етказилади.

Божхона назорати зонасига етказилиб йигирма тўрт соат ичиди чиқариб юборилган, шунингдек, божхона омбори ҳисобланмайдиган жойда турган ҳолда божхона омбори божхона режимига жойлаштиришга рухсат берилган товарларни божхона омбори ҳудудига етказиш талаб этилмайди.

5. Божхона режимига жойлаштирилмаган божхона назорати остидаги товарларнинг юк операцияларини амалга ошириб қабул қилинган ҳолатида тўлиқ сақланишини таъминлаш учун қуийдагилар жавобгар ҳисобланади:

божхона назорати остида ташиладиган товарлар божхона омбори эгаси ёки ваколатли шахс томонидан қабул қилиб олингунга қадар — ташувчи;

божхона назорати остида ташиладиган товарлар туширилиб, бошқа транспорт воситаларига қайта ортилганда — ушбу товарларни божхона назорати остида бундан бўён ташиш учун қабул қилиб олган ташувчи;

товарлар божхона омбори ҳудудига қабул қилиб олинган пайтдан бошлаб чиқариб юборилгунга қадар — божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси;

товарларни божхона омбори ҳисобланмайдиган жойга жойлаштиришга рухсат берилган вақтдан бошлаб чиқариб юборилгунга қадар — товарларни бундай жойларга жойлаштирган шахс;

божхона назорати остидаги товарлар ортилган транспорт воситалари божхона назорати зонасига жойлаштирилганда — божхона назорати зонасига жавобгар шахс.

6. Товарлар бўйича амалга ошириладиган юк ва бошқа операцияларда товарларнинг Ташки иқтисодий фаолият товар номенклатуроси кодининг ўнта белгили даражаси ўзгариши билан боғлиқ хусусиятлари ва сифат кўрсаткичлари ўзгармаслиги лозим.

7. Агар амалга ошириладиган операциялар товарларнинг кейинги божхона назоратини амалга ошириш имкони бўлмаслигига олиб келса, божхона органи ушбу товарлар бўйича юк ва бошқа операцияларни амалга оширишни тақиқлашга ҳақли.

8. Божхона назорати остида етказилган товарлар бўйича юк операциялари ушбу Низомга **1-иловадаги** схемага мувофиқ амалга оширилади.

## **2-боб. Божхона назорати остида етказилган товарлар бўйича юк операцияларини амалга ошириш**

9. Товарлар божхона омборига етказиб берилгач, божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси транспорт воситаларининг товарлар ортилган юк бўлимлари ва унга қўйилган божхона идентификация воситаларини товарларнинг кузатув ҳужжатлари ҳамда товарни етказиб бериш назорат ҳужжатида кўрсатилган маълумотлар асосида кўздан кечиради.

Кўздан кечириш божхона идентификациялаш воситалари мавжудлиги, уларга шикаст етказилмаганлиги, ўзгартирилмаганлиги, бузилмаганлиги ва йўқ қилинмаганлигига ҳамда ташилаётган товарларни транспорт воситаларининг пломбаланган қисмидан кўзга ташланадиган излар қолдирмасдан чиқариб олиш ва (ёки) унга бошқа товарларни жойлаш истисно этилганлигига, шунингдек, пломба қўйилган жиҳозларга (контейнер конструкцияси, тиркама трости, тенти, том, пол қисмлари ва бошқалар) зарар етказилмаганлигига алоҳида аҳамият берган ҳолда амалга оширилади.

10. Божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси транспорт воситалари божхона омборига етиб келганлигини ушбу Низомнинг **9-бандида** кўрсатилган ҳаракатларни бажарган ҳолда ахборот тизимида белги қўйиш орқали тасдиқлайди.

11. Божхона омборига етиб келганлигини тасдиқлаш учун автомобиль ва темир йўл транспорти воситаси божхона органларига онлайн узатиш имконига эга бўлган, автотранспорт воситасининг давлат рақами белгисини ва темир йўл транспорти воситасининг рақамини

аниқлаш бўйича куну тун ишлайдиган тизим билан жиҳозланган назорат-ўтказиш пунктидан ўтади.

Автотранспорт воситасининг давлат рақами белгисини ва темир йўл транспорти воситасининг рақамини аниқлаш тизимидағи рақам билан товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжатидаги рақам айнан мос бўлиши ҳамда етиб келганлиги тасдиқланиши автотранспорт воситаси давлат рақами белгиси ва темир йўл транспорти воситаси рақами қайд этилгандан ўттиз дақика ичida амалга оширилиши лозим.

Бунда фақат ахборот тизимидағи узилишлар (электр манбаи сабабли узилишлар бундан мустасно) ҳамда **Божхона кодексига** мувофиқ енгиб бўлмас куч таъсири оқибатида транспорт воситаларининг етиб келганлигини тасдиқлаш имкони бўлмаганда, божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси дарҳол божхона органини ўз ваколатлари доирасида қарор қабул қилиши учун хабардор қиласи.

12. Ахборот тизимида транспорт воситаларининг божхона омборига етиб келганлиги тасдиқланиши билан товарларнинг тўлиқ сақланишини таъминлаш бўйича жавобгарлик божхона омбори эгасига ўтади.

13. Божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси ушбу Низомнинг **9-бандида** белгиланган тартибда транспорт воситалари ва уларга қўйилган божхона идентификациялаш воситаларини кўздан кечириши натижасида аниқлаган ҳар қандай тафовутлар ва номувофиқликлар тўғрисида дарҳол божхона органини хабардор қиласи.

Тегишли хабарга асосан божхона органлари товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан Божхона кодексининг **188-моддасига** мувофиқ божхона назорати шаклларини амалга оширади.

Божхона назорати якуни бўйича божхонага оид хукуқбузарлик аниқланган тақдирда, божхона органи товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан юк ва бошқа операцияларни амалга оширишни тўхтатиб туради, хукуқбузарлик тўғрисида иш юритади ҳамда терговга қадар текширув ўтказиб, маъмурий иш ёки жиноят ишини қўзғатади.

Бунда товарлар ва транспорт воситалари етказиб беришларини тасдиқлаш божхона органи қарорига кўра амалга оширилади.

14. Божхона пости томонидан товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжати назоратдан ечишунга қадар ташувчи ёки ваколатли шахс божхона омборига етиб келганлиги тасдиқланган транспорт воситасини бошқа божхона омборига жойлаштириши мумкин.

15. Ахборот тизимида ушбу Низомнинг **14-бандида** кўрсатилган тартибда транспорт воситаларининг божхона омборидан чиқарилганлиги тасдиқланиши билан товарлар тўлиқ сақланишини таъминлаш бўйича жавобгарлик ташувчига қайтади.

16. Транспорт воситалари етиб келганлиги тасдиқланган божхона омборидан товарларни бошқа божхона омборига жойлаштириш учун олиб чиқиш, ушбу Низомнинг **9 — 15-бандларида** кўрсатилган тартибда амалга оширилади.

17. Товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати транспорт воситалари етиб келганлиги тасдиқлангандан сўнг бир соат ичida, агар транспорт воситалари божхона органи иш вақтидан ташқари пайтда етиб келса, иш вақти бошлангандан сўнг бир соат ичida божхона омбори бириктирилган божхона пости томонидан назоратдан ечилади.

Божхона постларига бириктирилган божхона омборлари рўйхати барча кўриши учун Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари порталида божхона омборлари реестрида реал вақт режимида акс этади.

18. Товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати назоратдан ечишундан сўнг ҳамда шу вақт ичida товарлар бўйича амалга ошириладиган божхона органининг божхона назорати тўғрисидаги муносабати келиб тушмаганда, божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси томонидан ушбу Низомда белгиланган тартибда товарлар бўйича юк операцияларини амалга ошириш мумкин.

Етиб келганлиги тасдиқланган товарлар бўйича товарни етказиб бериш назорат ҳужжати назоратдан ечишунга қадар божхона органининг божхона назорати шаклини қўллаш ва (ёки) амалга оширилиши мумкин бўлган юк операциялари тўғрисидаги муносабати

божхона омборига қайта алоқа орқали божхона органининг мансабдор шахси томонидан ёзма ёки хавфни бошқариш тизими орқали автоматик тарзда юборилади.

19. Божхона омбори ҳудудида амалга ошириладиган юк операцияларида божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси бевосита иштирок этиши шарт.

Юк операцияларида товарларга нисбатан божхона кўригида назарда тутилган амалларни бажаришга йўл қўйилмайди, қўйилган пломбаларни бузиш (узиш, олиб ташлаш) бундан мустасно.

#### *Олдинги таҳрирга қаранг.*

20. Юк операцияларини амалга ошириш учун қўйилган божхона идентификациялаш воситалари божхона органи мансабдор шахси томонидан ўзгартирилади, алмаштирилади, олиб ташланади ёки йўқ қилинади.

Юк операциялари божхона назорати зonasida ёки божхона омбори ҳудудида ўтказилганда, қўйилган божхона идентификациялаш воситаларини олиб ташлаш ёки йўқ қилиш божхона органининг рухсати асосида божхона назорати зonasiga жавобгар шахс ёки божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси томонидан амалга оширилиши мумкин.

Божхона идентификациялаш воситалари ўзгартирилиши, алмаштирилиши, олиб ташланиши ёки йўқ қилиниши божхона органи мансабдор шахсига транспорт воситаларига юклangan товарларга нисбатан божхона кўригида назарда тутилган амалларни бажариш бўйича мажбурият юкламайди.

(20-банд *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 сентябрдаги 487-сонли қарори таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.09.2022 й., 09/22/487/0794-сон*)

21. Божхона омбори ҳудудида божхона назорати остидаги товарлар бўйича юк ва бошқа операциялар ҳамда божхона кўздан кечируви (шунингдек, декларант кўздан кечируви) ва қўриги лицензия талаблари ва шартлари асосида жихозланган видеокузатув тизими назорати остида амалга оширилади.

Божхона омборларида божхона назорати остидаги товарлар билан амалга ошириладиган операциялар ҳамда назорат шакллари бўйича товарлар ҳаракати тизими жорий қилинади.

22. Божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси товарлар бўйича юк ва бошқа операцияларни амалга ошириш вақтида товарларнинг кузатув ҳужжатларида кўрсатилган маълумотларга номувофиқлиги аниқланганда, бу ҳақда дарҳол божхона органини хабардор қиласди.

Тегишли хабарга асосан божхона органлари товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан Божхона кодексининг **188-моддасига** мувофиқ божхона назорати шаклларини амалга оширади.

Божхонага оид ҳукуқбузарлик аниқланган тақдирда, божхона органи товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан юк ва бошқа операцияларни тўхтатиб туради, ҳукуқбузарлик тўғрисида иш юритади ҳамда терговга қадар текширув ўтказиб, маъмурий иш ёки жиноят ишини қўзғатади.

23. Товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжати назоратдан ечилган ва юк операциялари амалга оширилган товарларни бир божхона омборидан бошқасига олиб ўтиш Божхона кодексининг **31-боби** талабларига мувофиқ амалга оширилади.

Бунда етказиб берилган товарлар ва транспорт воситаларига расмийлаштирилган товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати товарлар олиб ўтиладиган божхона омбори кўрсатилган ҳолда қайта назоратга қўйилади.

Товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати қайта назоратга қўйилиши товарлар учун божхона декларациясини бериш муддатига таъсир этмайди.

24. Кейинги ташуввларни амалга ошириш учун муайян транспорт воситалари жойлашган жойга божхона назорати остида етказилган товарлар бошқа транспорт воситаларига қайта юкланиши мумкин.

25. Юк операциялари ушбу Низомнинг **20-бандида** белгиланган тартибда божхона идентификациялаш воситаси олиб ташлангандан кейин дарҳол бошланиши ва вақт бўйича узлуксиз амалга оширилган ҳолда тугалланиши лозим.

26. Ушбу Низомда назарда тутилган товарларни юклаш, тушириш ва қайта юклаш операциялари бўйича, мазкур жараёнда иштирокчилар томонидан тузиладиган Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси томонидан тасдиқланадиган шаклдаги Товарни юклаш, тушириш ва қайта юклаш бўйича электрон далолатнома (кейинги ўринларда — далолатнома) расмийлаштирилади.

27. Далолатнома товарларни тушириш, қайта юклаш операцияси божхона органи мансабдор шахси иштирокида амалга оширилганда божхона органи мансабдор шахси томонидан, қолган ҳолатларда эса божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси томонидан электрон рақамли имзо орқали расмийлаштирилади.

Далолатнома нусхаси иштирок этувчиликнинг талабига асосан чоп этилиб, уни расмийлаштирган шахс томонидан имзоланган ҳамда муҳр билан тасдиқланган ҳолда берилади.

28. Товар ва (ёки) транспорт воситаларини Божхона кодексининг **93-моддасига** мувофиқ фақат божхона омбори божхона режимида божхона омбори ҳисобланмайдиган жойга жойлаштиришга рухсат берилади.

29. Божхона омбори худудига етказилган товарлар ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, физик кўрсаткичлари туфайли ёки кимёвий хоссаларига кўра ёхуд сақланишига доир алоҳида шартлар қўйилиши туфайли божхона омборига жойлаштирилиши мумкин бўлмаган товарларни божхона органининг рухсати билан божхона омбори ҳисобланмайдиган жойларда сақлаш учун қўйидаги шартлар бажарилиши талаб этилади:

товарлар божхона омбори худудига етказилган бўлиши;

божхона омбори божхона режимига божхона юк декларацияси тақдим этилиши;

товарларни сақлаш учун мўлжалланган жой (жойлашган ери, почта манзили, агар юридик шахс бўлса унинг тўлиқ номи билан) ва сақлаш учун жавобгар шахс тўғрисидаги маълумотлар (Ф.И.О., яшаш жойи, телефон рақами) акс эттирилган ваколатли шахснинг божхона юк декларациясига илова қилинган аризаси;

қонунчилик хужжатларига мувофиқ истисно этиб белгиланган ҳоллардан ташқари товарлар учун божхона тўловлари тўланиши таъминланганлигини тасдиқловчи хужжат.

30. Ўзининг ташқи ўлчамлари билан божхона омборига жойлаштириш имкони бўлмаган, авариялар ёки енгиб бўлмас куч таъсири оқибатларини тутатиш учун зарур бўлган (тақдим этилган хужжатлар билан тасдиқланиши лозим), шунингдек, тирик ҳайвонлар ва радиоактив материаллар ҳамда қонунчилик хужжатларида назарда тутилган ҳолларда товарлар божхона органининг рухсати билан божхона омбори ҳисобланмайдиган жойда (божхона омбори мақомига эга бўлмаган бинолар ва (ёки) очиқ майдончаларда) турган ҳолда божхона омбори божхона режимига жойлаштирилиши мумкин.

#### *Олдинги таҳрирга қаранг.*

Бунда товарларнинг божхона омбори худудига етказилиши ва товарга нисбатан божхона юк декларацияси тақдим этилиши талаб этилмаган ҳолда, ваколатли шахснинг товарлар учун божхона тўловлари тўланиши таъминланганлигини тасдиқловчи хужжат (қонунчилик хужжатларига мувофиқ истисно этиб белгиланган ҳоллар бундан мустасно) илова қилинган ва ушбу Низомнинг **29-бандида** кўрсатилган тартибдаги электрон аризаси транспорт воситасининг божхона омборига этиб келганлиги ахборот тизимида белги қўйиш орқали тасдиқлангунга қадар интерактив хизмат орқали божхона органига тақдим этилади.

*(30-банднинг иккинчи хатбоишиси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 сентябрдаги 487-сонли қарори таҳририда — Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.09.2022 й., 09/22/487/0794-сон)*

#### *Олдинги таҳрирга қаранг.*

31. Ушбу Низомнинг **29** ва **30-бандларида** назарда тутилган тартибда божхона омбори ҳисобланмайдиган жойларда сақлаш учун божхона тўловларини таъминлаш миқдори,

божхона тўловларини тўлаш бўйича имтиёзлар кўлланилмаган ҳолда (айрим турдаги товарларга нисбатан талаб ва шартларсиз бериладиганларидан ташқари), уларни «эркин муомалага чиқариш» божхона режимига расмийлаштирилгандағи ҳисобланган миқдордан кам бўлмаслиги лозим.

(31-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 сентябрдаги 487-сонли қарори таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.09.2022 й., 09/22/487/0794-сон)

32. Ушбу Низомнинг 4-банди **учинчи хатбошиси** ва **30-бандига** мувофиқ товарлар бевосита божхона омбори худудига етказиб берилмаганда, товарларнинг етказиб берилганинига ва товарни етказиб бериш назорат хужжатининг назоратдан ечилиши Божхона кодексининг **31-боби** талабларига мувофиқ божхона органлари томонидан амалга оширилади.

33. Товарлар бўйича ва (ёки) транспорт воситалари ёрдамида амалга ошириладиган юк операциялари ҳамда бошқа операциялар божхона органи учун бирор-бир қўшимча харажатлар келтириб чиқармаслиги керак.

### **3-боб. Божхона назорати остидаги товарлар бўйича амалга ошириладиган юк операциялари назорати**

34. Божхона органлари божхона назорати остидаги товарлар ва улар бўйича амалга ошириладиган юк ва бошқа операцияларга нисбатан **Божхона кодекси** ва ушбу Низомга мувофиқ белгиланган тартибида кузатув ва назоратни таъминлайди.

35. Товарлар тўғридан-тўғри чиқариб юборилиши маълум қилинганда, кўлланиладиган божхона назорати шаклларидан келиб чиқсан ҳолда, товарлар транспорт воситаларидан туширилмаган ҳолда божхона омбори худудида туриши мумкин.

36. Етарли асослар (жисмоний ва юридик шахсларнинг, шу жумладан жамоатчилик назорати субъектларининг мурожаатлари, божхона соҳасидаги қонунчилик хужжатларини бузишга доир ҳолатлар тўғрисидаги маълумотлар ва бошқалар), шунингдек, хавфни бошқариш тизимида назорат чораси мавжуд бўлса, божхона назорати остида турган товарларга нисбатан ўтказиладиган юк ва бошқа операциялар бевосита божхона органи мансабдор шахси иштироқида амалга оширилади.

37. Божхона омборига жойлаштирилган товарлар божхона расмийлаштируви якунланган (божхона режими шартларидан келиб чиқсан ҳолда, товарлардан фойдаланишга ва (ёки) уларни тасарруф этишга рухсат берилган) кундан эътиборан уч иш куни ичидаги божхона омборидан олиб чиқилиши лозим.

Товарларни божхона омборидан чиқарилганини божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси томонидан ахборот тизими орқали тасдиқланади.

Ушбу банднинг **биринчи хатбошисида** кўрсатилган муддат ўтгандан сўнг божхона органлари товарлар ва (ёки) транспорт воситаларига нисбатан Божхона кодексининг **28-бобига** мувофиқ белгиланган тартибида божхона назорати шаклларини амалга оширади. Шунингдек, хуқуқбузарлик тўғрисида иш юритиб, маъмурий иш қўзғатади.

### **4-боб. Божхона омборларида товарлар ҳаракати тизими**

38. Божхона омборларида:

товарлар ҳаракати бўйича барча жараёнларни вақт кўрсаткичлари асосида назорат қилиш (қанча миқдордаги товарлар қандай мақомга эга);

божхона омбори томонидан назоратнинг барча босқичларида реал вақт режимида омборларга товарларнинг кирими ва чиқимини юритиши;

товарлар ҳаракати ҳисобининг назорати йўқолишининг олдини олиш;

маълумотлар базаси билан факат жараён учун бевосита масъул бўлганлар ишлаши ва товарларнинг мақомига ўзгартириш киритиши;

товарлар мақомининг доимий жараёни кузатиб бориладиган товарлар ҳаракати тизими жорий қилинади.

39. Товарлар ҳаракати тизими юритилиши учун божхона органлари божхона омборлариға ахборот тизими маълумотларидан фойдаланиш бўйича имкониятлар яратиб беради.

40. Божхона омборларида товарлар ҳаракати тизими ушбу Низомга [2-иловада](#) назарда тутилган товарларнинг мақомлари орқали юритилади.

41. Товарлар ҳаракати тизимида товарларнинг ҳар бир мақоми, шунингдек, уларнинг муддатлари бўйича назоратни таъминловчи ҳисоботлар шаклланади.

42. Божхона омборида товарлар ҳаракати тизимини юритиш учун электрон маълумотлар базасига фақат божхона омбори эгаси (юридик шахс) электрон рақамли имзоси орқали ёки божхона омборининг ваколатли шахси томонидан товарлар билан боғлиқ юк ва бошқа операцияларни амалга ошириш бўйича тегишли ўзгартиришлар киритилиши мумкин.

Бунда божхона омбори эгаси электрон рақамли имзоси билан тасдиқланган ваколатли шахслар тўғрисидаги маълумотларни рўйхатга киритади ҳамда улар томонидан маълумотлар базасига товарлар билан боғлиқ юк ва бошқа операцияларни амалга ошириш бўйича тегишли ўзгартиришлар киритиш мумкин бўлган ваколат муддатини кўрсатади.

43. Божхона омборларидағи товарларнинг ҳар бир мақомлари бўйича электрон маълумотлар реал вақт режимида божхона органлари маълумотлар базасида акс этади.

## **5-боб. Божхона омборида юк операцияларини амалга оширишда божхона омбори эгасининг ва унинг ваколатли шахсининг хуқуқ ва мажбуриятлари**

44. Божхона омборида юк операцияларини амалга оширишда божхона омбори эгаси ва унинг ваколатли шахси қўйидаги хуқуқларга эга:

божхона органининг божхона назорати тўғрисидаги муносабати келиб тушмаган тақдирда, юк операцияларини амалга ошириш;

юк операцияларини амалга оширишда товарларни ташқи томондан кўздан кечириш; товарларни божхона худудига олиб кирган транспорт воситаларидан олиб, шу худуддан олиб чиқадиган транспорт воситаларига юклаш;

божхона транзити божхона режими амал қилиш муддатини тўхтатиб туриш учун, шу жумладан, транзит товар ташилаётган транспорт воситалари бузилиб қолганда, божхона омбори худудида товарларни тушириш ва вақтинча жойлаб қўйиш (сақлаш, туркумларга бўлиш ёки туркумларга тўплаш ва бошқа операциялар);

божхона органлари мансабдор шахсларининг қарорлари, шунингдек, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ шикоят қилиш;

мазкур Низом талабларини бажариш натижасида келиб чиқадиган низо ва тушунмовчиликларни қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этиш чораларини кўриш.

45. Божхона омборида юк операцияларини амалга оширишда божхона омбори эгаси ва унинг ваколатли шахси:

транспорт воситалари божхона омборига етиб келганлигини ушбу Низомда белгиланган тартибда тасдиқлаши;

транспорт воситаси ва унга қўйилган божхона идентификациялаш воситаларини кўздан кечиришда, юк операцияларини амалга ошириш натижасида ҳамда кузатув ҳужжатларида аниқлаган ҳар қандай тафовутлар ва номувофиқликлар тўғрисида божхона органини хабардор қилиши;

юк операцияларини [Божхона кодекси](#) ва ушбу Низомда белгиланган тартибда амалга ошириши;

юк операцияларини амалга оширишда товарлар ва транспорт воситаларини уларнинг кузатув ҳужжатлари ҳамда товарларни етказиб бериш назорат ҳужжатида кўрсатилган маълумотлар билан солиштириши;

юк ва бошқа операцияларни ҳамда божхона кўздан кечируви (шунингдек, декларант кўздан кечируви) ва кўригини божхона назорати остида товарларни ташиётган транспорт воситаларининг божхона омбори худудига кириб келишидан товарлар бўйича амалга

ошириладиган ҳар бир юк ва бошқа операцияларни ҳамда уларнинг божхона омборларига жойлаштирилиши ва чиқариб юборилиши бўйича кетма-кетликда олинган вақт бўйича узлуксиз видеоёзувларнинг уч ой давомида сақланишини таъминлайдиган видеокузатув тизими ёрдамида амалга ошириши;

божхона омборларида товарлар ҳаракати тизимини юритиши ҳамда маълумотларни тўғри ва ўз вактида қайд этилиши ҳамда ҳаққонийлигини таъминлаши;

юк операцияларини амалга оширишда ҳамда товарлар ҳаракати тизимини юритишда муддатларни ҳисоблаш тартибига амал қилиши;

божхона назорати остидаги товарлар ва транспорт воситалари тўғрисида ўзига маълум бўлган маълумотларни учинчи шахсларга ошкор этмаслиги;

қабул қилиб олинган товарлар ва транспорт воситаларининг белгиланган тартибда божхона омбори ҳудудида тўлиқ сақланиши тартибларига қатъий риоя этиши;

божхона омборларининг божхона назорати остида турган товарлар сақланаётган иншоотлари, бинолари (биноларнинг қисмлари) ва (ёки) очик майдонларига (очик майдонлар қисмларига) кириши тўғрисида божхона органлари мансабдор шахсларининг талабларини бажариши;

божхона органлари талабларига мувофиқ божхона назоратини амалга ошириш учун зарур бўлган маълумотларни тақдим этиши;

сақловга қабул қилиб олишда товарларга ва (ёки) транспорт воситаларига қўйилган божхона идентификациялаш воситалари ўзгартирилганлиги, бузилганлиги, йўқ қилинганлиги ёки йўқотилганлиги, идишлар ва ўровлар бузилганлиги, товарларнинг кузатув ҳужжатларида кўрсатилган маълумотларга мувофиқ эмаслиги ҳамда божхона ишига тааллуқли бўлган бошқа шундай ҳолатлар аниқланганда, шунингдек, товарлар чиқарилгунига қадар божхона тартибатомиллари бузилиши ҳолатлари тўғрисида божхона органларини хабардор этиши;

божхона органини хабардор этишни ҳолат аниқланган ёки жараён юз берган вақтдан эътиборан дарҳол, бироқ ўттиз дақиқадан кечиктирмай ёхуд ҳаракатни бошлашдан ўттиз дақиқа олдин электрон рақамли имзо ёрдамида ахборот тизимига маълумотларни киритган ҳолда амалга ошириши лозим.

## 6-боб. Якунловчи қоидалар

47. Мазкур Низом талабларини бажаришдан келиб чиқадиган низолар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

48. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби  
тўғрисидаги **низомга**  
**1-ИЛОВА**

### Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш

#### СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Ташувчи	Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудига олиб кирилган божхона назорати остидаги товарлар божхона омбори ҳудудига етказилади. Транспорт турига қараб бевосита божхона омборига етказиб бериш имкони бўлмагандан, товар	Товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжатида кўрсатилган муддатда

		автотранспорт воситасига қайта юкланган ҳолда божхона омбори худудига етказилади.	
2-босқич	<b>Ташувчи, божхона органи, ваколатли шахс</b>	Божхона назорати зонасига етказилган ва транспорт воситасига ортилган товарлар йигирма түрт соат ичидә товарларни чиқарып юбориш билан боғлиқ божхона режимига расмийлаштирилганды, шунингдек, божхона омбори ҳисобланмайдыган жойда тургани ҳолда божхона омбори божхона режимига жойлаштиришга рухсат берилганды уларни божхона омбори ҳудудига етказиш талаб этилмайды.	Товарлар божхона назорати зонасида доимий божхона назорати остида бўлганда ҳамда божхона омбори ҳисобланмайдыган жойга жойлаштиришга рухсат берилганды
3-босқич	<b>Божхона омбори (юридик шахс)</b>	Товарлар етказиб берилгач божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси транспорт воситасининг товарлар ортилган юк бўлимлари ва унга қўйилган божхона идентификация воситаларини товарнинг кузатув ҳужжатлари ҳамда товарни етказиб бериш назорат ҳужжати маълумотлари асосида кўздан кечиради.	Етиб келгач, божхона омборига кириши билан
4-босқич	<b>Божхона омбори (юридик шахс)</b>	Транспорт воситаси транспорт воситасининг рақамини аниқлаш тизимидан ўтгандан кейин божхона омбори эгаси ёки унинг ваколатли шахси транспорт воситаси божхона омборига етиб келганлигини ахборот тизимиға белги қўйиш орқали тасдиқлади.	30 дақика ичидә
5-босқич	<b>Божхона пости</b>	Товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати транспорт воситасининг етиб келганлиги тасдиқлангандан сўнг, агар транспорт воситаси божхона органининг иш вақтидан ташқари пайтда етиб келса, иш вақти бошланганидан кейин биритирилган божхона пости томонидан назоратдан ечилади.	1 соат ичидә
6-босқич	<b>Божхона омбори (юридик шахс)</b>	Товарларни етказиб беришнинг назорат ҳужжати назоратдан ечилгандан сўнг божхона омбори томонидан белгиланган тартибда	Товарни етказиб беришнинг назорат ҳужжати

		товарлар бўйича юк операцияларини амалга ошириш мумкин.	назоратдан ечилгач
7-босқич	Божхона пости	Юк операцияларини амалга ошириш учун божхона идентификациялаш воситалари божхона органлари томонидан ўзгартирилади, алмаштирилади, олиб ташланади.	Товарлар билан юк операциялари амалга оширилганда
8-босқич	Божхона омбори (юридик шахс), божхона органи	<p>Божхона омборларида:</p> <p>товарлар ҳаракати бўйича барча жараёнларни вақт кўрсаткичлари бўйича назорат қилиш (қанча миқдордаги товарлар қандай мақомга эга);</p> <p>божхона омбори томонидан назоратнинг барча босқичларида реал вақт режимида омборларга товарларнинг кирими ва чиқимини юритиш;</p> <p>товарлар ҳаракати ҳисобининг назорати йўқолишининг олдини олиш;</p> <p>маълумотлар базаси билан факат жараён учун бевосита масъул бўлганлар ишлаши ва товарларнинг мақомига ўзгартириш киритиши;</p> <p>товарлар мақомининг доимий жараёни кузатиб бориладиган товарлар ҳаракати тизими юритилади.</p>	Товарларнинг божхона омборига қабул қилинганлиги тасдиқлангандан чиқариб юборилгунига кадар

Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги **низомга**  
**2-ИЛОВА**

### **Божхона омборларида товарлар ҳаракати тизими бўйича товарларнинг мақомлари ТАСНИФЛАГИЧИ**

T/p	Товарлар мақоми	Товарлар мақоми тавсифи	Коди
1.	Кутилаётган	Омборга келиб тушиши кутилаётган товарлар туркуми, миқдори ва уларнинг тахминий келиб тушиш вақтини кўрсатади	00
2.	Божхона омборига қабул қилинган	Божхона омборига етиб келганлиги тасдиқланган ва қабул қилинган товарлар, бунда товарларни сақлаш жавобгарлиги божхона омбори эгасига ўтади, транспорт воситасидан туширилмасдан вақтинча божхона назорати зонасида турган товарлар	10
3.	Туширилиб, юк операцияси амалга оширилган	Транспорт воситасидан туширилиб, юк операцияси ўтказилган товарлар	20

4.	Режимга олинган ҳолда назоратда сақланаётган	Маълум божхона режимига жойлаштирилган ҳолда божхона омборида сақланаётган товарлар	30
5.	Омбордан чиқарилиши кутилаётган	Божхона расмийлаштируви якунланган (божхона режими шартларидан келиб чиқсан ҳолда товарлардан фойдаланишга ва (ёки) уларни тасарруф этишга рухсат берилган) юкланиши кутилаётган товарлар	40
6.	Омбордан чиқариладиган	Божхона расмийлаштируви якунланган (божхона режими шартларидан келиб чиқсан ҳолда товарлардан фойдаланишга ва (ёки) уларни тасарруф этишга рухсат берилган) уч иш қуни ичидаги амалдан олиб чиқилмаган товарлар	50
7.	Омбордан чиқарилган	Божхона расмийлаштируви якунланган (божхона режими шартларидан келиб чиқсан ҳолда, товарлардан фойдаланишга ва (ёки) уларни тасарруф этишга рухсат берилган) ва юкланиб, омбордан чиқарилган ҳолда ваколатли шахсга топширилган товарлар	60

Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 августдаги 531-сон қарорига  
2-ИЛОВА

### **Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Товарларни божхонада электрон шаклда декларациялаш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида» 2018 йил 31 июлдаги 605-сон қарорида:
  - а) 2-банд қуидаги таҳтирида баён этилсин:
  - «Товарларни декларациялаш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин».
  - б) 1-илованинг матни қуидаги таҳтирида баён этилсин:

#### **«Товарларни декларациялаш тартиби тўғрисида НИЗОМ**

##### **1-боб. Умумий қоидалар**

1. Мазкур Низом товарларни божхона юк декларациясини тақдим этиш орқали декларациялаш, шу жумладан, уни автоматлаштирилган тарзда расмийлаштириш жараёнини амалга ошириш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**«Е-архив» интерактив хизмати** — товарларни электрон шаклда декларациялашни шакллантиришга асос ҳисобланган электрон хужжатларни тақдим этиш ҳамда сақлаш учун мўлжалланган ва декларациялаш жараёни ва божхона расмийлаштируви давомида божхона хизмати органлари билан ахборот алмашувига қаратилган бир марталик электрон архивни яратиш имконини берувчи хизмат;

**«Товарларни электрон декларациялаш» автоматлаштирилган ахборот тизими** (кейинги ўринларда — автоматлаштирилган ахборот тизими) — вазирлик ва идораларнинг тегишли ахборот тизимлари алоқасини таъминловчи дастурий-техник воситаляр комплекси;

**божхона брокери** — божхона расмийлаштируви бўйича операцияларни декларант ёки ваколатли шахснинг топшириғига биноан ва унинг номидан шартнома асосида амалга оширадиган Ўзбекистон Республикаси юридик шахси;

**божхона расмийлаштируви бўйича мутахассис** (кейинги ўринларда — мутахассис) — божхона брокери ёхуд бошқа юридик шахс билан меҳнат шартномаси тузган ва ушбу

**юридик шахс номидан божхона расмийлаштируви бўйича иш бажарадиган Ўзбекистон Республикаси жисмоний шахси;**

**божхона юк декларацияси** — декларант, божхона брокери ёки декларацияловчи шахс томонидан давлат божхона хизмати органига (кейинги ўринларда — божхона хизмати органлари) тақдим этиладиган ва муайян божхона режимида жойлаштириладиган товарлар ҳақидаги маълумотлар кўрсатилган хужжат;

**божхона юк декларациясини автоматлаштирилган тарзда расмийлаштириш** — божхона юк декларациясини Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимида (кейинги ўринларда — Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими) масъул божхона хизмати органларининг ходими иштирокисиз, маҳсус алгоритмлар асосида автоматлаштирилган тарзда расмийлаштириш;

**ваколатли органлар** — Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимида божхона расмийлаштируви учун зарур бўлган руҳсат этувчи ва бошқа хужжатлар ҳамда маълумотларни бериш ва киритиш ёхуд узатиш вазифалари юкландиган органлар;

**декларант** — товарларни ва (ёки) транспорт воситаларини ўз номидан декларацияловчи ёхуд унинг номидан товарлар ва (ёки) транспорт воситалари декларациялангаётган шахс;

**декларацияловчи шахс** — божхона хизмати органларига божхона юк декларациясини ўз номидан тақдим этаётган декларант ёки божхона юк декларациясини тўлдириш, имзолаш ва божхона хизмати органларига декларант номидан тақдим этишга ваколатли божхона расмийлаштируви бўйича мутахассис ёхуд бошқа шахс;

**декларацияловчи шахслар рўйхати** — декларант томонидан Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари порталининг (кейинги ўринларда — ЯИДХП) «Декларацияловчи шахслар рўйхати» интерактив хизматига қўшиш ва чиқариш йўли билан шакллантириладиган декларацияловчи шахслар рўйхати;

**ишонч билдирилган шахс** — товарларни электрон шаклида декларациялашни тўлдиришга асос бўлиб хизмат қилувчи тақдим этилган хужжатлар ҳамда маълумотларга жавобгар ҳисобланган, декларантнинг номидан тегишли шартнома ёки ишончнома асосида иш кўрувчи ваколатли шахс;

**руҳсат этувчи ва бошқа хужжатлар** — ваколатли органлар томонидан бериладиган, Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимида киритиладиган ёки узатиладиган, божхона расмийлаштируви учун зарур бўлган, руҳсат бериш характеристига эга бўлган хужжатлар ҳамда рўйхати қонунчилик хужжатларида белгилangan бошқа хужжат ва маълумотлар;

**тақдим этилдиган хужжатлар** — Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси (кейинги ўринларда — Давлат божхона қўмитаси) томонидан белгилangan шаклда Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимида декларацияловчи шахс томонидан киритиладиган рўйхати қонунчилик хужжатларида белгилangan хужжатлар ва маълумотлар, шунингдек божхона расмийлаштируви учун зарур бўлган бошқа хужжатлар;

**тасдиқланган электрон хабарнома** — божхона ахборот тизими орқали маълум бир форматдаги электрон рақами имзо (кейинги ўринларда — ЭРИ) билан тасдиқланган декларант ёки декларацияловчи шахсларга автоматлашган тарзда юбориладиган божхона органи ходими томонидан товарларга нисбатан қабул қилинган қарори ҳақидаги электрон шаклдаги хужжат;

**ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиси шахсий кабинети** (кейинги ўринларда — ТИФ иштирокчиси кабинети) — ташқи иқтисодий фаолият иштирокчисининг божхона хизмати органлари билан персоналлаштирилган ўзаро алоқа ва ахборот алмашинуви асосида рўйхатдан ўтган ҳолда божхона хизмати органларининг интерактив хизматларидан фойдаланиш учун мўлжалланган давлат божхона хизматининг электрон платформаси;

**товарларнинг электрон декларацияси** — (кейинги ўринларда — ТЭД) ЭРИ билан тасдиқланган ҳолда автоматлаштирилган ахборот тизими орқали божхона хизмати органларига тақдим этилган божхона юк декларациясининг электрон кўринишидаги шакли;

**формат-мантиқий назорат** — Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимида божхона юк декларацияси маълумотларини мантиқан ўзаро таққослаш ёки божхона хизмати органларида мавжуд ахборотлар билан солиштириш ва божхона юк декларациясини белгиланган форматга мувофиқлигини дастлабки текширувдан ўтказиш жараёни;

**электрон шаклида декларациялаш** — товарларни электрон шаклида декларациялаш ҳамда божхона расмийлаштируви учун лозим бўлган хужжатлар ва маълумотларни, божхона юк декларациясини қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган божхона хизмати органларига идоралараро электрон ҳамкорлик йўли билан электрон шаклда тақдим этиш жараёни;

**электрон хужжатнинг асли** — электрон хужжатнинг бир хил ҳар қайси айнан нусхаси, баҳарти у белгиланган тартибда ҳақиқий деб тасдиқланган бўлса, асли.

3. Товарларни божхона юк декларацияси орқали декларациялаш электрон шаклда, шунингдек, мазкур Низомнинг 4-бобида белгиланган талабларга мувофиқ қоғозда ёзма шаклда амалга оширилади.

4. Божхона назорати остида ташилаётган товар билан юк операциялари товар етказиб берилган манзилда шу мақсадларни амалга ошириш учун маҳсус ажратилган жойларда ва божхона органининг иш вақтида амалга оширилади.

Юк операцияларини ваколатли шахс ёки ташувчининг ёзма аризасига кўра бошқа жойларда ва (ёки) қайси божхона органининг фаолият кўрсатиш зонасида юк операцияларини амалга ошириш зарурати юзага келган бўлса, ўша божхона органининг белгиланган иш вақтидан ташқари пайтда ўтказишга шу божхона органининг назорати остида йўл қўйилади.

5. Товар келиб тушадиган божхона органи жойлашган ерларга ёки жўнатувчи божхона органи томонидан белгиланган бошқа жойларга товар етказиб берилади.

Товар келиб тушадиган божхона органи иш вақтидан ташқари пайтда товар етказиб берилганда, у божхона назорати зонасига жойлаштирилади.

6. Ташувчи товар келиб тушадиган божхона органини товар етказиб берилганлиги тўғрисида товарларни ва унинг кузатув хужжатларини тақдим этиш орқали хабардор қиласи.

Хабар қилиш товарлар етказиб берилганидан кейин ўттиз дақиқадан кечиктирмай, товарлар товар келиб тушадиган божхона органининг иш вақтидан ташқари пайтида етказиб берилганда эса, божхона органининг иш вақти бошланганидан кейин ўттиз дақиқадан кечиктирмай амалга оширилади.

7. Товар келиб тушадиган божхона органи хабарномани олган пайтдан эътиборан уч соат ичида товарнинг кузатув хужжатларига ва божхона ахборот тизимиға белги кўйиш орқали товар ва транспорт воситаси етказиб берилганлиги фактини тасдиқлайди.

Етказиб берилганлиги тасдиқланган пайтдан эътиборан товар вақтинча сақлаш божхона режимида турган товар мақомини олади.

8. Товарлар муайян божхона режимига жойлаштирилгунига қадар қисқа божхона юк декларацияси асосида божхона назорати остида сақланади.

Кисқа божхона юк декларацияси сифатида транспорт ҳамда тижорат хужжатларидан, шу жумладан ҳалқаро ташишлари амалга оширилаётганда қўлланиладиган, чет тилларда тузилган ва уларда, товарни жўнатувчи (қабул қилувчи)нинг номи ва жойлашган ери, товар жўнатилган мамлакат ва келиб тушадиган мамлакати, товарнинг номи, миқдори, оғирлиги (килограммларда) ёки ҳажми (метр кубларда), юк жойларининг сони, товарнинг ўраш-жойлаш ҳамда тамғалаш хусусияти ва усуллари ҳамда товарнинг фактура қиймати ва Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолияти товар номенклатурасига мувофиқ тасниф коди ҳақидаги маълумотлар кўрсатилган хужжатлар назарда тутилади.

Кисқа божхона юк декларацияси товар божхона органига тақдим этилган кундан кейинги иш кунидан кечиктирмасдан ташувчи ёки бошқа ваколатли шахс томонидан берилади. Агар товар шу муддат ичида бошқа божхона режимига жойлаштирилса, қисқа божхона юк декларацияси берилмайди.

9. Товар етказиб берилганидан ҳамда товар келиб тушадиган божхона органига тегишли хужжатлар ва маълумотлар тақдим килинганидан кейин товар тушириб олинади ёки

қайта ортилади, божхона омборига вақтингча сақлаш учун жойлаштирилди ва муайян божхона режимига маълум қилинади.

10. Товарлар доимий божхона назорати остида бўлганда ва товарлар божхона органига топширилгандан кейин божхона расмийлаштируви йигирма тўрт соат ичидаги тугалланганда, вақтингча сақлаш божхона режими божхона расмийлаштируванинг босқичи сифатида кўлланилмайди.

11. Божхона худудига олиб кирилаётган товарлар учун божхона юк декларацияси товар келиб тушадиган божхона органига товарлар тақдим этилган кундан эътиборан ўн беш календарь кундан кечиктирмай берилади, божхона қонунчилик ҳужжатларида белгиланган ҳолатлар бундан мустасно.

Божхона худудидан олиб чиқилаётган товарлар учун божхона юк декларацияси улар амалда олиб чиқиб кетилганига қадар берилади.

12. Давлат божхона қўмитаси ва ваколатли органлар доимий равишда ўз ахборот тизимларини узлуксиз ишлашини таъминлайдилар.

13. Давлат божхона қўмитаси товарларни электрон шаклида декларациялаш ҳамда божхона расмийлаштируви учун тақдим этиладиган ҳужжатларнинг электрон шаклини тасдиқлайди ва ўзининг расмий веб-сайтига жойлаштиради.

## **2-боб. Товарларни электрон шаклида декларациялаш**

14. Товарларни электрон шаклида декларациялаш Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимининг ваколатли органлар ахборот тизимлари билан ўзаро маълумотларни ўтказиш телекоммуникация тармоғи орқали амалга оширилади.

15. Товарларни электрон шаклида декларациялаш ушбу Низомнинг 1-иловасига мувофиқ схема бўйича тўрт босқичда амалга оширилади.

Биринчи босқичда — ваколатли органлари мажбурий тартибда «Ягона дарча» божхона ахборот тизимиға ўзларининг рухсат этувчи ва бошқа ҳужжатларини киритилишини таъминлайди.

«Ягона дарча» божхона ахборот тизимиға ваколатли органлар томонидан рухсат этувчи ва бошқа ҳужжатлар ҳамда маълумотлар киритилмаган бўлса, тизим томонидан ТЭД қабул қилинмайди.

Иккинчи босқичда — декларант ТИФ иштирокчиси кабинети орқали рўйхатдан ўтган ҳолда декларацияловчи шахслар рўйхатига божхона брокери ёки ўз штат бирлигидаги бўлган божхона расмийлаштируви бўйича мутахассиси тўғрисидаги маълумотларни кирилади ва унинг томонидан божхона хизмати органларига ТЭДни тақдим этиш ваколат муддатини кўрсатади. Хорижий давлатларнинг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари ҳамда Ўзбекистон Республикаси норезидентлари бундан мустасно.

Хорижий давлатларнинг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари номидан ёхуд Ўзбекистон Республикаси норезидентлари томонидан ТЭД тақдим этилганда, божхона расмийлаштируви бўйича мутахассис тўғрисидаги маълумотлар декларацияловчи шахслар рўйхатига киритилмайди.

Декларант томонидан декларацияловчи шахслар рўйхатига киритилган божхона брокери ТИФ иштирокчиси кабинети орқали рўйхатдан ўтган ҳолда ўзининг штат бирлигидаги бўлган божхона расмийлаштируви бўйича мутахассиси тўғрисидаги маълумотларни киритиб, божхона хизмати органларига товарларни электрон шаклида декларациялашни тақдим этиш ваколат муддатини кўрсатади.

Декларант ёки у ишонч билдирилган шахс ТИФ иштирокчиси кабинетидаги «Е-архив» интерактив хизматидан фойдаланган ҳолда электрон архивни шакллантириб, унга ўзининг ЭРИси билан тасдиқлаган божхона расмийлаштируви учун тақдим этиладиган ҳужжатларнинг электрон шаклларини жойлаштиради.

Электрон архивга жойлаштирилган ҳужжатларга автоматик тарзда маҳсус рақам берилади ва бу ҳақда декларантга тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

Электрон архивга жойлаштирилган ҳужжатлар декларант томонидан ўзгартирилиши ва ўчирилиши мумкин, бунда декларациялаш жараёнида ҳамда божхона расмийлаштируви давомида фойдаланилган ҳужжатлар мустасно.

Тақдим этиладиган ҳужжатларнинг рўйхати ва формати, уларнинг тақдим этиш тартиби Давлат божхона қўмитаси томонидан белгиланади ва бу ҳақда «Е-архив» интерактив хизмати орқали маълум қилинади.

Декларант маълум қилинган маҳсус рақамни декларацияловчи шахслар рўйхатида маълумоти киритилган божхона брокери ёки божхона расмийлаштируви бўйича мутахассисга тақдим этади ҳамда уларга ТИФ иштирокчиси кабинетида факат ушбу маҳсус ракам берилган ҳужжатларни кўриш, зарур ҳолларда кўчириб олиш имкониятини таъминлайди, бундан ТЭД декларант томонидан тақдим этиладиган ҳоллар мустасно.

Декларацияловчи шахс ТИФ иштирокчиси кабинетида рўйхатдан ўтган ҳолда «Е-архив» интерактив хизматининг электрон архивидаги маҳсус рақами бўлган ҳужжатлар асосида ТЭДни шакллантиради ва ўз ЭРИси билан тасдиқлаб, автоматлаштирилган ахборот тизими орқали божхона хизмати органларига юборади.

ТЭДни шакллантиришда декларацияловчи шахс томонидан асос бўлган электрон ҳужжатлар маҳсус рақами кўрсатилади ва ушбу электрон ҳужжатларни божхона хизмати органларига тақдим этиш талаб этилмайди.

Электрон шаклида декларациялаш жараёнида декларацияловчи шахс маҳсус рақам берилмаган қўшимча декларациялашга оид ҳужжатларни тақдим этиши мумкин, бу ҳақда божхона хизмати органларига ҳужжатлар зарурлигининг сабабларини кўрсатган ҳолда электрон хабарнома юборилади.

Транспорт ва тижорат ҳужжатлари ёки божхона хизмати органларида мавжуд маълумотлар бундан мустасно.

Автоматлаштирилган ахборот тизими орқали божхона органига ТЭД келиб тушганида, бу ҳақда ТИФ иштирокчиси кабинети орқали декларантга тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

Учинчи босқичда — божхона хизмати органларига келиб тушган ТЭД божхона ахборот тизимининг дастлабки формат-мантиқий назоратидан ўтказилади ва текширувларнинг ижобий натижасида, товарларни электрон шаклида декларациялашга автоматлаштирилган тарзда тартиб рақами берилиб, рўйхатдан ўтказилади ҳамда бу ҳақда декларантга тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

Формат-мантиқий назоратда ТЭДда хато ва камчиликлар ёки номувофиқликлар аниқланган тақдирда, Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими томонидан автоматлаштирилган тарзда товарларни электрон шаклида декларациялаш қайтарилади ва бу ҳақда декларант ёки декларацияловчи шахсга тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

ТЭД рўйхатдан ўтган пайтдан бошлаб у юридик аҳамиятга эга ҳужжатга айланади.

Рўйхатдан ўтган ТЭД божхона ахборот тизими орқали автоматлаштирилган тарзда товарлар божхона расмийлаштирувани амалга оширувчи божхона хизмати органи ходимлари ўртасида тақсимланади ёки божхона хизмати органи ходими иштирокисиз, Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимидағи маҳсус алгоритмлар асосида автоматлаштирилган тарзда ушбу Низомнинг З-бобида кўрсатилган тартибда расмийлаштирилади.

Тўртинчи босқичда — Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими орқали автоматлаштирилган тарзда тақсимланган ТЭД божхона хизмати органлари ходими томонидан қабул қилинади ва бу ҳақда декларант ёки декларацияловчи шахсга ТИФ иштирокчиси кабинети орқали тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

ТЭД ушбу хабарнома юборилган вақтдан бошлаб қабул қилинган ҳисобланади.

ТЭДни расмийлаштиришда божхона ахборот тизими томонидан хавф даражаси паст деб топилган декларациялар устувор деб ҳисобланади.

Божхона хизмати органлари ходими божхона расмийлаштирувани амалга оширишда қонунчилик ҳужжатларига ва Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномаларига риоя этиш

билин бирга «Хавфни бошқариш» автоматлаштирилган ахборот тизимини қўллаш натижасига мувофиқ ҳаракатларни амалга оширади.

ТЭДнинг божхона расмийлаштируви у қабул қилган вақтдан бошлаб қўйидаги муддатларда амалга оширилади:

а) хавф даражаси паст бўлганда ва божхона юк декларациясига ўзгартириш ва (ёки) қўшимча киритиш зарурати юзага келмаганда, уч соат давомида (божхона хизмати органларининг иш вақтидан ташқари пайтда божхона юк декларацияси тақдим этилган ҳолатлар бундан мустасно);

б) хавф даражаси ўрта кўрсаткичга эга бўлганда ва божхона юк декларациясига ўзгартириш ва (ёки) қўшимча киритиш зарурати юзага келмаганда, саккиз соат давомида (божхона хизмати органларининг иш вақтидан ташқари пайтда божхона юк декларацияси тақдим этилган ҳолатлар бундан мустасно);

в) хавф даражаси юқори кўрсаткичга эга бўлганда ёки ушбу банднинг «а» ва «б» кичик бандларида муддати келтирилмаган ҳолларда қонунчиликда белгиланган умумий муддатда расмийлаштирилади.

Божхона хизмати органлари ходими божхона расмийлаштирувини амалга оширишда «Хавфни бошқариш» автоматлаштирилган ахборот тизимиning натижаларига асосланган ҳолда, хавф даражасига кўра қўйидаги ҳаракатларни амалга оширмайди:

хавф даражаси паст бўлганда, электрон ҳужжатларнинг аслини талаб этиш ёки божхона кўриги ўтказиш ёхуд божхона экспертизасини тайинлаш;

хавф даражаси ўрта кўрсаткичга эга бўлганда, божхона экспертизасини тайинлаш ва божхона кўригини ўтказиш.

Ушбу банднинг «а» ва «б» кичик бандларида кўрсатилган муддатлари ўтказиб юборилганда, божхона хизмати органлари ходими муддатларнинг ўтиб кетганлигининг асослантирилган сабаблари декларацияловчи шахсга тасдиқланган электрон хабарнома орқали маълум қилинади.

16. Божхона хизмати органлари ходими қабул қилинган ТЭДнинг расмийлаштирувини ушбу Низомнинг 15-бандидаги «а», «б» ва «в» кичик бандларида белгиланган муддатларда амалга оширишдан олдин қўйидагиларни бажаради:

ТЭДда кўрсатилган товарлар тегишли божхона омборига жойлаштирилганлиги ёки жойлаштириш эҳтимоли мавжудлигини ўрганиб чиқади. Бунда божхона ахборот тизими орқали электрон шаклда божхона омбори мудирига сўровнома юборади.

Божхона (эркин) омбори мудири сўровномани қабул қилгандан сўнг ўттиз дақиқа ичида тақдим этилган ҳужжатлар асосида товарлар божхона омборига жойлаштирилганлиги ёки жойлаштириш эҳтимоли мавжудлигига аниқлик киритиб, божхона ахборот тизими орқали ТЭД тақдим этилган божхона постига электрон шаклда жавоб юборади.

Товарлар божхона (эркин) омборига жойлаштирилмаганлиги ёки жойлаштириш эҳтимоли мавжуд эмаслиги тасдиқланган тақдирда, божхона хизмати органлари ходими томонидан ТЭДни тақдим этган декларацияловчи шахснинг ТИФ иштирокчиси кабинетига божхона ахборот тизими орқали декларация қайталиши тўғрисида электрон шаклдаги хабарнома юборилади. Божхона (эркин) омбори мудири томонидан товарлар жойлаштирилганлиги ёки жойлаштириш эҳтимоли мавжудлигини божхона ахборот тизимида олдиндан тасдиқлаш ҳолатлари ҳамда товарларни дастлабки, даврий декларациялаш ҳолатлари бундан мустасно.

Товарлар божхона органи руҳсати асосида божхона омбори мақомига эга бўлмаган омборга жойлаштирилганда ёки товарлар транспорт воситасидан туширилмаган ҳолда эркин муомалага чиқарилиши ҳолатларида божхона ахборот тизимида бу ҳақида белги божхона хизмати органлари ходими томонидан амалга оширилади.

17. ТЭДнинг божхона расмийлаштируви якунланганлиги расмийлаштирувни ўтказган божхона хизмати органлари ходими томонидан ўзининг ЭРИси билан белги қўйиш орқали тасдиқланади ва бу ҳақда автоматлаштирилган тарзда декларацияловчи шахснинг ТИФ иштирокчисининг кабинетига тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

### **3-боб. Автоматлаштирилган тарзда ТЭДни расмийлаштириши**

18. ТЭД дастлабки формат-мантиқий назоратдан муваффакиятли ўтгандан сўнг, қўйидаги шартларга мос келганда, Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимидағи маҳсус алгоритмлар асосида автоматлаштирилган тарзда божхона хизмати органлари ходими иштирокисиз расмийлаштирилади:

хавфни бошқариш тизими орқали хавф даражаси паст деб баҳоланганида;

ТЭДда кўрсатилган маълумотларда номувофиқликлар аниқланмаганида;

электрон хужжатларнинг аслини талаб этиш ёки товарларни чиқариб юборишдан олдин божхона назоратидан ўтказиш зарурияти бўлмаганида;

божхона ахборот тизимида белгиланган тегишли хужжатларни текшириш шартлари бажарилганда;

ТЭДда Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилиши (чиқилиши) чекланган ва тақиқланган товарлар мавжуд бўлмаганда;

ТЭДда кўрсатилган маълумотларнинг ваколатли идоралар томонидан берилган рухсатнома хужжатларидаги маълумотлар билан ўртасида ўзаро номувофиқликлар аниқланмаганда;

товарларни инсон аралашувисиз божхона расмийлаштирувидан ўтказиш бўйича божхона ахборот тизимида белгиланган шартларни текшириш натижалари бажарилганда.

Мазкур шартларга мос келмаган электрон шаклида декларациялаш жараёни ушбу Низомнинг 15-бандига мувофиқ амалга оширилади ва бу ҳақда декларантга тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

19. ТЭД божхона ахборот тизими орқали автоматлаштирилган тартибда расмийлаштирувдан ўтказилгандан сўнг, бу ҳақида декларацияловчи шахснинг ТИФ иштирокчиси кабинетига тасдиқланган электрон хабарнома юборилади.

20. ТЭДларни божхона ахборот тизимида автоматик ҳолда рўйхатга олиш, божхона хизмати органлари ходимларига автоматлаштирилган тарзда тақсимлаш ва божхона ходими иштирокисиз расмийлаштириш тартиблари ва шартлари Давлат божхона қўмитаси томонидан белгиланади.

### **4-боб. Қоғозда ёзма шаклда декларациялаш**

21. Товарларни қоғозда ёзма шаклда декларациялаш декларацияловчи шахс томонидан А4 форматдаги варакларда Давлат божхона қўмитаси томонидан белгиланган шаклдаги божхона юқ декларациясини тўлдирган ҳолда тегишли хужжатлар билан бирга божхона хизмати органларига тақдим этиш орқали амалга оширилади.

22. Қоғозда ёзма шаклдаги декларациялаш қўйидаги ҳолларда амалга оширилади:

давлат сирлари тўғрисидаги маълумотлар мавжуд бўлган ташқи савдо контрактлари бўйича олиб ўтилаётган товарларга нисбатан;

божхона ахборот тизимининг дастурларида техник носозликлар вужудга келганда;

халқаро шартномаларда назарда тутилган ҳолларда;

конунчилик хужжатларида назарда тутилган бошқа ҳолларда.

Мазкур банднинг иккинчи хатбошисида кўрсатилган ҳолларда божхона юқ декларацияси қоғозда ёзма шаклда тақдим этилганда божхона хизмати органларига электрон ташувчидан унинг электрон шаклдаги нусхасини тақдим этиш талаб этилмайди.

23. Тақдим этилган қоғозда ёзма шаклдаги божхона юқ декларацияси божхона хизмати органлари томонидан унинг электрон шаклдаги нусхаси билан бир вақтда қабул қилиниб, рўйхатга олинади ва божхона хизмати органлари ходимлари ўртасида тақсимланган ҳолда қонунчилик хужжатларида белгиланган умумий муддатда расмийлаштирилади.

24. Божхона хизмати органлари ходими божхона юқ декларациясида кўрсатилиши кўзда тутилмаган ёки ушбу Низомнинг 20-бандида кўрсатилган ҳолатларда божхона юқ декларацияси бўйича ундирилган божхона тўловлари тўғрисидаги маълумотларни божхона хизмати органларининг «Божхона тўловларини хисобини юритиши» автоматлаштирилган ахборот тизимида киритади.

25. Расмийлаштирилган қоғозда ёзма шаклдаги божхона юк декларациялари хисоби божхона хизмати органлари томонидан юритилади.

#### **5-боб. ТЭДни ҳамда тақдим этиладиган рухсат этувчи ва бошқа хужжатларни тақдим этаётганда ЭРИдан фойдаланиш тартиби**

26. ЭРИни тарқатиш ва унинг хисобини юритиш Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитаси ҳузуридаги Янги технологиялар илмий-ахборот маркази — электрон рақамли имзолар калитларини рўйхатга олиш маркази томонидан ташкил этилади. Бунда ЭРИ калитлари маҳсус ҳимояланган қурилмаларда сақланиши талаб этилади.

27. Электрон хужжатларни тақдим этаёнда, қўйидагилар электрон хужжатлар алмашинуви иштирокчилари ҳисобланади:

а) рухсат этувчи ва бошқа хужжатларни Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимиға киритувчи ва узатувчи ваколатли органлар ходимлари;

б) автоматлаштирилган ахборот тизимиға ТЭД ва электрон шаклда тақдим этиладиган хужжатларни тақдим этувчи декларацияловчи шахслар;

в) ТЭД ва электрон шаклда тақдим этиладиган хужжатларни расмийлаштирувчи божхона хизмати органлари ходимлари.

28. ТЭДни имзолаш ваколатига эга бўлган жисмоний шахс (электрон рақамли имзо калитининг эгаси) товарларни электрон шаклида декларациялашда кўрсатилган маълумотларни ўз электрон рақамли имзоси билан тасдиқловчи шахсадир.

29. Давлат божхона қўмитаси дастурий-аппарат воситалари декларацияловчи шахсларнинг ЭРИси ҳақиқийлиги ва уларнинг рўйхатда мавжудлигини текшириш жараёнини, шунингдек, электрон шаклдаги автоматлаштирилган ахборот тизими ва Ягона автоматлаштирилган ахборот тизимиға келиб тушиш сана ва вақтини кўрсатувчи рухсат берувчи ва бошқа хужжатларни қабул қилишни таъминлайди.

#### **6-боб. Электрон шаклида декларациялашда божхона ахборот тизими фойдаланувчиликнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари**

30. Товарларни электрон шаклида декларациялашда декларант ёки декларацияловчи шахс қўйидаги ҳуқуқларга эга:

ТЭДни тақдим этишида, ушбу Низомнинг 15-банди «а» ва «б» кичик бандларида назарда тутилган муддатларда расмийлаштирувни амалга оширилишидан олдин ёхуд расмийлаштирув жараёнида товарларни транспорт воситаларидан божхона хизмати органлари томонидан белгиланган жойларга тушириш учун рухсат бериш тўғрисида божхона хизмати органларига сўровнома юбориш;

товарларни транспорт воситаларидан божхона хизмати органлари томонидан белгиланган жойларга вақтинча сақлаш учун тушириш жараёнида ёки туширилгандан сўнг товарлар микдори, номланиши, тавсифи ёки бошқа ўзига хос хусусиятларида тафовут аниқланган тақдирда ТЭДга ўзгартириш ва (ёки) қўшимча киритиш хакида мурожаат қилиш;

ўзларининг ТИФ иштирокчиси кабинетида «Божхона расмийлаштируви бўйича кўрсатилган хизмат сифатини баҳолаш» модули орқали электрон шаклида декларациялаш жараёнини баҳолаш;

автоматлаштирилган ахборот тизими ва Давлат божхона қўмитаси томонидан кўрсатиладиган интерактив хизматлар орқали улар томонидан тақдим этилган ТЭДларнинг ва электрон хужжатларнинг декларация расмийлаштирилган санадан бошлаб ўн беш кун муддатда юклаб олиш ҳамда қоғозда ёзма шаклини чоп этиш;

божхона расмийлаштируви жараёнида ва ундан сўнг божхона хизмати органлари томонидан божхона юк декларациясида қоидабузарликлар аниқлангунга қадар божхона тўловларининг ҳисоблашга ёки такиқ, чекловлар қўлланилишига таъсир этмайдиган қоидабузарликларни ихтиёрий равишда божхона органи рухсати билан тузатиш ҳуқуқига эга, бундан қонунчиликда декларант ёки декларацияловчи шахснинг мурожаатига асосан божхона юк декларациясини ўзгартириш, унга қўшимча киритиш, уни қайта расмийлаштириш, қайтариб олиш ва бекор қилиш тақиқланган ҳолатлар мустасно.

Ушбу ҳолатларда декларант ва декларацияловчи шахсга нисбатан маъмурий ҳуқуқбузарликка оид процессуал ҳужжатлар расмийлаштирилмайди.

Товарларни электрон шаклида декларациялашда декларант ёки декларацияловчи шахслар:

қонунчилик ҳужжатлариға мувофиқ, божхона расмийлаштируви вақтида тақдим этилган ТЭДлардаги маълумотларнинг тўлиқлиги ва тўғрилигини таъминлаши;

товарларни декларациялаш давомида божхона хизмати органлариға ҳужжатларни тақдим этиш ҳамда тегишли сўровномаларни юбориш билан боғлиқ ҳаракатларни ТИФ иштирокчиси кабинети орқали амалга ошириши;

ТЭДни тўлдиришда асос бўлган қоғозда ёзма шаклидаги ҳужжатларнинг сақланиши бўйича жавобгарлик қонунчилик ҳужжатлариға мувофиқ декларант зиммасига юкландади.

Декларант ТЭДни тўлдиришда асос бўлган қоғозда ёзма шаклидаги ҳужжатларнинг хавфсиз сақланиши шароитларини таъминлаши ва уларга ўзгартириш киритишдан ҳимоялаши шарт.

Декларант томонидан божхона хизмати органлариға ТЭД ўз номидан тақдим этилганда, у қонунчилик ҳужжатларида белгиланган божхона расмийлаштируви бўйича мутахассиснинг ҳуқуқ ва мажбуриятлариға эга бўлади.

Юкларнинг божхона расмийлаштируvida электрон шаклида декларациялаш жараёнидан фойдаланаётган декларантлар қонунчилик ҳужжатлариға мувофиқ декларацияловчи шахслар рўйхатига киритилаётган маълумотлар ва электрон ҳужжатларни архивлаштириш интерактив хизмати орқали тақдим этилган ҳужжатлардаги маълумотларнинг ишончлилиги ҳамда тўғрилигини таъминлайдилар.

31. Товарларни электрон шаклида декларациялашда божхона хизмати органлари ходимлари қўйидаги ҳуқуқларга эга:

тақдим этилган ТЭДда номувофиқликлар аниқланганида, божхона хизмати органлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, хорижий давлатлар ёки халқаро ташкилотлардан олинган маълумотлар ҳамда тезкор-қидириув натижалари асосида белгиланган хавфни минималлаштириш чораларини ўзгартириш ва қўшимча тадбирларни амалга ошириш;

декларацияловчи шахслар томонидан баҳолаш жараёнида берилган таклифларни мониторинг қилиш;

аниқланган хатолик ёки номувофиқликлар (тафовутлар) ҳолатлари сабабларини ўрганиш мақсадида тақдим этилаётган электрон ҳужжатларнинг аслини талаб қилиш. Ўрганиш давомида божхона қонунчилик ҳужжатлари бузилганлиги тасдиқланмаса ёки аниқланган хатоликлар декларацияловчи шахс томонидан бартараф этилса, тақдим этилган электрон ҳужжатларнинг асли тўлиқ қайтарилади;

агар ўрганиш давомида қонунчиликда назарда тутилган жиноят аломатлари мавжудлиги аниқланса, терговга қадар текширув ҳаракатларини олиб бориш;

Давлат божхона қўмитасининг расмий веб-сайти орқали декларант ва декларацияловчи шахсларга божхона юқ декларациясининг расмийлаштирув ҳолати, сарф этилган вақт ҳақида маълумотларни интерактив хизматлари орқали кузатиш ва баҳолаш имкониятини яратиш.

Товарларни электрон шаклида декларациялашда божхона хизмати органлари ходимлари:

ТЭДни декларациялаш ва расмийлаштирув давомида «Хавфни бошқариш» автоматлаштирилган тизими буюрган божхона операцияларини бажариши;

хавфни минималлаштириш чораларини ўзгартириш натижасида божхона кўригини ўтказиш зарурияти мавжуд бўлганда, декларацияловчи шахсга товарларга нисбатан божхона кўриги тайинланганлиги, уни ўтказиш жойи ва вақти тўғрисида тасдиқланган электрон хабарнома юбориши;

декларацияловчи шахс томонидан тақдим этилган товарларни тушириш тўғрисидаги сўровномани кўриб чиқиш ва рухсат берувчи ёхуд рад этувчи хабарнома юбориши;

декларацияловчи шахс томонидан тақдим этилган товарларни транспорт воситаларидан божхона хизмати органлари белгилаган жойларга вақтинча сақлаш учун тушириш жараёнида ёки туширилгандан сўнг товарлар миқдори, номланиши, тавсифи ёки бошка ўзига хос хусусиятларида тафовут аникланган тақдирда ТЭДга ўзгартириш ва (ёки) қўшимча киритиш ҳақида мурожаатини кўриб чиқиши.

Божхона органи ходими ТЭДга ўзгартириш ва (ёки) қўшимча киритишга қуидаги ҳолларда рухсат беради:

декларант ёки декларацияловчи шахсдан ТЭДда маълум қилинган товарларга нисбатан хужжатлар ва (ёки) маълумотлар талаб қилинмаган бўлса;

ТЭДда маълум қилинган товарларни божхона кўригидан ўтказиш белгиланмаган бўлса;

ТЭДдаги товарларни божхона экспертизасидан ўтказиш тайинланмаган бўлса;

декларацияловчи шахснинг мурожаати асосли деб топилганда.

Мурожаат қуидаги ҳолатларда асосли деб ҳисобланади:

товарлар ва транспорт воситаси доимий равища божхона назорати остида сақланганда;

товарлар миқдоридаги тафовут божхона омбори вакили томонидан тузилган далолатнома асосида тасдиқланганда;

товарларни ортиш (тушириш) жараёнлари божхона омборида ўрнатилган видеокузатув камераларида аниқ тасвирланганда;

ваколатли идора экспертиза хulosаси олинган ҳолларда (тушириш ёки ортиш жараёнига эксперт жалб этилган тақдирда).

Мурожаатни бир иш куни ичидан ўрганиб чиқиб, ушбу муддат ичидан товарларни декларант, декларацияловчи шахс, божхона омбори вакили (агар товарлар божхона омборига жойлаштирилган ҳолларда) иштирокида божхона кўригидан ўтказади ва мурожаат асосли деб топилган тақдирда ТЭДга ўзгартириш киритишга рухсат беради;

божхона юк декларациясида божхона тўловларини кам ҳисобланишига, шунингдек, тақиқ ёки чекловлар кўлланилмаслигига ёхуд божхона статистикаси, божхона мақсадлари учун зарур бўлган бошқа маълумотларни нотўғри шаклланишига сабаб бўлмаган маълумотлардаги сўзларда (ракамлар ва ҳарфли кодлар мустасно) имло хатоликлар аниқланганда, декларацияловчи шахсга бир иш куни давомида ушбу хатоликлар билан боғлик қоидабузарликларни ихтиёрий равища тузатишга рухсат бериш, бундан қонунчиликда божхона юк декларациясини ўзгартириш, унга қўшимча киритиш, уни қайта расмийлаштириш, қайтариб олиш ва бекор қилиш тақиқланган ҳолатлар мустасно.

Коидабузарликларни ихтиёрий равища тузатишга рухсат берилганлиги декларацияловчи шахсга ТИФ иштирокчиси кабинети орқали электрон хабарнома билан маълум қилинади ва бир иш куни муддати хабарнома жўнатилган вақтдан бошлаб ҳисобланади.

32. Божхона хизмати органлари, декларантлар ва божхона брокерлари, шу жумладан, декларацияловчи шахслар қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда ва муддатларда товарларни электрон шаклида декларациялашлар ва электрон шаклда тақдим этиладиган хужжатларнинг сақланишини таъминлайди.

33. Божхона брокерлари қонунчилик хужжатларига мувофиқ декларацияловчи шахслар рўйхатига киритилаётган маълумотлар тўғрилигига жавобгар ҳисобланади.

## **7-боб. Якуновчи қоидалар**

34. Божхона хизмати органлари ходимлари ТЭДларнинг ушбу Низомнинг 15-бандида кўрсатилган муддатларда расмийлаштирилиши учун шахсан жавоб берадилар, бундан божхона хизмати органларининг автоматлаштирилган тарзда расмийлаштирилган ёки мазкур Низомнинг 15-бандининг йигирма олтинчи хатбошиси асосида сабаблари декларацияловчи шахсга маълум қилинган товарларни электрон шаклида декларациялашлар мустасно.

35. Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими дастурига уланган божхона ва ваколатли органлар ўз ваколатлари доирасида ташқи савдо операцияларини амалга оширувчи

хўжалик субъектлари ва давлатга зарар етказувчи тизимдаги мавжуд маълумотларга ноқонуний кириш, уларни ўзгартириш ёки бошқа ҳаракатлардан ҳимоялаш бўйича зарур бўлган ташкилий ва техник чораларни кўриши шарт.

Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими дастуридаги маълумотларга кириш хукуқи бўлган божхона ва ваколатли органлар ходимлари мазкур маълумотларни ошкор этиш, ўз мақсадлари ёки учинчи шахслар манфаатларида фойдаланиш ҳамда учинчи шахсларга маълумотларнинг белгиланган ҳимоя қоидаларини бузган ҳолда, уларни олиш имкониятини яратиш хукуқига эга эмас.

36. Божхона юк декларацияси ҳамда божхона назоратини ўтказиш учун зарур бўлган бошқа хужжатлар божхона органларида товарлар божхона назорати остида турган товар мақомини йўқотган йилдан кейинги йилдан эътиборан уч йил давомида сақланади.

37. Давлат божхона қўмитаси декларацияловчи шахсларга товарларни электрон шаклида декларациялаш ва Давлат божхона қўмитаси томонидан кўрсатиладиган интерактив хизматлар орқали улар томонидан тақдим этилган товарларни электрон шаклида декларациялашларнинг ва электрон хужжатларнинг декларация расмийлаштирилган санадан бошлаб ўн беш кунлик муддатга қадар юклаб олиш, қофозда ёзма шаклини чоп этиш хукуқи ва имкониятини таъминлайди.

Давлат божхона қўмитаси пуллик хизмат асосида декларантларга ўзларига тегишли товарларни электрон шаклида декларациялашларнинг божхона юк декларацияси расмийлаштирилган санадан бошлаб уч йил ичida ўз серверида сақлаб бериш, уларни қофозда ёзма шаклини чоп этиш ва товарларни электрон шаклида декларациялашга оид бошқа маълумотларни олиш имкониятини таъминлайди.

Пуллик хизматдан тушган йигимлар Давлат божхона қўмитасининг моддий ёрдам, ижтимоий ҳимоя қилиш, божхона хизмати органларини ривожлантириш ва кўзда тутилмаган харажатлар маҳсус жамғармасига йўналтирилади ва белгиланган тартибда тақсимланади.

Мазкур пуллик хизматларнинг турлари, шакллари, мақомлари ва хизматга пул тўлашнинг тарифлари Давлат божхона қўмитаси томонидан белгиланади ва ўзининг расмий веб-сайтига жойлаштиради.

38. Электрон шаклида декларациялашда божхона хизмати органлари томонидан бошқа шахслар учун товарларни электрон шаклида декларациялаш ва унга тегишли хужжатларнинг қофозда ёзма шакли чоп этилмайди ва имзо ҳамда муҳр билан тасдиқланмайди. Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида кўзда тутилган ҳолатлар бундан мустасно.

ТЭД ва тегишли хужжатларнинг қофозда ёзма шаклидаги нусхаларини божхона хизмати органлари томонидан тасдиқлаш тартиби Давлат божхона қўмитаси томонидан белгиланади.

39. Рухсат этувчи ва бошқа хужжатларнинг электрон шаклини шакллантиришда ваколатли органлар ходимлари тегишли маълумотларнинг ўз вақтида киритилиши ҳамда уларнинг тўғрилиги учун шахсан масъулдирлар.

40. ТЭДлардаги аниқ келишувлар ва уларнинг ташқи иқтисодий фаолият қатнашчиларига боғлиқлиги тўғрисидаги маълумотлар конфиденциал ҳисобланади.

41. Аниқ ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларининг амалга оширган операциялари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш тақиқланади, қонунчилик хужжатларида назарда тутилган ҳолатлар бундан мустасно.

42. Манбаатдор вазирлик ва идоралар томонидан божхона юк декларациясини тақдим этиш сўралганда, божхона юк декларацияси асосида шаклланган маълумот қофозда ёзма шаклда ёки электрон кўринищда ёхуд ўзаро келишувга асосан ахборот алмашинуви тизимлари орқали тақдим этилади, ушбу Низомнинг 41-бандида тақиқланган ҳолатлар бундан мустасно.

43. Ушбу Низомнинг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик хужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Товарларни декларациялаш тартиби тўғрисидаги низомга

1-ИЛОВА

## Товарларни декларациялаш тартибини амалга ошириш

### СХЕМАСИ

<b>Босқичлар</b>	<b>Иштирокчилар</b>	<b>Тадбирлар</b>	<b>Бажариш муддатлари</b>
1-босқич	Ваколатли органлар	<p>1. Рұхсат этувчи ва бошқа хужжатларни идоралараро ҳамкорлик даражасыда божхона ахборот тизимиға киритилишини таъминлайды ёки юборади.</p> <p>2. Мурожаат құлувчиларға рұхсат этувчи ва бошқа хужжатларни тақдим этади.</p>	Мурожаат құлувчиларға хужжатларни берішдан аввал ёки уларни беріш билан бир вақтда Қонунчиликда белгиланған муддатларда
2-босқич	Декларацияловчи шахс	Товарларнинг электрон декларацияси ҳамда тақдим этиладиган хужжатларни тайёрлайды, электрон рақамли имзоси билан тасдиқлайды ва автоматлаштирилған ахборот тизими орқали божхона органларига юборади.	Тайёр бўлишига кўра
3-босқич	Ягона автоматлаштирилған ахборот тизими	<p>1. Товарларнинг электрон декларацияси божхона ахборот тизимининг дастлабки формат-мантикий назоратидан ўтказилади ва текширувларнинг ижобий натижасыда, унга автоматлаштирилған тарзда тартиб рақами берилиб, рўйхатдан ўтказилади.</p> <p>2. Формат-мантикий назоратидан ижобий ўтмаган товарларнинг электрон декларацияси, хабарномада сабаблари кўрсатилған холда декларацияловчи шахсга қайтариб юборилади.</p> <p>3. Рўйхатдан ўтган товарларнинг электрон декларацияси божхона ахборот тизими орқали божхона расмийлаштирувини амалга оширувчи божхона органларининг ходимлари ўртасида автоматлаштирилған тарзда тақсимланади ёки божхона органлари ходими иштирокисиз, маҳсус алгоритмлар асосида</p>	Реал вақт режимида

автоматлаштирилган тарзда расмийлаштирилиши мумкин.

		<p>1. Товарларнинг электрон декларациясини келиб тушган вақтидан бошлаб 3 соат ичидаги қабул қиласи. Ушбу муддатда қабул қилинмаган товарларнинг электрон декларацияси ахборот тизими томонидан автоматик тарзда қабул қилинади.</p> <p>2. Божхона органлари ходими товарларни электрон декларациясини қабул қилган вақтдан бошлаб унинг расмийлаштирувани амалга оширади.</p> <p>3. Товарларнинг электрон декларациясининг божхона расмийлаштируви якунланганлиги расмийлаштирувни ўтказган божхона органлари ходими томонидан ўзининг электрон рақамли имзоси билан белги қуиши орқали тасдиқланади ва бу ҳақда божхона ахборот тизими томонидан автоматлаштирилган тарзда декларацияловчи шахснинг ТИФ иштирокчиси кабинетига хабарнома юборилади.</p>	
4-босқич	Божхона органлари ходими		<p>Товарларнинг электрон декларацияси божхона органларига келиб тушганда. Низомнинг 15-бандидаги «а», «б» ва «в» — кичик бандларида белгиланган муддатларда. (хавф даражаси паст ва хавф даражаси ўрта кўрсаткичларда божхона органларининг иш вақтидан ташқари пайтда декларация тақдим этилган ҳолатлар бундан мустасно).</p> <p>Божхона расмийлаштируви якунланганида.</p>

».

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Божхона омбори, эркин омбор ва бож олинмайдиган савдо дўкони фаолиятини лицензиялаш юзасидан давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида» 2020 йил 9 апрелдаги 210-сон қарорида:

а) **1-иловада:**

2-банднинг тўққизинчи хатбошисидаги «худуд» сўзи «божхона назорати зonasи» сўzlари билан алмаштирилсин;

**3-бандда:**

иккинчи ва учинчи хатбошилар қуидаги мазмундаги иккинчи, учинчи ва тўртинчи хатбошилар билан алмаштирилсин:

«Ўзбекистон Республикасига олиб келиш ва Ўзбекистон Республикасидан олиб чиқиши тақиқланган товарларни (божхона органлари томонидан олиб қўйилган ва божхона органлари томонидан таъсис этилган божхона омборига жойлаштирилган товарлар бундан мустасно);

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида айланиши ва сотилиши тақиқланган товарларни; ваколатли давлат органлари томонидан олиб қўйилган ва давлат даромадига ўтказиладиган мол-мулкни сақлашга рухсат берилмайди»;

**16-бандда:**

иккинчи хатбошига «божхона омбори ҳудудига» сўzlаридан кейин «божхона назорати зonasига» сўzlари кўшилсин;

**тўртинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Агар бинонинг ёки иншоотнинг ёхуд очик майдоннинг бир қисми божхона омбори ҳисобланса, унга бориш йўллари ва туташиб кетадиган бутун худуд божхона назорати остидаги товарларга бегона шахсларнинг яқинлашишини истисно этадиган қилиб жиҳозланиши керак.»;

**17-бандда:**

**биринчи хатбошига** «бинолари» сўзидан кейин «ва (ёки) очик майдончалари» сўзлари қўшилсин;

**учинчи хатбоши** чиқариб ташлансан;

**тўртинчи ва бешинчи хатбошилар** тегишинча учинчи ва тўртинчи хатбошилар деб ҳисоблансан;

**18-бандда:**

**иккинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«божхона омбори сифатида фойдаланиш учун мўлжалланган бинолар ҳажмини ва (ёки) очик худуднинг ҳамда божхона назорати зонасининг умумий майдонини»;

**бешинчи хатбошига** «майдони» сўзидан кейин «ҳамда божхона назорати зонаси» сўзлари қўшилсан;

**20-бандда:**

**иккинчи хатбошига** «яхлит тўсиқлар» сўзларидан кейин «(узлуксиз темир панжара ёки девор)» сўзлари қўшилсан;

**тўртинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«оғир юкли транспортнинг манёвр (тўсиққа чап бериш учун ўз йўналишини ўзгартириб бажариладиган ҳаракатлари — қайта тизилиш, бурилиш, қайрилиб олиш, ортга ҳаракат, айланиб ўтиш) қилиш имкониятини таъминлаши;»;

**олтинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«барча кириш (чиқиш) ва (ёки) чиқиш (кириш) жойларида ўзбек, рус ва инглиз тилларида «божхона назорати зонаси» белгиси қўйилган, олинган тасвирларни уч ой давомида кўрсатиш ҳамда божхона органларига онлайн узатиш имконига эга бўлган, куну тун ишлайдиган автотранспорт воситасининг давлат рақами белгисини ва темир йўл транспорти воситасининг рақамини аниқлаш тизими билан жиҳозланган назорат-ўтказиш пунктлари бўлиши»;

қўйидаги мазмундаги еттинчи хатбоши қўшилсан;

«товарларни божхона омборига жойлаштириш ва омбордан олиб чиқиш фақат божхона назорати зонаси орқали амалга ошириладиган тарзда жиҳозланиши лозим.»;

**22-банднинг биринчи хатбошига** «биттадан кам бўлмаган» сўзларидан кейин «усти» сўзи қўшилсан;

**24-бандда:**

«корхоналар худудидаги ва» сўзларидан кейин «ёки» сўзи қўшилсан;

қўйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши қўшилсан:

«Махсус (режимли) обьектларда жойлашган ёпиқ турдаги божхона омборларига лицензия талаблари ва шартларини қўллашда алоҳида тенг кучга эга ёки юқори турувчи норматив-хукуқий хужжат талаблари эътиборга олинади»;

**26-бандда:**

**тўртинчи хатбошидаги** «факс» сўзи чиқариб ташлансан;

қўйидаги мазмундаги олтинчи хатбоши қўшилсан:

«божхона омборига ўрнатилган видеокузатув тизимига уланган»;

**30-бандда:**

**бешинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«лицензия талаблари ва шартлари асосида жиҳозланган видеокузатув тизимлари ёрдамида олинган вақт бўйича узлуксиз видеоёзувларнинг уч ой давомида сақланишини таъминлаш, шунингдек уларга ўзгартириш киритиш, устига ёзиш, ўчириш, нусха олиш,

кўчириб олиш каби ҳаракатларни бажаришнинг ва бошқа мақсадларда фойдаланишининг олдини олиш;»;

кўйидаги мазмундаги олтинчи — саккизинчи хатбошилари билан тўлдирилсин:

«видеокузатув тизимини божхона назорати остида товарларни ташиётган транспорт воситасининг божхона омбори ҳудудига кириб келишидан товарлар билан амалга ошириладиган ҳар бир юк ва бошқа операцияларни ҳамда уларнинг божхона омборларига жойлаштирилиши ва чиқариб юборилиши бўйича кетма-кетликда олинган видеоёзувларни таъминлайдиган қилиб ўрнатиш;

видеокузатувни тўлиқ амалга ошириш имконини берадиган ёритиш тизими билан таъминлаш;

видеоёзувларнинг узлуксизлигини ва ахборот тизимининг мунтазам ишлашини таъминлаш учун муқобил электр манбаси (курилмалари)га эга бўлиши;»;

**олтинчи — йигирма учинчи хатбошилари** тегишли равишда тўққизинчи — йигирма олтинчи хатбошилари деб ҳисоблансин;

**32-бандда:**

**иккинчи хатбошига** «ашёвий хукуқлар ёки» сўзларидан кейин «муддатларини кўрсатган ҳолда» сўзлари қўшилсин;

**учинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«автомобиль ва темир йўллар кўрсатилган ҳолда, божхона омбори учун мўлжалланган ҳудуд (шунингдек, ёндош) ҳамда бинолар ва (ёки) очик майдончаларнинг сифатли чизмаси (ўлчамлари кўрсатилган божхона назорати зонаси, кўриқланадиган ҳудуд билан бирга) ва кадастр йиғма жилдидаги тарҳи»;

37-банднинг **иккинчи хатбошиси** чиқариб ташлансин;

**40-банд** ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

**44-банд** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«44. Лицензияловчи органда ташкил этилган эксперт комиссияси хulosса тайёрлаш жараёнида обьект (бино, иншоотлар ва (ёки) ҳудуд) бўйича қўйидаги маълумотларни электрон ҳамкорлик йўли билан ёхуд электрон сўров орқали олади ва унинг натижаларини хulosага қўшади:

Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитасидан — ижара шартномаси тўғрисида;

Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитаси хузуридаги Кадастр агентлигидан — кўчмас мулкка бўлган хукуқ тўғрисида.

Белгиланган муддатларда бошқа ваколатли органлар томонидан жавоб берилмаганда, қўшимча ҳужжатлар олинган ёки улар билан келишилган ҳисобланади, бунда мазкур ваколатли органлар вужудга келиши мумкин бўлган барча оқибатлар учун жавобгар бўлади.

Ваколатли давлат органлари обьект (бино, иншоотлар ва (ёки) худуднинг) санитария ва ёнғин қоидалари бўйича тадбирлар талабларига мувофиқлигини таъминлаш мақсадида тадбиркорлик субъектларига малакали кадрларни излаш, ҳужжатлар ва дастурларни қайта ишлаш учун мутахассисларни жалб қилиш ҳамда лицензиялар ва рухсат этиш хусусиятига эга бўлган бошқа ҳужжатларни олиш учун зарур шарт-шароитларни яратишда ёрдам беради, талабгорнинг таклиф этилган ёрдамни рад қилиш ҳоллари бундан мустасно»;

**48-банддаги** «тҳақида» сўзи «ҳақида» сўзи билан алмаштирилсин;

қўйидаги мазмундаги 61<sup>1</sup>-банд қўшилсин:

«61<sup>1</sup>. Божхона омборларида божхона назорати остидаги товарлар ва транспорт воситаларининг божхона назоратини амалга ошириш жараёнида лицензия талаблари ва шартлари бўйича номувофиқликлар кузатилганда, божхона органи божхона назорати остидаги товарлар ва транспорт воситаларига нисбатан божхона назоратининг қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилишини таъминлаш чорасини кўрган ҳолда, лицензия талаблари ва шартлари бузилганлиги ҳолати бўйича шу куннинг ўзида лицензияловчи органни хабардор қиласди»;

**73-бандда:**

**ўнинчи, ўн биринчи** ва **ўн иккинчи хатбошилар** чиқариб ташлансин;

**ўн учинчи хатбоши** ўнинчи хатбоши деб ҳисоблансан;

**85-бандга** қуидаги мазмундаги тўртинчи — тўққизинчи хатбошилари қўшилсан:

«Лицензияловчи орган божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжат киритилган сўровномани олган кундан эътиборан ўн кун муддатда ушбу ҳужжатни божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қиласида ёки рад этади ва бу ҳақида хабарнома юборади.

Куидаги ҳолларда божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатнинг божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қилиниши рад этилади:

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатда нотўғри маълумотлар кўрсатилганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатни расмийлаштиришга асос бўлган шартнома тақдим этилмаганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатда кўрсатилган сумма микдори Божхона кодексининг 338-моддасида кўрсатилган микдордан кам бўлганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжат шартлари Божхона кодексининг 344 ва 345-моддаларида белгиланган, тўланиши лозим бўлган божхона тўловларининг суммаси ва фоизлар қонун ҳужжатларига мувофиқ божхона органи томонидан сўзсиз тартибда ундириб олиниши талабларига зид бўлганда»;

**б) 2-иловада:**

2-банднинг **еттинчи хатбошидаги** «ҳудуд» сўзи «божхона назорати зонаси» сўzlари билан алмаштирилсан;

**6-банд** қуидаги таҳрирда баён этилсан:

«6. Эркин омборларда товарлар билан чакана савдо операцияларини амалга оширишга йўл қўйилмайди»;

7-банднинг **иккинчи хатбоши** қуидаги таҳрирда баён этилсан:

«Эркин омборда сақлашни назарда тутмайдиган ўзгача божхона режими остида сақлашга ариза берилган товарлар эркин омбордан танланган божхона режимига мувофиқ бундай товарлар чиқарилиши пайтидан бошлаб, уч иш қунидан кечикмай олиб чиқилиши керак»;

8-банднинг **биринчи хатбоши** қуидаги таҳрирда баён этилсан:

«8. Лицензия лицензияловчи орган томонидан амал қилиш муддати чекланмаган ҳолда, омбор ҳудудига (эркин омбор сифатида фойдаланиш мўлжалланаётган бинолар ва (ёки) очик майдончалар, шунингдек, божхона назорати зонаси) эга бўлган лицензия талабгорига лицензия талабгори, эркин омбор ҳудуди, бинолар ҳамда божхона назорати зонаси ушбу Регламент талаблари ва шартларига мувофиқ бўлиши шарти билан берилади»;

**14-бандда:**

**иккинчи хатбошига** «эркин омбор ҳудудига» сўzlаридан кейин «божхона назорати зонасига» сўzlари қўшилсан;

**тўртинчи хатбоши** қуидаги таҳрирда баён этилсан:

«Агар бинонинг ёки иншоотнинг ёхуд очик майдоннинг бир қисми эркин омбор ҳисобланса, унга бориш йўллари ва туташиб кетадиган бутун ҳудуд божхона назорати остидаги товарларга бегона шахсларнинг яқинлашишини истисно этадиган тарзда жиҳозланиши керак»;

**16-бандда:**

**биринчи хатбошига** «бинолари» сўзидан кейин «ва (ёки) очик майдончалари» сўzlари қўшилсан;

**учинчи хатбоши** чиқариб ташлансан;

**тўртинчи ва бешинчи хатбошилар** тегишинча учинчи ва тўртинчи хатбошилар деб ҳисоблансан;

**17-бандда:**

**иккинчи хатбоши** қуидаги таҳрирда баён этилсан:

«эркин омбор сифатида фойдаланиш учун мўлжалланган бинолар ҳажмини ва (ёки) очик ҳудуднинг ҳамда божхона назорати зонасининг умумий майдонини»;

**бешинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин;

«Бунда эркин омбор ҳудуди ва бинолар майдони ҳамда божхона назорати зонаси мазкур Регламентда назарда тутилган талаблар ва шартлар ҳисобга олинган ҳолда ажратилиши керак»;

**19-бандда:**

**иккинчи хатбоши** «яхлит тўсиқлар» сўзларидан кейин «(узлуксиз темир панжара ёки девор)» сўзлари қўшилсин;

**тўртинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«оғир юкли транспортнинг манёвр (тўсиққа чап бериш учун ўз йўналишини ўзгартириб бажариладиган ҳаракатлари — қайта тизилиш, бурилиш, қайрилиб олиш, ортга ҳаракат, айланиб ўтиш) қилиш имкониятини таъминлаши»;

**олтинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«барча кириш (чиқиш) ва (ёки) чиқиш (кириш) жойларида ўзбек, рус ва инглиз тилларида «божхона назорати зонаси» белгиси қўйилган, олинган тасвиirlарни уч ой давомида кўрсатиш ҳамда божхона органларига онлайн узатиш имконига эга бўлган, куну тун ишлайдиган автотранспорт воситасининг давлат рақами белгисини ва темир йўл транспорти воситасининг рақамини аниқлаш тизими билан жиҳозланган назорат-ўтказиш пунктлари бўлиши»;

қўйидаги мазмундаги еттинчи хатбоши қўшилсин:

«товарларни эркин омборга жойлаштириш ва ундан олиб чиқиш фақат божхона назорати зонаси орқали амалга ошириладиган тарзда жиҳозланиши лозим»;

21-банднинг **биринчи хатбоши** «биттадан кам бўлмаган» сўзларидан кейин «усти» сўзи қўшилсин;

**24-бандда:**

**тўртинчи хатбошидаги** «факс» сўзи чиқариб ташлансин;

қўйидаги мазмундаги олтинчи хатбоши қўшилсин:

«эркин омборга ўрнатилган видеокузатув тизимига уланган»;

**28-бандда:**

**бешинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«лицензия талаблари ва шартлари асосида жиҳозланган видеокузатув тизимлари ёрдамида олинган вақт бўйича узлуксиз видеоёзувларнинг уч ой давомида сақланишини таъминлаш, шунингдек уларга ўзгартириш киритиш, устига ёзиш, ўчириш, нусха олиш, кўчириб олиш каби ҳаракатларни бажаришнинг ва бошқа мақсадларда фойдаланишнинг олдини олиш;»;

қўйидаги мазмундаги олтинчи — саккизинчи хатбошилари билан тўлдирилсин:

«видеокузатув тизимини божхона назорати остида товарларни ташиётган транспорт воситасининг эркин омбор ҳудудига кириб келишидан товарлар билан амалга ошириладиган ҳар бир юк ва бошқа операцияларни ҳамда уларнинг эркин омборларга жойлаштирилиши ва чиқариб юборилиши бўйича кетма-кетликда олинган видеоёзувларни таъминлайдиган қилиб ўрнатиш;

видеокузатувни тўлиқ амалга ошириш имконини берадиган ёритиш тизими билан таъминлаш;

видеоёзувларнинг узлуксизлигини ва ахборот тизимининг мунтазам ишлашини таъминлаш учун муқобил электр манбаси (қурилмалари)га эга бўлиши;»;

**олтинчи — йигирма иккинчи хатбошилари** тегишли равища тўққизинчи — йигирма бешинчи хатбошилари деб ҳисоблансин;

**30-бандда:**

**иккинчи хатбоши** «ашёвий хукуқлар ёки» сўзларидан кейин «муддатларини кўрсатган ҳолда» сўзлари қўшилсин;

**учинчи хатбоши** қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«автомобиль ва темир йўллар кўрсатилган ҳолда, эркин омбор учун мўлжалланган худуд (шунингдек, ёндош) ҳамда бинолар ва (ёки) очик майдончаларнинг сифатли чизмаси (ўлчамлари кўрсатилган божхона назорати зонаси, кўриқланадиган худуд билан бирга) ва кадастр йиғмажилдидаги тарҳи»;

35-банднинг иккинчи хатбошиси чиқариб ташлансин;

38-банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

42-банд қуидаги таҳрирда баён этилсин:

«42. Лицензияловчи органда ташкил этилган эксперт комиссияси хulosса тайёрлаш жараёнида объект (бино, иншоотлар ва (ёки) худуд) бўйича қуидаги маълумотларни электрон ҳамкорлик йўли билан ёхуд электрон сўров орқали олади ва унинг натижаларини хulosага қўшади:

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасидан — ижара шартномаси тўғрисида;

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси хузуридаги Кадастр агентлигидан — кўчмас муликка бўлган ҳукуқ тўғрисида.

Белгиланган муддатларда бошқа ваколатли органлар томонидан жавоб берилмаганда қўшимча ҳужжатлар олинган ёки улар билан келишилган ҳисобланади, бунда мазкур ваколатли органлар вужудга келиши мумкин бўлган барча оқибатлар учун жавобгар бўлади.

Ваколатли давлат органлари объектнинг (бино, иншоотлар ва (ёки) худуднинг) санитария ва ёнгин қоидалари бўйича тадбирлар талабларига мувофиқлигини таъминлаш мақсадида тадбиркорлик субъектларига малакали кадрларни излаш, ҳужжатлар ва дастурларни қайта ишлаш учун мутахассисларни жалб қилиш ҳамда лицензиялар ва рухсат этиш хусусиятига эга бўлган бошқа ҳужжатларни олиш учун зарур шарт-шароитларни яратишда ёрдам беради, талабгорнинг таклиф этилган ёрдамни рад қилиш ҳоллари бундан мустасно»;

қуидаги мазмундаги 59<sup>1</sup>-банд қўшилсин:

«59<sup>1</sup>. Эркин омборларда божхона назорати остидаги товарлар ва транспорт воситаларининг божхона назоратини амалга ошириш жараёнида лицензия талаблари ва шартлари бўйича номувофиқликлар кузатилганда, божхона органи божхона назорати остидаги товар ва транспорт воситаларига нисбатан божхона назоратининг қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилишини таъминлаш чорасини кўрган ҳолда, лицензия талаблари ва шартлари бузилганлиги ҳолати бўйича шу куннинг ўзида лицензияловчи органни хабардор қиласди.»;

71-банддан ўнинчи, ўн биринчи ва ўн иккинчи хатбошилар чиқариб ташлансин;

83-бандга қуидаги мазмундаги тўртинчи — тўққизинчи хатбошилари қўшилсин:

«Лицензияловчи орган божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжат киритилган сўровномани олган кундан эътиборан ўн кун муддатда ушбу ҳужжатни божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қиласди ёки рад этади ва бу ҳақида хабарнома юборади.

Куидаги ҳолларда божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатнинг божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қилиниши рад этади:

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатда нотўғри маълумотлар кўрсатилганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатни расмийлаштиришга асос бўлган шартнома тақдим этилмаганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжатда кўрсатилган сумма миқдори Божхона кодексининг 338-моддасида кўрсатилган миқдордан кам бўлганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи ҳужжат шартлари Божхона кодексининг 344 ва 345-моддаларида белгиланган, тўланиши лозим бўлган божхона тўловларининг суммаси ва фойизлар қонун ҳужжатларига мувофиқ божхона органи томонидан сўзсиз тартибда ундириб олиниши талабларига зид бўлганда»;

**3-илованинг** «П. Илова қилинадиган хужжатлар» бўлими 2-бандидаги «божхона омбори» сўзлари «эркин омбор» сўзлари билан алмаштирилсин;

**в) 3-иловада:**

4, 21 ва 34-бандлар ўз кучини йўқотган деб хисоблансин;

**22-бандда:**

**тўртинчи хатбоши** қуидаги тахрирда баён этилсин:

«лицензия талаблари ва шартлари асосида жиҳозланган видеокузатув тизимлари ёрдамида олинган вақт бўйича узлуксиз видеоёзувларнинг уч ой давомида сақланишини таъминлаш, шунингдек уларга ўзгартириш киритиш, устига ёзиш, ўчириш, нусха олиш, кўчириб олиш каби ҳаракатларни бажаришнинг ва бошқа мақсадларда фойдаланишининг олдини олиш;»;

куидаги мазмундаги бешинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

«видеокузатувни тўлиқ амалга ошириш имконини берадиган ёритиш тизими билан таъминлаш»;

**бешинчи — ўн тўккизинчи хатбошилари** тегишли равища олтинчи — йигирманчи хатбошилари деб хисоблансин;

**26-бандда:**

**иккинчига хатбошига** «ашёвий хукуқлар ёки» сўзларидан кейин «муддатларини кўрсатган ҳолда» сўзлари қўшилсин;

**учинчи хатбошидаги** «тархи ва чизмаси» сўзлари «чизмаси ва кадастр йиғма жилдидаги тархи» сўзлари билан алмаштирилсин;

30-банднинг **биринчи хатбошисидаги** «божхона омбори» сўзлари «бож олинмайдиган савдо дўкони» сўзлари билан алмаштирилсин;

31-банднинг **иккинчи хатбошиси** чиқариб ташлансин;

**38-бандда:**

**иккинчи** ва **учинчи хатбошилар** чиқариб ташлансин;

**тўртинчи** ва **еттинчи хатбошилар** тегишинча иккинчи ва бешинчи хатбошилар деб хисоблансин;

**иккинчи хатбошидаги** «Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитасидан» сўзлари «Давлат солик қўмитаси ҳузуридаги Кадастр агентлигидан» сўзлари билан алмаштирилсин;

куидаги мазмундаги тўртинчи ва бешинчи хатбошилар қўшилсин:

«Белгиланган муддатларда бошқа ваколатли органлар томонидан жавоб берилмаганда, қўшимча хужжатлар олинган ёки улар билан келишилган ҳисобланади, бунда мазкур ваколатли органлар вужудга келиши мумкин бўлган барча оқибатлар учун жавобгар бўлади.

Ваколатли давлат органлари обьектнинг (бино, иншоотлар ва (ёки) ҳудуднинг) санитария ва ёнғин қоидалари бўйича тадбирлар талабларига мувофиқлигини таъминлаш мақсадида тадбиркорлик субъектларига малакали кадрларни излаш, хужжатлар ва дастурларни қайта ишлаш учун мутахассисларни жалб қилиш ҳамда лицензиялар ва рухсат этиш хусусиятига эга бўлган бошқа хужжатларни олиш учун зарур шарт-шароитларни яратишида ёрдам беради, талабгорнинг таклиф этилган ёрдамни рад қилиш ҳоллари бундан мустасно»;

**тўртинчи** ва **бешинчи хатбошилар** тегишинча олтинчи ва еттинчи хатбошилар деб хисоблансин;

51-банднинг **иккинчи хатбошисидаги** «божхона омбори» сўзлари «бож олинмайдиган савдо дўкони» сўзлари билан алмаштирилсин;

67-банддан **ўнинчи, ўн биринчи** ва **ўн иккинчи хатбошилар** чиқариб ташлансин;

**79-бандда:**

**иккинчи хатбошидаги** «божхона омбори» сўзлари «бож олинмайдиган савдо дўкони» сўзлари билан алмаштирилсин;

куидаги мазмундаги учинчи — саккизинчи хатбошилар қўшилсин:

«Лицензияловчи орган божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжат киритилган сўровномани олган кундан эътиборан ўн кун муддатда ушбу хужжатни божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қиласи ёки рад этади ва бу ҳақида хабарнома юборади.

Куйидаги ҳолларда божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжатнинг божхона тўловлари тўланишини таъминлаш воситаси сифатида қабул қилиниши рад этилади:

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжатда нотўғри маълумотлар кўрсатилганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжатни расмийлаштиришга асос бўлган шартнома тақдим этилмаганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжатда кўрсатилган сумма миқдори Божхона кодексининг 338-моддасида кўрсатилган миқдордан кам бўлганда;

божхона тўловлари тўланишини таъминловчи хужжат шартлари Божхона кодексининг 344 ва 345-моддаларида белгиланган, тўланиши лозим бўлган божхона тўловларининг суммаси ва фоизлар қонун хужжатларига мувофиқ божхона органи томонидан сўзсиз тартибда ундириб олиниши талабларига зид бўлганда»;

3. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 ноябрдаги 700-сон қарори билан тасдиқланган Божхона йигимлари **ставкаларига**:

а) куйидаги мазмундаги 9-банд қўшилсин:

« 9. «Жисмоний шахсларнинг чегара божхона постлари орқали нотижорат мақсадларида олиб кирилаётган, белгиланган меъёрлардан ортиқ бўлган товарларини чегара божхона постлари томонидан вақтинча сақлаганлик учун ҳар 100 кг.гача оғирликка (брутто) тўлиқ ва тўлиқ бўлмаган ҳар бир календарь кун учун:»	
дастлабки беш кунда;	БХМнинг 5 фоизи
кейинги ўн кунда;	БХМнинг 7 фоизи
колган кунларда;	БХМнинг 10 фоизи
тез бузиладиган товарларни вақтинча сақлаганлик учун;	БХМнинг 15 фоизи

».

\*\*\* изоҳга «бож олинмайдиган савдо дўкони» сўзларидан кейин «шунигдек, уларга бевосита туташ бўлган доимий божхона назорати зоналари» сўзлари қўшилсин.

(Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.08.2021 й., 09/21/531/0809-сон; 05.09.2022 й., 09/22/487/0794-сон)